

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK:665.335.9

NURBEK ABDULLAYEVICH QODIROV

**Birinchi jahon urushi arafasida Turkiston o'lkasida ijtimoiy –
iqtisodiy va siyosiy hayot**

(mutaxassislik: 5A 120301 – O'zbekiston tarixi)

Magistr akademik daraja olish uchun
d i s s e r t a t s i y a

Ish ko'rildi va himoyaga tavsiya etildi
Tarix kefedrasining mudiri
_____ t.f.n. S.Mirsoatova
“____” ____ 20__y.

Ilmiy rahbar:
_____ tarix fanlari nomzodi,
dotsent **A.Sharafiddinov**
“____” ____ 20__y.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

Fakultet: Magistratura

Magistrant: N.A.Qodirov

Kafedra: Tarix

Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent
A.Sharafiddinov

O'quv yili: 2014-2016

Mutaxassisligi: 5A 120301-
O'zbekiston tarixi

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASIGA ANNOTATSIYA

Tayanch so'zlar: Jahon urushi, Chig'iriq, pud, jin mashinasi, metropoliya, gubernya, uezd, volost, kustar sanoat, proletariat, monokultura, paxta yakkahokimligi, yer solig'i, Amerika paxta navi, desyatina, yashter, urbanizatsiya, yollanma ishchi, paxta vasvasasi, Oxranka, yangi usul maktabi, jadidchilik, islohotchilik.

Tadqiqot obyektlari: Ushbu ilmiy tadqiqotning davriy chegarasi qilib XX asr boshlaridan to birinchi jahon urushi boshlanishi arafasigacha (1900-1914 yillar) bo'lgan davri olindi. Chunki bu davrda mustamlakachilik tizimi, uning iqtisodiyotda, ma'naviy hayotda va umuman olganda barcha sohalardagi ko'rinishlarida namoyon bo'lgan va xalqning sabr kosasi to'lgan davr hisoblanadi.

Tadqiqot metodlari: Mavzuni yoritishda tarixiylik, xolislik, mantiqiy va qiyosiy, tahliliy metodlarga amal qilindi. Tadqiqotning ilmiy metodologik asoslari Prezident I.A.Karimovning istiqlol mafkurasi asosida o'tmish tarixni o'rganishga qaratilgan g'oyalari tashkil etadi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Tadqiqotda birinchi jahon urushi arafasida Turkiston o'lkasida sanoat va savdoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar,

o'lkada milliy ozodlik harakatlari, jadidchilikning vujudga kelishi, Xiva xonligi va Buxoro amirligida istiqlolchilik harakatlari shu davrga oid ababiyotlar asosida tarixiy ketma-ket birinchi marotaba umumlashtirildi. Ishning ilmiy yangiligi shundaki, biz o'rganayotgan davrda Turkiston o'lkasi, Xiva xonligi va Buxoro amirligida ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixi ijtimoiy fanlarda qaror topgan yangicha kurashlar va mustaqillik mafkurasi asosida tadqiq qilindi.

Amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertatsiyasining nazariy va amaliy ahamiyati shundaki, undagi asosiy ma'lumotlar, xulosa va taxminlar, o'rganilayotgan davr tarixi bilan qiziquvchilarga yordam beradi.

Tadqiqot natijalaridan o'quv qo'llanmalari, darsliklar yaratishda hamda undagi faktik materiallar, xulosa va taxminlardan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlarida Vatan tarixi darslarida, magistratura maxsus kurslarida foydalanish mumkin.

Ilmiy rahbar: A.Sharafiddinov

Magistrant: N.A.Qodirov

MINISTRY OF HIGHER AND SECONDARY SPECIAL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
FERGHANA STATE UNIVERSITY

Faculty: Department of Master's degree **Student of Master's degree:** N.Kadirov

Department: History

Scientific supervisor: A.Sharafiddinov

Academic year: 2014-2016

Speciality: 5A 120301- History of
Uzbekistan

ANNOTATION

thesis of Kadirov Nurbek Abdullaevich on the scientific degree competition of Master of historical sciences on speciality 5A 120301 – History of Uzbekistan on subject “Turkistan region on the eve of the First World War, socio - economic and political life”

Key words : World War II, filter, talent, gin, Metropolitan, gubernya districts, Volosil, Cousteau industrial proletariat, the monopoly of cotton monoculture, land tax, American cotton varieties, desyatina yashter, urbanization, and hired workers, the temptation of cotton, ocher, a new method school, jadidism, reformatory .

Research object: This research periodic boundary of the twentieth century until the period of the First World War (19001914) period. For this period, the colonial system, and its spiritual life and the economy in general, in all areas, which form filled out the patience of the people and the period.

Research methods: historical theme, objective, logical and comparative analysis techniques. Research on the basis of the ideology of the scientific and methodological principles of independence, President Islam Karimov ideas aimed at the study of the history of the past.

The results and their novelty: The Turkistan region on the eve of the First World War, industrial and socio-economic relations in trade, the country's national liberation movements, jadidism occur on the same period of the Emirate of Bukhara and Khiva Khanate independence movement for the first time in history on the basis of literatures consequential summarized. Scientific novelty of the work that we are in the period examined Turkestan Khanate of Khiva and Bukhara Emirate history of social and political processes in the social sciences has been the basis of a new ideology of the independence struggle and study.

Practical importance of research : Master's thesis and its theoretical and practical significance, its fundamentals and speculation , interested in the history of the period. The results of the research study guides, textbooks, and its factual material, and tens of secondary schools, vocational colleges and higher educational institutions on the lessons of the history of the motherland, the special master's courses can be considered.

Scientific supervisor:

A.Sharafiddinov

Student of Master's degree:

N.Kadirov

MUNDARIJA

Kirish.....	7
I-Bob. Turkiston o‘lkasida sanoat va savdoda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar.....	14
1.1. Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi. Sarmoyadorlik munosabatlarining vujudga kelishi.....	14
1.2. Turkiston o‘lkasida paxta yakkahokimligining qaror topishi.....	24
1.3. XX asr boshlarida o‘lkada sanoat ishchilarining shakllanish jarayoni.....	31
II-Bob. Turkiston o‘lkasida milliy-ozodlik harakati. Jadidchilik.....	40
2.1. XX asr boshlarida o‘lkada Rossiya istibdodiga qarshi xalq kurashi.....	40
2.2. Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi.....	52
III-Bob. Birinchi jahon urushi arafasida Xiva xonligi va Buxoro amirligida islohotchilik harakatlari.....	64
3.1. Xiva xonligida ma’rifatchilik va islohotchilik harakatlarining asosiy yo‘nalishlari.....	64
3.2. Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy hayot, xalqning ahvoli. “Yosh buxoroliklar harakati”.....	73
Xulosa.....	84
Foydalilanigan manbalar va adabiyotlar ro‘yxati.....	88

Kirish

Dissertatsiya mavzusini asoslanishi va uning dolzarbligi. Tarixga kirib borayotgan bugungi har bir kun o‘z mohiyati va ahamiyati jihatidan o‘nlab yillarga tengdir. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda har kuni uzoq davr mobaynida to‘planib, o‘z yechimini kutib yotgan ko‘pgina muammolar hal qilinmoqda, ayrim jabhalarda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni ijobjiy yo‘nalishga burish va undan jamiyat manfaatlari yo‘lida foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar qilinmoqda. Bu o‘rinda tarix fani sohasida to‘plangan masalalarni hal qilish hamda xalqning qalbi va xotirasi bo‘lmish bu qadim fanning nufuzini ko‘tarish, mas’uliyati va vazifalarini belgilab olish borasida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1998-yil 27-iyul qarori katta ahamiyat kasb etadi. Qarorda tarix sohasida o‘z yechimini kutib yotgan asosiy nazariy va amaliy masalalar bilan bir qatorda “jamiyat taraqqiyotining asosi, uni muqarrar halokatdan qutqarib qoladigan yagona kuch”¹ ma’rifatning asosiy ustunlaridan biri bo‘lgan tarix fanini rivojlantirish maqsadida qator ilmiy vazifalar belgilab berildi.

Vatanimiz tarixinining podsho Rossiyasi mustamlakachiligi davri tarixini ilmiy tadqiq etish, unga haqqoniy baho berish va to‘plangan tajribadan ijodiy foydalanish mustaqil O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun asrimiz boshiga kelib jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi hisoblangan O‘zbekiston tarixini o‘rganish XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi davr tarixini o‘rganish ham davlat siyosatining ajralmas qismi bo‘lib qoldi. Yurtboshimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Har qaysi xalq qadriyatlarini, o‘z maqsad-muammolari, shu bilan birga umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida birga rivojlantirib, ma’naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi”².

¹ Халқ сўзи, 1998 йил 27 июль.

² Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: Маънавият, 2008. Б.97.

Ayniqsa mustamlakachilik davridagi iqtisodiy hayot, xalq ommasining turmushi, madaniyati, xo‘jalik hayoti tarixini o‘rganish, uning bosqichlarini chuqr o‘rganish va tahlil qilish tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni ilmiy tahlil qilish, ilmiy muomalaga kiritish maqsadida tadqiqotlar olib borish shu kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Ta’kidlash o‘rinliki, mustaqillik sharofati bilan biz o‘tmish taraqqiyot yo‘limizni hech bir mafkuraviy aqidasiz o‘rganish va yoritish imkoniyatiga ega bo‘ldik. Chunki “tarix xotirasi, xalqning jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqiqiy tarixini tiklash, milliy iftixorni tiklash va o‘sirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”¹.

Ta’kidlash joizki, o‘rganilayotgan davrda mustamlakachi davlatning barcha sohalardagi siyosati to‘la amalga oshirib bo‘lingan va uning yuqori cho‘qqisiga ko‘tarilgan edi. Bu davrda Chorizm O‘zbekistonni o‘zining paxta bazasiga aylantirish siyosatida ma’lum yutuqlarga erishgan, paxtakor-dehqonlarni va umuman mehnatkash xalq ommasini ahvoli o‘ta og‘irlashgan davr edi. Birinchi jahon urushi arafasida Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisini ma’naviy qaram qilish siyosati strategiyasi, mahalliy millat xalqlarining huquq, odat va an’analarini nazar-pisand qilmasligi, musulmon diniy va ruhoniylarning rolini pasaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar, mustamlakachilik hokimiyyati tomonidan ma’naviy hayot, butun madaniyat, ta’lim va tarbiya tizimi ustidan mafkuraviy nazarat o‘rnatish siyosati, milliy ong va milliy g‘oyani yo‘qotish bo‘yicha imperiyaga amaliyat, bularning eng yuqori darajaga yetishi milliy ziylolilarni chorizmning buyuk davlatchilik, shovinistik siyosatiga qarshi kurashini, hamda jadidlar harakatining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga, o‘lka xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashiga olib keldi. Bunday holatlarni umumiyl o‘rganilishi, tahlil qilinishi bugungi kunda tarix fanida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистон, 1997. Б.140.

Magistrlik dissertatsiya ishining davriy chegarasi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishining davriy chegarasi qilib XX asrning boshlaridan to birinchi jahon urushi boshlanishi arafasigacha (1900-1914-yy) bo‘lgan davr olindi. Chunki bu davrda mustamlakachilik tizimining iqtisod, ma’naviy va umuman olganda hayotning barcha sohalaridagi ko‘rinishlari namoyon bo‘lgan va xalqning sabr-kosasi to‘lgan davr hisoblanadi.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. XX asr boshlariga kelib, paxtachilik Turkiston sanoati va qishloq xo‘jaligi yalpi mahsulotining 40 foizini tashkil etgan edi. Shu bilan birga, ta’kidlash joizki, birinchi jahon urushi arafasiga kelib paxtachilikni rivojlanishi, paxta monokulturasi (yakka hokimligi)ga olib kelgan edi. “Paxta yakkahokim”ligi sovet davrida ham respublika iqtisodiyotining bir yoqlama rivojlanib, Ittifoqning xom ashyo bazasiga aylanib qolishiga olib keldi. Natijada O‘zbekiston eng oddiy sanoat mahsulotlariga bo‘lgan o‘z ehtiyojining yarmini ham qondira olmay qoldi. Yetishtirilgan paxtaning atigi 7 foizi respublikada qayta ishlandi. Bir qancha viloyat va tumanlarda ekin maydonlari nisbatida paxtazorlar 75-80 foizni tashkil qildi¹.

Shunday ekan, bu jiddiy muammoga XX asr boshlarida quyidagi mualliflar o‘z e’tiborlarini qaratganlar. Paxtachilik masalasiga, umuman Turkistondagi agrar munosabatlarga bag‘ishlangan asarlar yozgan mualliflar ichida N.P.Verxovskiy²ning asari alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Shuningdek, A.I.Shaxnazarova³, S.I.Gulishambarov⁴ kabilarning asarlarida ham paxtachilik va paxta bilan bog‘liq sanoat haqida ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga sovet davrida ham A.M.Aminov va A.M.Yuldashev⁵ kabi mualliflar ham o‘z monografiyalarida qishloq xo‘jaligi va paxtachilik tarixi bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni tahlil qilganlar.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислом Каримовнинг “Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида” китобини ўрганиш бўйича ўқув – услубий қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 2012. Б.42.

² Верховский Н.П. Хлопководство в Туркестане и перевозка хлопка Ташкентской и среднеазиатской железными дорогами. –СПб., 1910.

³ Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестаском крае. –СПб., 1908.

⁴ Гулишамбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района. Асхабад. 1913.

⁵ Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). Т.: Госиздат. 1959; Юлдашев А.М. Аграрное отношение в Туркестане (конец XIX – начало XX в.). Т.: Фан. 1969.

Keyingi davrlarda, ayniqsa XX asrning 20-yillarida ba’zi bir mualliflar Turkiston o‘lkasi xo‘jalik hayoti masalalariga o‘zlarining e’tiborlarini qaratdilar. Masalan, A.P.Demidov¹ o‘lkada paxtachilikni rivojlanish xususiyatlari hamda paxtachilik bilan bog‘liq sanoatning paydo bo‘lishi va rivojlanish masalalarini yoritib berdi.

Shu bilan birga, istiqlol yillarida qator monografik asarlar ham vujudga keldiki, ularda ham o‘rganilayotgan davr iqtisodi, sanoati, sarmoyadorlik munosabatlarining paydo bo‘lishi, ishchilar sinfi va mahalliy burjuazianing shakllanishi masalalari u yoki bu darajada e’tibordan chetda qolmagan. Masalan, O‘zbekistonning yangi tarixi², Sh.Karimov, R.Shamsutdinov³, E.Mirzaolimov, M.Bozorov⁴ kabilarning asarlarida qator masalalar bilan birlashtirishda paxtachilik va paxta tozalash zavodlari hamda yog‘-moy sanoatining shakllanishi haqida ham qimmatli ma’lumotlar e’lon qilingan.

Shu bilan birga jadidchilik, ularning paydo bo‘lishi, jadid namoyondalari, ularning faoliyati haqidagi qator monografik va ilmiy-ommabop asarlar ham e’lon qilindi. Masalan, Sh.Rizayev⁵, D.To‘rayev⁶, X.Uzoqov⁷ va kollektiv mualliflar⁸ tomonidan yaratilgan kitoblarni ko‘rsatish mumkin.

Birinchi jahon urushi arafasida Buxoro va Xiva xonligida ro‘y bergan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlar ham tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘ldi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, barcha tarixiy voqealar qatorida Buxoro amirligi va Xiva xonligi tarixi ham katta e’tibor bilan o‘rganila boshlandi. Masalan, K.Xudoyberganov⁹, S.Xasanov¹⁰, R.Rajabova¹¹,

¹ Демидов А.П. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и промышленности. Москва, 1926.

² Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Т.: Шарқ. 2000.

³ Каримов Ш., Шамсатдинов Р. Туркистон Русия босқини даврида. Андижон. Мерос. 1995.

⁴ Мирзаолимов Э.Ю., Бозоров М.Т. Наманганнинг XIX аср охири XX аср бошларида социал – иқтисодий ва маданий ривожланиши. Наманган, 1998.

⁵ Ризаева Ш. Жадид драмаси. Т.: Шарқ. 1997.

⁶ Тураев Д. Миллий истиқбол гояси ва жадид адабиёти. Т.: Шарқ. 2002.

⁷ Узоқов Х. Эр киши битта гапиради. Т.: Шарқ. 1997.

⁸ Жадидчиликнинг кўзга кўринган вакиллари. Т.: Маънавият. 2002.

⁹ Худойберганов К. Хива хонлари шажазаси. Урганч: Хоразм, 1996.

¹⁰ Хасанов С. Хоразм маърифати олами кўзгуси. Т.: Ўқитувчи. 1996.

¹¹ Ражабов Р. Суронли замонлар// Хива минг гумбаз шахри. Т.: Шарқ. 1997.

A.Abdurasulov¹, Q.Rajabov², D.Ziyoyeva³ kabi tadqiqotchilarning asarlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligida XIX asr boshlarida sodir bo‘lgan turli masalalarga e’tibor qaratilgan.

Mavzu tarixshunosligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sobiq sovet tuzumi davrida Turkiston o‘lkasining XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag‘ishlangan bir qator asarlar yaratilgan bo‘lsada, ularda tarixiy voqealarga, ijtimoiy-siyosiy harakatlarga sinfiylik nuqtai nazaridan baho berilib, noto‘g‘ri talqin etildi, soxtalashtirildi.

Ta’kidlash joizki, mustaqillik yillarda Turkiston o‘lkasining birinchi jahon urushi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixining ayrim jihatlari qator tarixchilarning ilmiy maqola va risolalarida qisman yoritilgan bo‘lsa ham, u alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmadi. Siyosiy jarayonlar, kompleks tahlil etilmadi. Yangicha yondashuv asosida o‘rganish lozim bo‘lgan bir qancha masalalar mavjudligi e’tibordan chetda qolgan.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi birinchi jahon urushi arafasida Turkiston o‘lkasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot jarayonlarini, o‘lka chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin mustamlakachilik tizimining barcha ko‘rinishlari ro‘yobga chiqqan va unga qarshi turli fikrlar, g‘oyalari, kayfiyat va munosabatlar haqida tushuncha hosil qilishdan iborat. Mazkur maqsadni amalga oshirish o‘z navbatida quyidagi vazifalarni belgilab beradi.

- Turkiston o‘lkasida sanoat ishlab chiqarishning rivojlanish sabablari, sarmoyadorlik munosbatlarining vujudga kelishini o‘rganish;
- XX asr boshlarida jamiyatning ilg‘or sinfi hisoblangan ishchilar sinfining shakllanishi va uning sabablarini o‘rganish va tahlil qilish;
- O‘lkada paxtachilikning rivojlanishi oqibatida, paxta monokulturasining paydo bo‘lishi va uning oqibatlari haqida fikr bildirish;

¹ Абдурасулов А. Хива. Т.: Ўзбекистон. 1997.

² Ражабов Қ. Бухоро ва Хоразм республикаларида куролли муҳолифат кураши. //Ўзбекистон совет мустамлакачилик даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-жилд. Т.: Шарқ. 2000.

³ Зияева Д. Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги Россия протекторати остида (XIX asr oxiri – XX asr boшларида). Т.: Шарқ. 2003.

- Mehnatkash xalq ommasining qashshoqlanishi, huquqsizligi oqibatida mustamlaka, istibdodiga qarshi norozilik harakatlarini ko'rsatib berish;
- Milliy-ozodlik kurashi, milliy uyg'onishda ma'naviy kuch-quvvat va ilhom manbai bo'lган ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, milliy demokratik harakat – jadidchilikning vujudga kelishi sababalari va mohiyatini o'rganish;
- Xiva xonligi va Buxoro amirligida ma'rifatchilik va islohotchilik harakatlari ijtimoiy-iqtisodiy hayot, xalqning ahvoli va siyosiy voqealarni tahlil etish;
- Tadqiqot natijalari asosida umumlashgan xulosalarni bayon qilib, ushbu sohada yana o'rganilishi lozim bo'lган masalalar yuzasidan takliflar bildirish.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining uslubiy asosi. Mavzuni o'rganish chog'ida tadqiqotchi tomonidan tarixiylik tamoyiliga, yangicha fikrlash, haqiqiy ilmiy tahlilga, ilmiy tafakkurning umumbashariy tamoyiliga, bo'lib o'tgan voqealar o'zaro dialektik aloqador degan qarashga asoslandi. Tadqiqot jarayonida mavzuga milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy istiqlol mafkurasidan kelib chiqqan holda yondashildi. Tadqiqotda tarixiylik, tarixiy-qiyosiy tahlil umuminsoniy va milliy manfaatlar, qadriyatlar uyg'unligi kabi tamoyillarga amal qilindi. Tadqiqotning nazariy asosini respublika yetakchi tarixchi olimlarining asarlari, Prezident I.A.Karimovning milliy istiqlol mafkurasiga bag'ishlangan nutqlari va 1998-yil "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q" nomi ostida chop etilgan asari tashkil etdi. Magistrant mustaqillik ruhi bilan sug'orilgan ustivor uslubiy va ilmiy-nazariy yo'l yo'riqlardan, metodologik asoslardan kelib chiqqan holda mazkur tadqiqotni yoritishga harakat qildi.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining manbalari.

Tadqiqotning asosiy manbalarini uch guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga chor rossiyasi davrida nashr etilgan kitoblar; ikkinchi guruhga sovet davrida nashr etilgan kitoblar; uchinchi 3 guruhga mustaqillik davrida nashr etilgan kitoblar va maqolalar hamda dissertatsiya avtoreferatlari bo'ldi.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining ilmiy jihatdan yangiligi. Uning ilmiy yangiligi shundaki, unda birinchi jahon urushi arafasida Turkiston o'lkasi, Buxoro

amirligi va Xiva xonligidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar tarixi ijtimoiy fanlarda qaror topgan yangicha qarashlar va mustaqillik mafkurasi asosida tadqiq qilindi.

Magistrlik dissertatsiyasi ishining amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalaridan o‘quv qo‘llanmalari, darsliklar yaratishda hamda undagi faktik materiallar, xulosa va tahlillar umum ta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlaridagi Vatan tarixi o‘qitish darslarida, magistratura maxsus kurslarida foydalanish mumkin, deb hisoblaymiz.

Magistrlik dissertatsiya ishining tarkibi. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, yetitta paragraf, xulosa va foydalanilgan manba hamda adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

I Bob. Turkiston o'lkasida sanoat va savdoda ijtimoiy – iqtisodiy munosabatlar

1.1. Turkistonda sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi.

Sarmoyadorlik munosabatlarining vujudga kelishi

Ma'lumki, qadimgi davrlarda paxta chigitdan chig'iriqlar yordamida ajratilgan. Bu ishni bajarish uchun juda ko'p vaqt va mashaqqatli mehnat sarflanib, bir pud paxtani chuvash va chig'iriqdan o'tkazish uchun 2 kun ishslashga to'g'ri kelgan. Chig'iriqda ishslashning yana bir salbiy tomoni shundaki, shu jarayonida chigit ezilib, sifati pasaygan. Shuningdek, paxtaning navlarga ajratish imkonini yo'q edi. Vaqt kelib, paxtani chig'iriqdan o'tkazish usuli talabga javob bermay qoldi. Paxtachilikning rivojlanishi uning sifati va unumdoorligini oshiradigan ilg'or usulni qo'llashni taqozo etdi. Bu samarador ishni amalga oshirish vazifasi birinchi navbatda firmalarning zimmasiga tushdi. Ular, avvalombor, o'z manfaatlarini ko'zlab paxta tozalash zavodlarini qurishga kirishdilar. Masalan, 1880-yilda Qo'qonda aka-uka Kamenskiylar birinchi bo'lib shunday zavodni ishga tushirdilar¹.

Turkiston sanoatining asosiy xususiyati uning mustamlaka xarakterida bo'lishidadir. Turkiston sanoati asosan chetga olib ketiladigan mahsulotni ishlab berish bilan shug'ullandi. O'lkadagi ichki bozor talablarini qondiruvchi sanoat tarmoqlari o'zining miqyosi jihatidan ikkinchi o'rinda turardi.

Paxta tozalash, jun yuvish, pilla quritish, ko'n zavodlari, ichakni qayta ishslash, pillakashlik fabrikalari, qisman yog'-moy zavodlari va shu kabilar chetga chiqariladigan mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari edi. Oziq-ovqat, sovungarlik, tegirmonchilik, pivo, vino va konchilik sanoati tarmoqlari ichki bozorga xizmat qilib keldi.

XX asr boshida Turkiston shaharlarida sanoat anchagina o'sganligi ko'zga tashlanadi. Sanoatning rivojlanish darajasi umuman Rossiyaning markaziy

¹ Зиёев X. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. –Т.: Шарқ, 2006. –Б.201.

rayonlaridagidan ancha orqada qolib kelgan bo‘lsa ham, ammo uning o‘sish sur’atlarini nisbatan yuksak edi.

Quyida keltirilgan jadvalda Farg‘ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlarida sanoatning rivojlanishi haqida ma’lumotlar keltirilgan¹.

Viloyatlar	Yangi ochilgan korxornalar			
	1900-yilga qadar	1900-yildan 1910-yilga qadar	1910-yildan 1914-yilga qadar	Hammasi
Farg‘ona	67	105	112	284
Sirdaryo	50	80	47	177
Samarqand	54	38	20	112
Jami	171	223	179	573

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, sanoat qurilishi birinchi jahon urushidan oldingi oxirgi yillarda juda tez o‘sdi, chunki o’sha vaqtida butun Rossiyada sanoat tez rivojlanmoqda edi. O‘rta Osiyo podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingandan to 1900-yilga qadar jami 171 ta korxona ishga tushirilgan, 1900-1910-yillarda esa 223 ta korxona qurilgan bo‘lsa, keyingi to‘rt (1910-1914-yy) ichida 179 ta korxona qurilgan².

Hammasi bo‘lib, Farg‘ona, Sirdaryo va Samarqand viloyatlari, ularning shahar va uezdlarida jami bo‘lib 613 ta korxona bor edi. Shu korxonalarda 18914 ishchi ishlar va har bir korxonaga o‘rta hisobda 30 ishchi to‘g‘ri kelar edi. Har bir korxonaning yillik ishlab chiqarish mahsuloti o‘rtacha 211037 so‘mni tashkil qilardi³.

Quyida keltirilayotgan jadvalda esa eksport uchun ishlab chiqariladigan mahsulot ishlab chiqaruvchi tarmoqlar to‘g‘risida ma’lumot beradi.

¹ Ўзбекистон тарихи. II жилд. Т.: Фан, 1971. Б.169.

² Заорская В.В., Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. –Пг., 1915. –С.18.

³ Ko‘satilgan asar. С.170

Tarmoq	Korxo-nalar	Ishchilar soni	Ishlab chiqarilgan mahsulot (so‘m hisobida)	Har bir korxonaga to‘g‘ri keladigan	
				Ishchilar soni	Mahsulot miqdori
Paxta tozalash sanoati	175	7 680	96 501 167	44	551 435
Pillakashlik	38	3 315	3 298 087	87	86 790
Ichakni qayta ishlash korxonalari	6	116	250 559	19	41 760
Ko‘n zavodlari	38	190	806 890	5	20 234
Jami :	257	11 301	100 856 653	50	388 890

Ichki iste’molni qondirish uchun mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalar 356 ta bo‘lib, ularda jami 6003 ishchi ishlardan edi. Bularning yillik yalpi mahsuloti 28 409 695 so‘mni tashkil qildi. Bir korxonada o‘rtalagi hisobda 17 ishchi ishlardan va har bir korxonaning bir yillik mahsuloti 79802 so‘mni tashkil qilar edi. Shu tarmoqlar orasida oziq-ovqat sanoati nisbatan rivojlangan bo‘lib, unga qarashli 126 korxona yiliga 17 593 280 so‘mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarar edi; bir korxonada o‘rtalagi hisobda 21 ishchi ishlardi; har bir korxonaning yillik yalpi mahsuloti o‘rtalagi hisobda 137447 so‘mni tashkil qilar edi. Eksport uchun ishlab kelgan sanoat korxonalar bilan ichki iste’molni qondirishga xizmat qilib kelgan sanoat korxonalarining nisbati mana shunday edi.

Eksportga xizmat qiluvchi sanoat tarmoqlari qishloq xo‘jaligi bilan to‘la ravishda bog‘langan edi. Turkistonda sanoatining asosiy tarmog‘i bo‘lgan paxta tozalash sanoati metropolianing ip gazlama sanoatiga butunlay bo‘ysundirilgan

edi. Mana shu ip gazlama sanoatining xarakteri va yo‘nalishi Turkiston sanoatining ham qanday bo‘lishligini belgilab berdi¹.

Turkistonda ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi mustamlakachilik xarakterida bo‘lganligi paxta tozalash sanoati misolida yaqqol ko‘rinib turibdi. Turkiston o‘lkasining uch viloyatidagi paxta tozalash sanoati jami 96,5 million so‘mlik mahsulot berib turdi. Bu esa, mazkur viloyatlardagi sanoat berayotgan jami yalpi mahsulotning qariyib 80%ini tashkil qilar va rus ip gazlama sanoati ehtiyojining yarmini qoplardi. Turkistonda paxta faqat dastlabki qayta ishlashdan o‘tkazilar, tola bilan bajariladigan qolgan ishlarning barchasi Turkistondan tashqari sanoat tumanlarida amalga oshirilar edi.

Turkiston sanoatida paxta tozalash sanoati birinchi rolni o‘ynab keldi va metropoliya to‘qimachilik sanoatining qo‘sishimchasi bo‘lib qoldi.

Yetishtirilgan sanoat navlarining jami yalpi mahsulotini paxta tozalash sanoati to‘la ravishda qayta ishlab berar edi. Dehqon ro‘zg‘orida ishlatiladigan paxtagina qo‘lda, ya’ni chig‘iriqda tozalanardi. Bu ehtiyojlarning hammasiga jaydari g‘o‘za deb atalgan mahalliy paxta navi ishlatilar edi.

Turkistondagi 208 ta paxta tozalash zavodida 8060 ishchi ishlar, o‘rta hisobda har bir zavodga 39 ishchi to‘g‘ri kelar edi. Zavodlarning asosiy fondlari 21,1 million so‘mni tashkil qilardi; 1913-yilda bu zavodlar 17785 ming tonna paxta tolasi berdi².

Biz o‘rganayotgan davrda Turkistonning paxta tozalash sanoatida muayyan texnikaviy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Bug‘ kuchi bilan ishlaydigan yoki ichdan yonuv dvigatellarni ishlatayotgan paxta tozalash zavodlari 145 taga yetdi. Qolgan zavodlarda hali ham suv dvigatellaridan foydalanilar edi. 1911-yilda tekshirib chiqilgan 157 zavoddan 48 tasining har qaysisida o‘rta hisobda 7 tadan jin mashina ishlab turganligi aniqlandi. Qolgan zavodlarning har qaysisida esa 3-4 tadan jin mashina bor edi. Biroq, umuman olganda paxta zavodlarining texnika darajasi hali past edi.

¹ Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.). Т.: Фан. 1997. С.71.

² Кастельская З.Д. Из истории Туркестанского края. Москва. Наука. 1980. С.63.

Paxta tozalash zavodlari qurila boshlanishi va ko‘payishi oldinga tashlangan katta qadam bo‘ldi hamda O‘rta Osiyoda sanoat ishlab chiqarishni boshlab berdi. Biroq chorizm va rus burjuaziyasining mustamlakachilik siyosati sanoatning bu tarmog‘i metropoliya ip gazlama sanoatining bir qismi bo‘lib qoldi. Paxta tozalash sanoatining kengaytirilishi va texnika jihatidan takomillashtirilishi rus burjuaziyasi manfaatlariga bog‘liq edi.

Turkiston paxta tozalash sanoatini rivojlantirish sur’atlari nisbatan yuksak bo‘lsa ham, texnika jihatidan u Rossiya markaziy o‘lkalaridagi ip gazlama sanoatiga nisbatan ancha past edi. Buni quyidagi ma’lumotlardan ko‘rish mumkin¹:

Estlandiya gubernasi	30	10	2 995	10,9
Kostroma gubernasi	87	75	12 800	43,0
Yaroslav gubernasi	31	19	4 050	14,0
Farg‘ona viloyati	57	5	440	3,5

Bu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Kostroma guberniyasida ishlab chiqarishning qimmati Farg‘ona viloyatidagiga nisbatan 52 foiz ko‘p, binobarin ishchilar Farg‘ona viloyatidagiga qaraganda 15 barobar ziyodroq ko‘p; texnika jihatdan eng rivojlangan viloyat deb hisoblangan. Turkiston o‘lkasidagi jamiki mexanik dvigetellarni 80 foizini o‘zida to‘plagan Farg‘ona viloyatidagiga nisbatan Estlandiya gubernasida ish haqi 2,6 barobar va mexanik dvigetallar 3 barobar ko‘p bo‘lgan².

Paxtachilik va paxta tozalash zavodlari ko‘payib borishi asosida yog‘-moy zavodlari vujudga keldi Boshqa moyli ekinlar mahsulidan (nasha, zig‘ir, kunjut va shu kabilardan) ichki iste’mol uchun kerakli moy har bir shahar va qishloqdagi moy juvozlarning o‘zida ishlab chiqarilar edi. Paxta tozalash zavodlari bo‘lgan joylarda yog‘-moy zavodlari ham bo‘lar edi deyish mumkin. Yog‘-moy zavodlari Farg‘ona viloyatida ayniqsa ko‘p edi. Birinchi jahon urushi arafasida Qo‘qon

¹ История ССР XIX - начало XX вв. Москва. Высшая школа. 1981 С. 251.

² Ko‘satilgan asar. С. 250.

uezdida 5 ta, Andijon, Namangan va Marg‘ilon uezdlarida 4 tadan, Samarqand uezdida 2 ta, Kattaqo‘rg‘on uezdida 1 ta, Toshkent uezdida 5 ta, Kogonda 1 ta yog‘-moy zavodi bor edi. Hozirgi O‘zbekiston hududida 21 ta zavod bo‘lib, ularda 1983 ishchi ishlardi, shu zavodlarning asosiy fondlari esa 4.4 million so‘mni tashkil qilar edi. 1913-yilda yog‘-moy zavodlari 63.5 ming tonna o‘simlik moyi ishlab chiqargan bo‘lib, har bir korxonada o‘rta hisobda 80 ishchi ishladi¹.

Bu ma’lumotlar paxta tozalash zavodiga nisbatan har bir yog‘-moy zavodiga ikki baravar ko‘p ishchi va asosiy fondlar to‘g‘ri kelganligini ko‘rsatib turibdi. Yog‘-moy zavodlari paxta tozalash zavodlarining ko‘plariga qaraganda ancha mukammalroq texnika bilan uskunalangan edi.

Sovungarlik paxtachilik bilan chambarchas bog‘langan sanoat tarmoqlaridan biri edi. Ozmi-ko‘pmi kattaroqsovungarlik zavodlari Qo‘qonda (2 ta), Andijonda (1 ta), Namanganda (1 ta), Toshkentda (2 ta) joylashgan edi. Bu zavodlar paxta moyining chiqitlarini ishlab, sovunga aylantirardi. Moy ishlab chiqarish sanoatida bo‘lgani kabi sovungarlikda ham kustar sanoatining hissasi hali ancha miqdorni tshkil qilar edi. Lekin shunga qaramay, yog‘-moy zavodlari va sovun zavodlari vujudga kelganligi O‘zbekistonda sanoatni rivojlantirishda oldinga qo‘yilgan katta qadam bo‘ldi. Paxta tozalash zavodlaridan bu sanoat tarmog‘ining farqi shundaki, yog‘-moy zavodlari va sovungarlik zavodlari tayyor mahsulot berar va ichki bozorga xizmat qilar edi. O‘zbekistondagi butun sanoat yalpi mahsuloti qimmatining taxminan 87 foizini paxta tozalash, yog‘-moy va sovungarlik sanoati hissasiga to‘g‘ri kelar edi.

O‘rganilayotgan davrda O‘zbekistonda ipak sanoati qurt urug‘i zavodlaridan, pillakashlik va pilla quritish korxonalaridan iborat edi. Haqiqatda bu korxonalar juda qoloq bo‘lib, faqat shartli ravishdagina sanoat korxonalari deb atash mumkin. Qurt urug‘i zavodlarida pillaning ichidan qurtini chiqarib olib, qutilarga solar va bahorgacha saqlab qo‘yar edilar. Pilla quritish korxonalarida pillalarni oftobda yoki maxsus quritish xonalarida qizdirib, pillaning ichidagi qurtlari o‘ldiriladi. Pillakashlik ishlari esa avvalgidek hunarmandlar – shoyi to‘quvchilar qo‘lida

¹ Зиёев Х. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. – Т.: Шарқ, 2006. – Б. 243.

bajarilardi, Turkistonda yetishtirilgan pillaning ko‘pchilik qismi dastlabki ishlash uchun rus va chet el pillakashlik fabrikalariga olib ketilar edi.

Ho‘l mevalar Turkistonning o‘zida deyarli qayta ishlanmas edi. Ulardan faqat qoqi tayyorlanar, uzumdan qisman vino, mayiz esa ko‘proq qilinardi. Chorvachilik mahsulotlari qayta ishlovchi korxonalar (ko‘n zavodlari, jun yuvish va ipakni qayta ishlash korxonalari)da faqat dastlabki ishlovdan o‘tardi.

Boshqa sanoat tarmoqlaridan – tegirmonchilik, vino, aroq zavodlari, metall ishslash va konchilik sanoati Turkiston uchun birmuncha sezilarli rol o‘ynab keldi.

Turkistonga don keltirish ko‘payib borayotganligi sababli tegirmonchilik sanoati ham kengaytirilishi lozimligi tabiiy edi. Shahar aholisi o‘sib, paxtakor rayonlarning chetdan keltiriladigan g‘allaga talabi ko‘payib borishi ham shuni taqozo etardi. Farg‘ona, Samarqand va Sirdaryo viloyatlari hududlarda kattaroq hisoblangan 20 ta mashina (mexanik) tegirmon bor edi. Shu tegirmonlardan 17 tasi Farg‘onada, 2 tasi Samarqandda, 1 tasi Buxoroda edi. Samarqanddagи 2 ta mashina tegirmonning har qaysisida 23 tadan ishchi, Farg‘onadagi 17 ta tegirmonda jami 331 ishchi ishlardi¹.

Haqiqatda tegirmonchilik sanoati iste’mol qilinayotgan donning juda oz qismini ishlab berar edi. O‘lkaning o‘zida iste’mol qilinadigan uning aksariyati bir necha ming suv tegirmonlarida tayyorlanar edi. Tegirmonchilik sanoati kabi guruch zavodlari xam endigma vujudga kela boshlagan edi. Guruch zavodlarining ko‘pchiligi Toshkent uezdida bo‘lib, bu uezddagi 8 zavod bir yilda 450 ming so‘mlik mahsulot berar edi. Haqiqatda bu zavodlar yarim kustar tipidagi korxonalar edi, ularning har qaysisida bor-yo‘g‘i 5-6 ishchi ishlar edi.

Turkiston o‘lkasida hammasi bo‘lib 37 ta vino-aroq zavodi bor edi. Shunday zavodlarning kattarog‘i Toshkentda bo‘lib, bu yerda 3 ta aroq zavodi va 4 ta vino zavodi bor edi. Aroq zavodlarining har qaysisida 38 tadan ishchi ishlar, har bir zavodning yalpi mahsuloti o‘rta hisobda 375 ming so‘mni tashkil qiladi; vino zavodlarining har qaysisida 23 tadan ishchi ishlab, har bir korxonaning yillik mahsuloti 66 ming so‘mga teng edi. Qolgan 30 korxona Samarqandda bo‘lib, u

¹ Заорекая В.В., Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. Петербург. 1915. С. 40.

yerda 3 ta konyak zavodi va 27 ta aroq vino-zavodi bo‘lib, bu zavodlar har oyda o‘rta hisobda 16-18 ming so‘mlik mahsulot berardi.

Oziq-ovqat va yengil sanoatning boshqa tarmoqlari orasida pivo zavodlari ham salmoqli o‘rin tutardi. Samarqanddagi pivo zavodi eng katta korxona hisoblanib, unda 175 ishchi ishlab, zavodning yillik yalpi mahsuloti esa 400 ming so‘mni tashkil qilar edi. Bundan tashqari, Toshkentda 4 ta, Andijonda 1 ta, Namanganda 1 ta va Skobelevda 2 ta pivo zavodi bor edi¹.

Og‘ir sanoat tarmoqlaridan elektrostansiyalarni, cho‘yan quyish va g‘isht zavodlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin. Lekin bu tarmoqlar ham endigina vujudga kelayotgan edi. Hozirgi O‘zbekiston hududida nisbatan kattaroq hisoblangan 10 ta cho‘yan quyish korxonasi bo‘lib, shulardan 9 tasi Toshkentda edi. Bu korxonalarda 220 ishchi ishlab yillik mahsulot 300 ming so‘mga yetar edi. Bu korxonalar ro‘zg‘or uchun kerakli buyumlar, ketmon, belkurak va omoch tishi kabi qishloq xo‘jalik asboblari ishlab chiqarardi. Umuman olganda, O‘rta Osiyoda og‘ir industriya va uning asosiy qismi bo‘lgan metall ishlash sanoati yo‘q edi. Kustarchilik yo‘li bilan metall ishlash sanoatining mahsuloti cho‘yan eritish zavodlarining mahsulotlariga nisbatan 2 baravar ziyodroq edi.

O‘zbekiston shaharlarida o‘sha davrda katta hisoblangan 27 ta g‘isht zavodi bor edi. Bu zavodlar yiliga 562 ming so‘mlik mahsulot berardi. G‘isht zavodlari faqat Toshkent, Samarqand, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Skobelev shaharlarining ruslar yashaydigan qismidagi qurilishlarni g‘isht bilan ta’minlab turdi. Boshqa shaharlar va qishloqlarning g‘ishtga bo‘lgan ehtiyojlarini mahalliy g‘isht humdonlari ta’minlardi.

Elektrostansiylarga kelganda shaharlarda endigina paydo bo‘la boshlagan bu stansiyalar asosan maishiy ehtiyojlarga xizmat qilar edi. O‘lka gidroenergetika resurslariga juda boy bo‘lganligiga qaramay bu yerda bitta ham gidroelektrostansiya yo‘q edi.

¹ Дехконов А. История фабрично – заводской промышленности и рабочего класса в Ферганской долине. (Конец. XIX начала XXв.). Автореферат диссертации конд ист. Наук. – Т.: 1981-С.15.

Ta'kidlash joizki, oktyabr to'ntarishidan oldin O'zbekistonidagi konchilik sanoati juda orqada edi. Tog'-kon foydali qazilmalaridan neft (Farg'ona vodiysida), temir (Samarqandning Boysun tumani), mis (Qo'qon uezdi-sho'r suvlar), jilvir (Kattaqo'rg'on tumani), osh tuzi (Farg'ona va Surxondaryo vodiylarida), glauber tuzi (Xorazm vohasida) mavjud edi. Kon sanoati va neft korxonalari nisbatan rivojlangan tarmoq hisoblanadi. Hozirgi O'zbekiston hududida Chimyon neft konlari ishlab turar edi. Shu konlardan 1905-1907 yillarda 69 ming tonna neft olindi¹.

Temirga bo'lган ehtiyoj o'sha vaqtida chetdan keltirilayotgan xom ashyo hisobiga qoplanar edi. Novkat va Tarang'utsoy tumanida mis qazib chiqarilar edi. 1902-yildan 1911-yilgacha ishlatilib kelgan Novkat mis koni jami 25 ming tonna ruda bergen. Tarang'utsoy mis konidan esa 1908-yildan to 1916-yilga qadar 1600 tonna ruda olindi.

Ozokerit qazib chiqarish ancha tez suratlar bilan rivojlandi. Bu metall asosan chet mamlakatlarga sotilar edi. Turkiston ozokeriti tashqi bozorda muhim o'rinni egallab oldi. 1913-yilda O'rta Osiyoda 432 tonna ozokerit qazib chiqarildi. Shuningdek, o'rganilayotgan davrda hozirgi O'zbekiston hududida ishlatilib kelgan ko'mir yo'q edi. Biroq Farg'ona vodiysida qirg'iz tumanlarida toshko'mir konlari topilib, ko'mir qazib chiqarish rivojlanmoqda edi. Sulukta, Qizilqiya, Sho'rob, Jettibuloq qishloqlari mana shunday toshko'mir konlari joylashgan hududlar edi. Bu toshko'mir konlarida ruslar, qirg'izlar, o'zbeklar, tojiklar, shaxtyor bo'lib ishlagan. Toshko'mirni sotib olish va boshqa hududlarga yetkazib berish ehtiyoji tufayli Dragomirovo, Melnikogo, Gorchakogo va boshqa temir yo'l stansiyalarining ishi avj olib ketdi. Bu hududlarda toshko'mir zahirasi qancha ko'p bo'lsa ham, qazib chiqarilayotgan toshko'mirning miqdori uncha katta emas edi².

Biz ko'rib chiqayotgan davrda O'rta Osiyoda temir yo'llar qurish davom etdi. Temir yo'llarning uzunligi qariyb 2 baravar ko'paydi. 1899-yilda temir yo'l liniyasi Toshkent va Andijonga yetib kelganidan keyin O'rta Osiyo temir yo'lini

¹ Эргашев Х. Рабочий класс Узбекистана в борьбе за создание и развитие нефтяной промышленности (1917-1928 гг.) Автореферат диссерт. Канд.ист.наук. –Т.: 1979 – с.18.

² Дехканов А. Кўрсатилган автореферат. – С.17.

bevosita Orenburg bilan tutashtirish masalasi kun tartibiga qo‘yildi. Bu temir yo‘l 1906-yilda qurib bitkazildi.

Temir yo‘llar qurish bu bilan cheklanmadi. Ichki temir yo‘l shoxobchalar qurish lozim bo‘lib qoldi. Bunday shoxobchalar Farg‘ona viyaloti va Buxoro amirligi hududida qurildi. 1908-yildan temir yo‘l qurilishining yangi bosqichi boshlandi. Ilgari temir yo‘llarni davlat qurdirgan bo‘lsa, endi temir yo‘llar xususiy kapital kuchi bilan qurildi.

1908-yildan “Qo‘qon-Namangan temir yo‘li jamiyat” tuzildi. 4584 ming so‘m aksiyali kapitalga ega bo‘lgan shu jamiyatdan keyin Namangandan Andijon orqali Jalolobodgacha va Andijondan Qo‘qonqishloqqacha hamda Chinobodgacha temir yo‘l shoxobchasi qurishga ruxsat berildi. Shu munosabat bilan jamiyatning aksiyali kapitali ko‘paytirildi, jamiyatning o‘zi ham nomini o‘zgartirib, “Farg‘ona temir yo‘li jamiyat” deb ataladigan bo‘lib qoldi. Butun qurilish qimmati 16 million so‘m, quriladigan temir yo‘lning uzunligi esa 200 kilometr qilib belgilandi. Aksiyalarning bir qismi (10 million so‘m)ga hukumatning o‘zi kafil bo‘ldi¹.

1912-yilda xususiy kapital egalariga Turkiston-Sibir temir yo‘lini qurishga ijozat berildi. Bu temir yo‘lining Arisdan Pishpakkacha bo‘lgan qismi birinchi navbatda qurilishi lozim edi.

1913-yilda Kogondan Termizgacha Buxoro temir yo‘lini va uning Qarshidan Kitobgacha bo‘lgan shoxobchasini qurishga ruxsat berildi. Bu yo‘lning umumiyligi masofasi 585 chaqirim edi. “Buxoro temir yo‘li jamiyat”ga 3122 ming so‘mlik aksiya chiqarishga ruxsat berildi. O‘sha vaqtning o‘zida Buxoro amiri 6 ming desyatina yerni jamiyatga bepul kansessiyaga berdi va temir yo‘lni qurish harajatlarining 25 foizini o‘z zimmasiga oldi. Lekin bu yo‘l faqat oktyabr davlat to‘ntarishidan keyingina to‘liq qurib bitkazildi.

Sanoat proletariatining vujudga kelishi jarayoni kuchayib ketganligi temir yo‘l qurilishiga ham kapital mablag‘ sarflashni ko‘paytirishni taqozo qilardi.

¹ Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне октября. –Т.: Фан, 1973. – С.68.

Farg‘ona vodiysida temir yo‘l aholi eng zich joylashgan tumanlar hududidan o‘tdi, asosiy paxtachilik tumanlarining barchasi bevosita yoki maxsus yo‘llar orqali O‘rta Osiyo temir yo‘li bilan tutashtirildi. Samarqand viloyati va Toshkent uezdining ko‘p tumanlari orqali temir yo‘l liniyasi o‘tkazildi. Buxoro temir yo‘li Qashqadaryo vodiysining tumanlari (G‘uzor, Shahrisabz, Kitob)ni O‘rta Osiyo temir yo‘li bilan tutashtirdi. Paxta tolasi, quruq meva, pilla va boshqa mahsulotlarni Rossiyaga eltid berish va Farg‘onaga don, gazlama va boshqa sanoat mollari olib kelish ishlarini temir yo‘llar to‘la ravishda bajaradigan bo‘lib qoldi.

Turkiston o‘lkasining ayrim tumanlari o‘rtasida hamda Turkiston bilan Buxoro o‘rtasida yuk oboroti ham huddi shuningdek temir yo‘llar yordamida bajariladigan bo‘ldi. Faqat Xorazm vohasigina temir yo‘l aloqasidan chetda qolmoqda edi. Temir yo‘l O‘rta Osiyoni Rossiyaning markaziy tumanlari bilan yaqinlashtirdi. Toshkent-Orenburg temir yo‘li ishga tushganidan keyin O‘rta Osiyo bilan Markaziy Rossiya o‘rtasida tovar oborotini kengaytirishda yangi bosqich ochildi.

Temir yo‘l qurilishi Turkistonning uzoq tumanlarini bir-biriga bog‘ladi. Shu rayonlarning aholisi ancha serqatnov bo‘lib qoldi, aholining o‘zi istiqomat qilib turgan joyga yopishib olishi ancha kamaydi. Temir yo‘llar qurilganligi aholining qatnovini osonlashtirib, o‘lkadagi ayrim tumanlarning hududiy biqilqagini buzishga yordam berdi.

1.2. Turkiston o‘lkasida paxta yakkaxokimligining qaror topishi

Ma’lumki, O‘rta Osiyo podsho Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin podsho hukumati o‘lkani iqtisodiy jihatdan batamom bo‘ysundirish, uning boyliklarini tashib ketish, o‘lkani xomashyo manbaiga aylantirish va tayyor mahsulotlar sotiladigan bozorga aylantirish siyosatini izchil yuritadi. Bu siyosatni podsho Rossiyasi dvoryan-pomeshchiklari va burjuaziya doiralari qo‘llab-quvvatladi, ular o‘lkani zuluk kabi so‘rishga kirishib ketdilar. Ma’lumki, Rossiya to‘qimachilik sanoati uchun keltirilayotgan Amerika paxtasi uchun yiliga 30-40

million so‘m boj to‘lab kelardi¹. Shu boisdan Turkistonni paxta xomashyosi yetishtiriladigan bazaga aylantirish, Turkiston hisobiga paxta mustaqilligiga erishish Rossiya agrar siyosatining bosh maqsadi, deb belgilandi. Xonliklar davrida davlat mulki hisoblangan katta yer maydonlari Rossiya davlati xazinasiga tegishli, deb e’lon qilindi. Vaqf mulklari ham asta-sekin davlat ixtiyoriga olindi. Xususiy mulk hisoblangan yerlar ham davlat mulkiga aylantirildi, ularni ilgarigi egalariga merosiy ravishda foydalanishga berildi va soliq solindi.

Ijaraga yer olib undan amalda foydalanib kelayotgan xonadonlarga o‘sha yerlar meros qilib biriktirildi va ularga soliq solindi.

Shunday qilib, o‘lkaning barcha hosildor yerlari Rossianing daromad manbaiga aylantirildi. Yer solig‘i XIX asr oxirida 4 million rublni tashkil etgan bo‘lsa, 1916-yilda 38 million rubldan oshib ketdi.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o‘z sanoati uchun xom ashyo manbaiga aylantirdi. Agar 1885-yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo‘lsa, 1915-yilga kelib u 541,9 min tanobga yetdi, ya’ni 13 barobarga o‘sdi².

Shu yerda, alohida ta’kidlashni istardikki, pilla yetishtirish va umuman ipakchilik O‘rta Osiyoda bir necha asrlik uzoq tarixga ega hisoblanadi. Rossiya tomonidan O‘rta Osiyonidagi bosib olinishidan ancha avval ham mahalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan ipak mahsulotlari eksport qilingan va Sharq mamlakatlarida ancha mashhur bo‘lgan va qadrlangan.

Bu davrlarda ipakchilikning markazlari Buxoro amirligidagi Zarafshon daryosi vodiylari bilan birgalikda, Samarqand, Xo‘jand va Farg‘ona vodiysi hisoblangan.

XIX asrning o‘rtalarigacha Rossiya sotib oladigan ipak va ipak mahsulotlarini asosiy qismini O‘rta Osiyodan olardi. Masalan, 1840-1850-yillarda

¹ Усмонов К., Содиқов М., Обломуродов Н. Ўзбекистон тарихи. I-қисм. –Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002. –Б.238.

² Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. –Т.: Шарқ, 2000, -Б. 228.

O‘rta Osiyodan Rossiyaga faqat Orenburg liniyasi orqali ipak va yarim ipak mahsulotlar 137945 so‘mlik olib ketilgan¹.

Shuning uchun ham, pilla, ipak Rossiya sanoati uchun paxtadek zarur bo‘lganligi sababli O‘rta Osiyo bosib olingandan so‘ng podsho hukumati, sanoatchilari o‘lkada ipakchilikni ham rivojlantirishga e’tiborlarini qaratdilar. Bu O‘rta Osiyoni o‘zining xomashyo bazasiga aylantirish yo‘lidagi yana bir qadam hisoblanadi.

Rossiyada kapitalistik munosabatlarning rivojlanishi metropolianing mustamlaka chekka o‘lkalarda olib borilayotgan iqtisodiy ishlarida namoyon bo‘la boshlaydi. To‘qimachilik sanoatida monopolistik birlashmalarining paydo bo‘lishi O‘rta Osiyo xalq ommasini ekspluatatsiya qilishni kuchayishiga sabab bo‘ldi. O‘rta Osiyodan juda ko‘plab paxta, jun, teri, pilla va boshqa mahsulotlar olib ketishiga sabab bo‘la boshladi. Ayniqsa, Turkiston rus to‘qimachilik sanoati uchun asosiy xomashyo bazasi bo‘lib qoldi. Bu degan so‘z Turkiston qishloq xo‘jaligi paxta yetishtirish uchun ixtisoslashtirildi. Bu esa paxta tołasi ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini ko‘payishiga sabab bo‘ldi.

Qishloq xo‘jaligini bunday ravishda ixtisoslashuvi qishloqning xo‘jalik turmushiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Paxtachilikning rivojlanishi va paxta tozalash sanoatining shakllanishi va o‘sib borishi xalq xo‘jaligini boshqa tarmoqlarini o‘sishida muhim ahamiyat kasb etdi.

O‘lkada paxtachilikni o‘stirish uchun katta chora-tadbirlar ko‘rildi. Paxtani ekish ularni parvarish qilish va hosildorligini oshirishga katta ahamiyat berildi. Shu tariqa paxta ekish maydonlari kengayib bordi. Oxir oqibat Turkiston o‘lkasi, ayniqsa Farg‘ona vodiysi Rossiyaga Turkiston beradigan xomashyoning asosiy qismini berardi.

Farg‘ona viloyatida ayniqsa paxta va pilla katta miqdorda yetishtiriladi. Shuning uchun paxtachilikka har tomonlama ahamiyat berila boshlandi. Buning uchun O‘rta Osiyoga Amerika paxta navini olib kelib, 1870-yilda, keyin 1875-

¹ Небольсин П.Н. Очерки торговли России со странами Средней Азии – Хивой, Бухарой и Кокандом. –СПб.: 1856. Б.31.

yilda keltirilib iqlimlashtirish boshlanadi. Lekin, dastlab ular yaxshi natija bermaydi. Ammo tajriba davom ettirilib, ko‘rilgan ko‘plab chora-tadbirlar natijasida Amerika paxta navi sifatli mahsulot berib ularni ekish maydonlari kengayib bordi.

Quyidagi jadval bu haqda ma’lumot beradi¹. (Desyatina hisobida)

Viloyatlar va xonliklar	1890	1900	1910	1915
Farg‘ona	53 000	190 000	235 000	329 000
Sirdaryo	20 000	30 000	35 500	77 500
Samarqand	17 000	22 000	25 000	33 500
Buxoro	35 000	50 000	80 000	85 000
Xiva	15 000	20 000	30 000	33 000
Jami	140 800	322 000	434 000	593 500

Ushbu jadvaldan ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi viloyatlar va xonliklarda paxta ekilishi yildan-yilga ortib borgan. Ayniqsa, Farg‘ona viloyatida bu ko‘rsatkich ancha yuqori bo‘lgan. Shu bilan birga paxta hosildorligi ham yuqori bo‘lgan.

Bu haqda quyidagi jadvaldan bilish mumkin².

Viloyatlar va xonliklar	1890	1900	1915
Farg‘ona	1200000	3820 000	7277000
Sirdaryo	450000	500 000	1650 000
Samarqand	335 000	450 000	1555 000
Buxoro	800 000	100 0000	2600000
Xiva	200 000	400 000	1200 000
Jami	3000000	6370000	14282000

¹ Соатов С.С. Ўрта Осиёнинг Россияга қўшиб олиниши ва унинг аҳамияти. –Т.: Фан, 1966. –Б. 26.

² Ко‘satilgan asar. Б. 26.

Shu tariqa Turkistonda paxtachilik 1917-yilga kelib Rossiya to‘qimachilik sanoati xom ashyosining 82 foizini yetkazib bergen. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ana shu yetkazib berilgan paxtaning asosiy qismini 68-70% ni Farg‘ona vodiysi ta’minlab bergen.

Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan paxta butun Turkiston o‘lkasida yetishtirilgan paxtaning 60% ni tashkil etardi. 25 yil ichida Farg‘ona vodiysida paxta hosili 7,7 marta oshgan¹.

Farg‘ona viloyatining Andijon uezdida paxta maydonlari ko‘proq bo‘lib, u yildan-yilga kengayib borgan. 1915-yilga kelib bu yerda paxta maydoni 102 962 desyatinaga yetadi va paxta hosildorligi 31 0000 pudni tashkil etadi². Bu esa Farg‘ona viloyatida eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Qo‘sishimcha qilib aytganda, Andijon uezdi Farg‘ona viloyatida yetishtiriladigan paxtaning 61 foizini bergen.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona viloyati Rossiya to‘qimachilik sanoati uchun asosiy paxta yetkazib beruvchi xomashyo bazasiga aylanib qolgan.

Rossiya paxta yetishtirishda boshqa paxta yetishtiruvchi davlatlarga yetib olish uchun paxtachilikni ilmiy asosda rivojlantirishga intildi. Buning uchun paxta plantatsiyalari o‘rnida tajriba stansiyalarini tashkil etdi. Ular Ashxobod, Mirzacho‘l va Andijonda tashkil etildi. Ularning maqsadi paxtani agronomiya qoidalari asosida parvarish qilish va yuqori hosil olishdan iborat edi.

Shunday qilib, o‘lkada paxta yakkahokimligi vujudga keldi. Buning oqibatida qishloq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga, asosan don xo‘jaligi va chorvachilikka aks ta’sir ko‘rsatdi. Paxtachilikni boshqa ekinlarga nisbatan katta daromad berishi, boshqa ekinlarni siqib chiqarishiga sabab bo‘ldi. Farg‘ona viloyatida dehqon xo‘jaliklarining anchagina qismi don yetishtiruvchi xo‘jalikdan donni iste’mol qiluvchi xo‘jaliklarga aylanib qoldi. Turkiston qishloq xo‘jaligining

¹ Ko‘satilgan asar. Б.27

² Соатов С.С. Кўрсатилган асар. Б. 27

muhim xususiyatlaridan biri shu bo‘ldiki, paxtachilik zonalarini asosan chorvachilik mahsulotini iste’mol qiluvchi rayonlarga aylanib qoldi.

Podsho Rossiyasi uchun paxtachilik asosiy xom ashyo bo‘lib, o‘lkada asosiy yetishtiriladigan mahsulotga aylanib qoldi. Umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, birinchidan, chor hukumati avvalombor, Turkiston zaminining turli-tuman boyliklarini egallashni, uni Rossiyaning xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar iste’moli bozoriga aylantirishni ko‘zlab harbiy yurishlarni uyushtirgan edi. U bu rejani amalga oshirgandan keyin paxtachilikni rivojlantirishga katta ahamiyat berdi. Bu o‘zbek paxtachiliги hayotida yangi voqeа hisoblandi. Chunki asrlar osha yetishtirilib kelinayotgan mahalliy paxta sifati ko‘proq hunarmandchilik sanoati talablariga moslashgan edi. Uning tolalari ancha kalta va dag‘al hisoblangan. Shuningdek, paxta chanog‘i ochilmaganligi natijasida tanasidan uzilib, so‘ngra undan paxtasi qo‘l bilan ajratib olingan. Bu mashaqqatli mehnatni talab qilib, paxtaning tannarxini oshishiga olib kelgan. Amerika paxtasi esa chanog‘ida ochilib, katta qulayliklarni tug‘dirgan, tolasining uzunligi va sifatining yaxshiligi bilan ajralib turgan. Ayni paytda uning hosili baland bo‘lgan.

Shu ravishda XIX asrning 80-90-yillarida o‘lkada tekstil sanoati talablariga javob beradigan yangi paxta navlari iqlimlashtirilgan edi.

Ikkinchidan, paxtachilik yangi sun‘iy sug‘orish tarmoqlarida keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yish, yangi yerlarni o‘zlashtirish hisobiga emas, balki ilgaridan foydalanim kelinayotgan ekin maydonlari doirasida rivojlantirilgan. Bu oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishni kamayishi va narx-navoning oshishiga olib keldi. Ayniqsa, g‘allachilikka katta zarba berildi.

Paxtachilikni yangi navlari Farg‘ona, Sirdaryo va Samarcand viloyatlarida tobora ko‘p yetishtirilib borildi. Ular, ayniqsa, Farg‘ona vodiysida salmoqli o‘rin egalladi. Bu yerda etishtirilgan paxta butun Turkiston o‘lkasidan olinadigan paxtaning 60% idan ortig‘ini qoplagan. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida o‘lka Rossiyaning xom ashyo manbai va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirildi. Chunonchi, 1890-yili o‘zbek paxtasi rus tekstil sanoatida ishlatiladigan paxtaning 8% ini tashkil etgan bo‘lsa, 1916-yilga kelib 72%ga ko‘tarildi.

Uchinchidan, paxtachilikning rivojlantirilishi mustamlakachilik nuqtai nazaridan amalga oshirilgan edi. Undan olingan katta daromadlar chor hukumati, savdo-sanoat doiralari tomonidan o‘zlashtirildi. Ular kam harajat qilib, ko‘p foyda olish yo‘lidan borib, sun’iy sug‘orish va yangi yerlarni o‘zlashtirish uchun arzimagan mablag‘ ajratildi. Qishloq xo‘jalik texnikasini takomillashtirishga ahamiyat berilmadi. Paxtakorlar mehnatiga yarasha haq ololmay, qarzdorlik kishanlari bilan bog‘lab qo‘yildi. Natijada, o‘zlarining bir parcha yerlaridan va umuman mol-mulkidan ayrilgan dehqonlarning soni tobora oshib boraverdi. O‘lkada qashshoqlik hukm surib, xalqning hayoti g‘oyatda yomonlashdi. Shu ravishda paxtachilikning rivojlanishi o‘zbek xalqiga foydadan ko‘ra ko‘p ziyon keltirdi. Chunki unda mustamlakachilik siyosat va milliy zulm o‘z ifodasini to‘la topgan edi. Paxtachilikni rivojlantirishga qaratilgan siyosat o‘lkada temir yo‘llar, paxta tozalash va yog‘ zavodlarini qurilishida muhim o‘rin egalladi. Sirtdan qaraganda bu holat foydali ko‘rinsa-da, lekin amalda ular chor hukumatining mustamlakachilik siyosatini yanada mustahkamlash va samaradorligini oshirishni ta’minladi. Ayni paytda 100 minglab kishilarni Rossiyadan ko‘chirib keltirish imkonini yaratdi. Temir yo‘llar paxta va boshqa mahsulotlarni ko‘p miqdorda uzluksiz olib ketishini ta’minladi.

Podsho Rossiyasi hukmronligi davrida paxta yakkahokimligining poydevori bunyod etildi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrni ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston zaminida paxtachilik va pillachilikning rivojlantirilishi mustamlaka nuqtai nazardan amalga oshirilgan edi. Zero, ular xom ashyo sifatida arzon bahoda Rossiyaga olib ketilishidan, ulardan tayyorlangan gazlama va kiyim-kechaklardan beqiyos katta daromad chor hukumati va kapitalistlarning cho‘ntagini to‘ldirdi. Bundan tashqari, Rossiya Amerikadan keltirilayotgan paxtaga sarflanayotgan o‘n millionlab so‘mlarni tejash hisobiga ham mo‘may foydani qo‘lga kiritdi. Chunki o‘zbek paxtasi rus tekstil sanoatini xom ashyo bilan ta’minlab, uni xorijdan keltirish qisqartirishga olib kelgan edi.

Pirovardida o‘zbek paxtasi rus to‘qimachilik sanoati xom ashvosining 70 foizini yetishtirib berdi. Ular chigit, yog‘, sheluxa, kunjara va linterdan ham daromad oldilar.

Mustamlakachilar kam xarajat qilib ko‘p foyda olish yo‘lidan borib paxtachilikni asosan qadimdan foydalanib kelinayotgan ekin maydonlarida rivojlantirdi. Natijada bug‘doy va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish qisqarib tub aholini Rossiya bug‘doyiga qaram qilib qo‘ydi. Rossiyadan bug‘doy keltirib paxtakorlarning qo‘lidagi ozgina mablag‘i ham shilib olindi.

Shunday qilib, chorizm davrida Turkiston Rossiyaning xom ashyo manbaiga aylanib paxta yakkahokimligining poydevori qurilgan edi.

1.3. XX asr boshlarida o‘lkada sanoat ishchilarining shakllanish jarayoni

O‘lkada sanoat korxonalarining paydo bo‘lishi, kapitalistik munosabatlarning shakllanishi, ichki va tashqi savdoning rivojlanishi o‘lkada urbanizatsiya jarayonlariga ko‘maklashdi, sharoit yaratdi. Toshkent, Samarqand, Andijon, Namangan, Qo‘qon va boshqa shaharlar yirik savdo-sanoat va madaniyat markazlariga aylanib bordilar. Shaharlarda aholi soni ortib bordi. Uni quyidagi jadvaldan ko‘rish mumkin¹.

Shaharlar	Aholi	
	1897-yil	1914-yil
Tashkent	155673	271023
Qo‘qon	81354	120167
Andijon	47627	86741
Namangan	61906	81173
Eski Marg‘ilon	36490	48148
Farg‘ona (Skobelev)	8928	12746

¹ Турсунов Х.Т. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. –Т.: Госиздат, 1962 – С.54.

Samarqand	55128	97530
Verniy	22744	43207
Kattaqo‘rg‘on	10087	12089
Olma-ota	11722	20327
Bishkek	6615	14367
O‘sh	34157	44204
Xo‘jand	30109	40235

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Farg‘ona viloyati shaharlari aholisini soni jihatidan Turkiston o‘lkasida birinchilar qatorida turgan. Ular orasida eng yiriklari Qo‘qon, Andijon va Namangan shaharlari turar edi.

Aholining asosiy qismini mehnatkash xalq ommasi – hunarmandlar, mardikorlar va boshqa kambag‘allar tashkil etib, ishchilar sinfini shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lganlar. Sanoat korxonalarining shakllanishi munosabati bilan shahar aholisining ma’lum bir qismi ishlab chiqarishga jalg qilinishi, o‘lkaning iqtisodiy va siyosiy hayotida katta voqeа bo‘ldi. Shahar aholisi sonining o‘sishida va ishchilar sinfini shakllanishida muhim manba bo‘lib yersiz va kam yerli dehqonlar alohida ahamiyatga ega bo‘ldi. Chidab bo‘lmas darajadagi ikki tomonlama zulm ostida talangan va qashshoqlashgan dehqonlar Farg‘ona viloyati aholisining anchagina foizini tashkil etardi. Quyidagi jadval bu haqda ma’lumot beradi¹.

Uezdlar	Xo‘jaliklar soni	Yersiz xo‘jaliklar soni	%
Marg‘ilon	63488	13963	22
Andijon	64616	9940	15,38
Qo‘qon	57441	793	1,38
Namangan	62228	7370	10,96
O‘sh	21435	638	2,97

¹ Пален К.К. Материалы к характеристике народного хозяйства Туркестана. Ч. I, Отд. 1, 1911-С. 115-116.

Buning ustiga birinchi jahon urushi arafasida ko‘plab dehqon xo‘jaliklari uy hayvonlariga ega emas edi. Shuningdek, 43% dehqon xo‘jaliklari ishchi hayvoniga, 54%i esa o‘z sigirlariga ega emas edilar. Bunday holatda yersiz dehqonlar shaharlarga ish qidirib ketishga majbur bo‘lar edilar. Ular sanoat korxonalariga ishga kirardilar yoki turli yordamchi ishlar bilan shug‘ullanishga majbur bo‘lardilar. Mahalliy sanoat ishchilari na faqat xonavayron bo‘lgan dehqonlardan tashkil topmasdan balki, xonavayron bo‘lgan, kasodga uchragan hunarmandlar hisobiga ham shakllanib borgan. Kustar sanoat Rossiya tovarlari bilan raqobatga bardosh bera olmasdan inqirozga yuz tutdilar. Kasodga uchragan hunarmandlar ham mahalliy ishchilar safiga qo‘shilar edilar.

Bundan tashqari, ishchilar sinfini saflari Buxoro amirligi va boshqa hududlardan kelgan mavsumiy ishchilar hisobiga ham to‘ldirilar edi.

Hatto Farg‘ona viloyatiga Erondan, Afg‘onistondan va Qashqardan ham ish qidirib kelganlar soni ko‘pchilikni tashkil etar edi. Masalan, faqat Qashqardan Farg‘ona viloyatiga 1904-yilda 14556 kishi kelgan. 1905-yilda – 13337, 1907-yilda – 25056, 1909-yilda – 12725, 1911-yilda – 26463, 1912-yilda – 27174 kishi kelgan¹.

Ishchilar sinfini shakllanishida o‘lkaga Rossiyaning markaziy tumanlaridan Ural va Sibirdan kelgan rus va boshqa xalqlar vakillari ham katta rol o‘ynadilar.

Mahalliy millatlardan yangi vujudga kelayotgan ishchilar sinfi paxta tozalash zavodlarining yog‘-moy zavodlari, vino-aroq zavodlari hamda boshqa zavod va fabrikalarning ishchilaridan, temir yo‘l, Toshkent tramvay ishchilaridan, shuningdek, hunarmandchilik korxonalarida yollanib ishlayotgan kishilardan iborat bo‘ldi. Mavjud ma’lumotlarga qaraganda, Farg‘ona, Samarkand viloyatlaridagi, Toshkent shahri va Toshkent uezdidagi 31 453 hunarmandchilik korxonalarida shu korxonalarning xo‘jayinlaridan tashqari yana 22 412 ta yollangan kishi (xalfa) ishlardi.

Ma’lumotlar sanoat ishchilarining ko‘pchiligi paxta tozalash sanoatida to‘planganligini ko‘rsatib turibdi. Bu zavodlarda ishlayotgan jamiki mahalliy millat

¹ Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне октября. Т.: Фан, 1973. С. 76.

ishchilari 14 788 kishi edi. Bundan tashqari, Toshkentning bosh temir yo‘l ustaxonalarida ishlab turgan 800 ishchidan 120 kishi mahalliy millatlardan bo‘lgan. Toshkent tramvay va elektrostansiya korxonalarida 1000 dan ko‘proq ishchi ishlagan.

Turkiston o‘lkasining 3 oblastida, temir yo‘l ishchilarini ham qo‘sib hisoblaganda, 39 mingga yaqin ishchi ishlardi. Shulardan taxminan 17 ming kishi mahalliy millat ishchilari edi¹.

Sanoatdagi va temir yo‘ldagi rus ishchilari eng malakali kishilar edi. Sanoatda ular dvigatellarni ishlatar, mexanika ustaxonalarida ishlardilar, mahalliy millat kishilari esa asosan qora ishchi bo‘lib ishlardi.

Sanoat tarmoqlarining ko‘pidagi ayniqsa paxta tozalash sanoatidagi mahalliy ishchilar, odatda, mavsumiy ishchilar bo‘lib, zavodlarda 6-8 oy ishlagandan keyin o‘z yerlariga qaytib ketar va to yangi mavsum boshlanguncha dehqonchilik hamda bog‘dorchilik bilan shug‘ullanardilar. Shunday qilib, mahalliy sanoat va temir yo‘l ishchilarining ko‘p qismi dehqonchilik bilan aloqasini hali uzmagan edi. Faqat malakali ishchilargina sanoat korxonalarida yollanib ishlayotgan ko‘p sonli kishilar ham mahalliy ishchilar qatoriga kirardi. Ularning uyushqoqligi va texnikaviy malakasi sanoat ishchilarinikidan ancha past edi.

Turkistondagi rus ishchilarining ko‘pchiligi Rossianing markaziy tumanlarida sinfiy kurashning shiddatli maktabini o‘rganganliklari uchun ham siyosiy voqealarning hammasida faol qatnashib keldilar. Mahalliy ishchilar rus sanoat ishchilari va temir yo‘l ishchilari bilan birga O‘rta Osiyoning mahalliy va rus ekspluatator unsurlariga qarshi faol kurash olib bordi.

Sanoat va temir yo‘l ishchilari, hunarmandchilik korxonalarida yollanib ishlayotgan kishilar va mardikorlarning ahvoli eng kambag‘al hunarmand va chorakorlar ahvoli singari juda og‘ir edi. Sanoat ishchilarining ish kuni 10-15 soat davom etar, mardikorlar va xalfalar esa tong otgandan to kun botguncha ishlar, ularning ish kunlari hech qanday qonun bilan normalashtirilmagan edi. Ular

¹ Ўзбекистон тарихи. Т.: Фан. 1971. Б. 214-215.

o‘zlarining og‘ir mehnatlari evaziga arzimas pul olardilar. Shu bilan birga, mahalliy ishchilarning ish haqi rus ishchilarinikidan ancha kam edi.

Quyidagi jadval Turkiston o‘lkasi sanoat korxonalaridagi ishchilar soni, milliy va professional tarkibi haqidagi ma’lumotlarni ko‘rsatadi¹.

Sanoat tarmoqlari	Jami ishchilar	Shu jumladan				
		ruslar	o‘zbeklar	qirg‘izlar	tojiklar	Boshqalar
Paxta tozalash zavodlarida	7626	516	5662	22	1112	308
Pilla zavodlarida	2198	5	2192	-	-	1
Paxta yog‘ zavodlarida	1720	429	889	6	30	366
Jun yuvish korxonalarida	1307	756	289	227	-	35
Qurt urug‘i zavodlarida	1117	81	1022	-	-	14
G‘isht zavodlarida	1036	17	612	59	-	343
Pivo zavodlarida	844	417	246	138	-	43
Bosmaxonalarda	676	574	72	2	-	28
Vino zavodlarida	624	86	512	5	-	21
Tegrimonchilikda	472	190	109	110	-	63
Boshqa korxonalarda	3305	1703	1097	369	-	136
Jami:	20 925	4774	12702	944	1142	1363

Keltirilgan jadvaldagi ma’lumotlar sanoat ishchilarining ko‘pchiligi paxta tozalash sanoatida to‘planganligini ko‘rsatib turibdi.

¹ Ўзбекистон тарихи. Т.: Фан. 1971. Б.217.

Turkiston o‘lkasining uchta (Sirdaryo, Samarqand va Farg‘ona) viloyatlarida 39 mingga yaqin ishchi ishlagan, shulardan 17 ming kishi mahalliy millat kishilari edi.

Ta’kidlash joizki, Turkiston o‘lkasi ishchilarining umumiy salmog‘ida tog‘-kon sanoati ishchilari ham alohida o‘ringa ega hisoblanadi. Masalan, Farg‘ona viloyatida 1911-yilda 11 ta toshko‘mir konlari va 9 ta neft qazib oluvchi korxona mavjud edi. O‘z navbatida ularda 1808 nafar ishchilar ishlamoqda edilar. 1913-yilda toshko‘mir sanoatida umumiy ishchilarning 75%ni, neft sanoatida 78%ini o‘zbek ishchilari tashkil etardi. Boshqa millat vakillari asoan yuklarni tashish va turli yer osti ishlarini bajarganlar. Faqat “Chimyon” neft korxonasida uch nafar o‘zbeklar master yordamchisi vazifasida ishlaganlar. Tog‘ injeneri T.Leonov mahalliy millat vakillari tog‘ ishchilarining deyarli barchasini tashkil etadi, deb ta’kidlagan edi.

Shunday qilib, Turkiston o‘lkasida ishchilar sinfining shakllanishi, o‘lkada paxta tozalash, yog‘-moy, pilla quritish, pilla urug‘i yetishtirish, tog‘-kon va sanoatning boshqa turlarini rivojlanishi bilan bog‘liq holda sodir bo‘ldi.

Aloida ta’kidlash joizki, temir yo‘l transportida ishchilar sinfining shakllanishi Turkistonda proletariat sinfini paydo bo‘lishida katta rol o‘ynadi.

O‘rta Osiyo chor Rossiyasi tomonidan bosib olingandan keyin va O‘rta Osiyo burjua munosabatlariga tortilgandan keyin, qator temir yo‘l tarmoqlari qurildi. Ulardan asosiyлари O‘rta Osiyo, Toshkent va Farg‘ona temir yo‘l magistrallari hisoblanadi. Ularda 1914-yilda ishlayotgan ishchilar soni 35 mingdan ortiq bo‘lib, ulardan 23285 nafari doimiy ishlayotganlar va undan 14262 nafari mahalliy ishchilarni tashkil etardi¹.

Ta’kidlash lozimki, temir yo‘llar qurilishi bilan birgalikda depo, temir yo‘l ustaxonalarini va boshqalar ham qurilib borilgan va ular muhim sanoat o‘chog‘iga aylanganlar. Masalan, Turkistonni 17 ta temir yo‘l ustaxonalarida 1912-yilda 4205 nafar ishchilar mehnat qilardilar.

¹ История рабочего класса Узбекистана. Т.: Фан. 1964. С. 29.

Temir yo‘l ishchilarini shakllanish jarayoni asosan quyidagi manbalar asosida paydo bo‘la boshladi:

Birinchidan, hokimiyat transport ishchilari saflarini to‘ldirishda Rossiyaning Markaziy viloyatlaridan turli imtiyozlar yaratib berish shartlari bilan mutaxassislar va ishchilarni jalg qildi. Shuningdek, maxsus harbiy qismlardan ham foydalanan edi.

Ikkinchidan, temir yo‘l ishchilari saflarini mehnat zahiralari armiyasi hisobiga ham to‘ldirib borilgan. Chunki bu davrga kelib, Turkiston o‘lkasida ham ana shunday mehnat zahiralari paydo bo‘la boshlagan edi¹.

Uchinchidan, Rossiyadagi inqilobi harakatlarda ishtirok etgan va Turkistonga surgun qilingan siyosiy jihatdan ishonchsiz kishilar hisobiga ham to‘ldirib borilgan. To‘g‘ri, aytish kerakki, Turkiston temir yo‘l ishchilari orasida bunday kishilar juda ko‘pchilikni tashkil etmas edi.

To‘rtinchidan, temir yo‘l ishchilari saflari mahalliy aholi vakillari hisobiga ham to‘ldirib borilgan. Bu ishchilar sinfini shakllanishining navbatdagi o‘ziga xos tomonlaridan biri hisoblanadi.

Chunki, chorizmning buyuk davlatchilik, shovinistik siyosati mahalliy xalq vakillarini davlat ishlarida, xizmatlarida ishlashlariga har tomonlama qarshilik ko‘rsatishidan iborat bo‘lgan. Lekin, rivojlanib borayotgan burjua munosabatlari ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini kuchaytirib bordi va qo‘srimcha mehnat kuchlari armiyasini hosil bo‘lishiga sharoit yaratib berdi. O‘z navbatida ularning ma’lum qismi transportga ham qo‘silganlar. Shu bilan birga mahalliy xalq vakillari eng og‘ir ishlarda ishlatalganlar². Shunday bo‘lishiga qaramasdan, dehqonlar, hunarmandlar va boshqa kambag‘al qatlamlar juda katta ishtiyoy bilan bunday ishlarga kelganlar va bajarganlar. Chunki bu ishlar doimiy xarakterdagi ishlar hisoblanar edi.

Shunday qilib, aytish mumkinki qishloqlarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtiruvchilar mol-mulklaridan ajralib, xonavayron bo‘lganlar. Ijtimoiy va

¹ Кунавина Г.С. Формирование железнодорожного пролетариата в Туркестане (1881-1914 гг). Т.: Фан. 1967 С.43-44.

² Кунавина Г.С. Ко‘satilgan asar. C. 54-56

mulkiy tabaqalanishning kuchayib borishi, o‘z navbatida qishloq xo‘jalik, savdosanoat burjuaziyasini pishib etilishiga va o‘zbek dehqonlarining to‘la qashshoqlashishiga olib keldi. Xo‘jalikning kichik hajmdaligi, uy hayvonlarining kamligi yoki butunlay yo‘qligi va qishloq xo‘jalik inventarlarining, turmush darajasining o‘ta pastligi dehqonlarni o‘z ishchi kuchlarini (bilak kuchini) sotib kun kechirishga majbur qilar edi.

Shu sababdan ham 98% yersiz, 73% kam yerli dehqonlar o‘z xo‘jaliklarini tashlab ketishga va ish qidirib ketishga majbur bo‘lganlar¹.

Ta’kidlash lozimki, o‘rganilayotgan davrda ishchilar saflari eng ko‘p to‘plangan shaharlar Toshkent, Qo‘qon, Andijon, Namangan, Samarqand shaharlarida edi. Ishchilar sinfi, shuningdek, tog‘-kon va neft sanoati markazlarida – “Qizil-qiya”, “Sulyukta”, “Chimyon”, “Maylisoy”, “Santo” konlarida ham shakllangan va to‘plangan.

Ishchilarning o‘lka viloyatlari bo‘yicha joylashishi quyidagicha edi².

Viloyatlar	Aholi soni	Ishchilar soni	100 kishiga to‘g‘ri keladigan ishchilar, %da
Farg‘ona	2182374	12482	0,57
Sirdaryo	1930878	3618	0,19
Samarqand	1010098	2814	0,28

Birinchi jahon urushi arafasida, o‘lkada paxta tozalash sanoatida 7626 nafar ishchilar, paxta yog‘-moy ishlab chiqarish sanoatida - 1700,sovun ishlab chiqarish korxonalarida -159, ko‘nchilikda – 422, g‘isht zavodlarida -1036, oziq-ovqat sanoatida -3664 nafar ishchilar ishlamoqda edilar³².

Ta’kidlash kerakki, ishchilarning milliy tarkibi ham bu davrda turlicha edi. Ular – o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar va boshqa millat vakillaridan iborat edi.

¹ Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне октября. Т.: Фан, 1973. С.75.

² Гуртовенко А.С. Из истории развития промышленного капитализма и возникновения пролетариата из коренного населения в Узбекистане в конце XIX –начале XX в., Канд.диссерт. Т.:, С. 225.

³ Гуртовенко А.С. Ко‘satilgan asar. Б.168.

²

Birinchi jahon urushi yillarida esa harbiy asirlar chexlar, avstraliyaliklar, vengerlar va nemislar ham ishchilar armiyasiga qo'shilgan edilar.

Ishchilarning mehnat sharoitlari achinarli holatda bo'lgan, ish haqi juda oz bo'lgan, xavfsizlik texnikasiga rioya qilinmagan.

II Bob. Turkiston o‘lkasida milliy-ozodlik harakati.

Jadidchilik

2.1. XX asr boshlarida o‘lkada Rossiya istebdodiga qarshi xalq kurashi

Turkiston o‘lkasida, mahalliy ishchilar, dehqonlar va hunarmandlarning XX asr boshlari (1905-1914-yy.)da norozilik harakatlari paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Ta’kidlash joizki, dehqonlarning ozodlik kurashlari bu davrda turli shakllarda namoyon bo‘la boshladi. Masalan, soliqlarni to‘lashdan bosh tortish; yer va suv masalasidagi harakatlar; chor ma’murlariga hujum qilish; ularning ko‘rsatmalarini bajarmaslik, ularga nisbatan xurmatsizlarcha munosabatda bo‘lish; sudxo‘rlarga qarzlarini to‘lashdan bosh tortish; boy-qulqoqlarni yerlarini egallab olish kabilar shular jumlasidandir.

Turkiston o‘lkasida, bu davrda ahvol juda murakkab holatda edi. Aholining og‘ir kechmishi, ularni o‘z yurtida begonadek yashagani, mustamlakachilar alohida imkoniyatga ega bo‘lgan holda, mahalliy xalq huquqlarining buzilishi qonuniy hol bo‘lganligi norozilik harakatlarining asosiy sababi, zamini hisoblanadi.

Bu davrga kelib, butun o‘lka Rossiyaning xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirildi. Chunki, o‘lkada paxtachilik, ipakchilik rivojlantirilib, xom ashyo sifatida uzlusiz Rossiyaga olib ketildi. Paxta va boshqa xom ashyo mahsulotlari o‘lkadan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlarning 75 foizini tashkil etdi.

XX asr boshlariga kelib kambag‘allarning va umuman dehqonlar orasidagi mehnatkash tabaqalarning sinfiy manfaatlari tobora ko‘proq va qat’iyat bilan namoyon bo‘la bordi. Endi ular mustamlaka ekspluatatsiyasiga toqat qilishni istamayotganliklarini bildirib, boylarga, chor hukumati ma’murlariga qarshi ochiqdan-ochiq kurashga tobora ko‘proq ko‘tarila boshladilar.

Masalan, Farg‘ona viloyatining harbiy gubernatori 1905-yilda Turkiston general – gubernatoriga yozgan ma’lumot xatida “... qishloq aholisi nafaqt tez-tez

soliqlarni to‘lash majburiyatlarini buzmoqdalar, balki ba’zi joylarda davlat majburiyatlarini ham bajarishdan bosh tortmoqdalar”¹ - deb yozgan edi.

O‘lkada 1910-1914-yillarga kelib milliy o‘zlikni anglash sezilarli darajada kuchaydi. Turkistonda tashkil etilgan rus chorizmi maxfiy politsiyaning bu harakatdan tashvishlanayotganligi bejiz emasdi. General-gubernator A.V.Samsonovning 1909-yilda o‘lkaning ahvoli haqida imperatorga yo‘llagan ma’ruzanomasida musulmonlar ongida ulkan to‘ntarish sodir bo‘lgani, milliy birlikka intilish va inqilobiy harakat asta-sekin o‘z kuchini ko‘rsatgani ham tasodifiy emas.

Xalqning norozilik kayfiyati tobora kuchayib bordi. Quyidagi ma’lumotlar ham bundan dalolat beradi. Mustamlaka ma’muriyati faqat Farg‘ona viloyatida “Idora tartiblariga va jamoat osoyishtaligiga qarshi kurash sifatida” 1911-yilda 833 ta, 1913-yilda 1220 ta “jinoiy ish” qayd etilgan. Sirdaryo viloyatida esa shunday “ayblar” bilan 1911-yilda 3487 kishi, 1913-yilda esa 5394 kishi javobgarlikka tortilgan².

1912-yili Toshkent yaqinidagi Troitskiy lagerida sapyorlar qo‘zg‘oloni bostirilgach, general-gubernator uning mahalliy aholiga ta’siridan cho‘chib, barcha viloyatlar harbiy gubernatorlariga “Andijondagiga o‘xshash chiqishlarga yo‘l qo‘ymaslik uchun” juda keskin choralar ko‘rish zarurligini buyurgani ham o‘lkadagi ko‘tarilish kayfiyatidan darak beradi. Samsonovning 1898-yilgi Andijon qo‘zg‘olonini eslagani va ana shunday chiqishlarning bo‘lishidan qo‘rqanida katta asos bor edi. Maxfiy politsiya ayg‘oqchilari joylarda ishchilar harakatiga yangidan tashkil topayotgan sotsial – demokratlar va eserlar bosh-qosh bo‘layotgani hamda mahalliy aholi o‘rtasidan etishib chiqqan jadidlar faoliyatining “zararli ta’siri” haqida axborotlar yuborgan.

Turkistondagagi rus mahfiy siyosiy razvedka va kontrazvedkasi “Turkiston rayon muhofaza bo‘limi” deb bejiz atalmagan. U chindan ham o‘lkadagi rus mustamlaka tuzumining muhofazachisi edi. Ularning tavsiyasi bo‘yicha podsho

¹ Тарих тилга кирганда ... (илемий мақолалар тўплами). Наманган нашриёти, 2016. Б.224.

² Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошлари). Т.: Ўқитувчи, 1994. Б.206.

hukumati mustamlaka hokimiyatiga qarshi bo‘lgan harakatlarni darhol bostirish chorasini ko‘rar edi.

Chor hukumati vatan paxtachilagini rivojlantirishda “paxta vasvasasi” boshlangan Turkistonga asosiy rol ajratdi. O‘lkaning hamma yerida paxta maydonlari ko‘payib bordi. Turkiston qishloq xo‘jaligida kapitalistik munosabatlarning shakllanishi: yerning narxini oshirish bilan uni safarbar etish, yer mulkclarini yirik yer egalari qo‘lida konsentratsiyalashuvi, keng mehnatkash dehqonlar ommasining yersizlashuvi jarayoni yanada tezlashdi.

Batraklar va kunbay ishchilar mehnatidan foydalanish birmuncha ko‘paydi, xonavayron bo‘lgan dehqonlarning tobora ko‘p qismi pul topish uchun shaharlarga jo‘nadi. Masalan, Toshkentga faqat qo‘shni viloyatlardangina emas, hatto Buxoro viloyatlaridan ham minglab kishilar kelib mardikorchilik qilardi. Ish kuchining mahalliy bozori yuzaga kela bordi.

Kapitalizm O‘rta Osiyoda, ayniqsa qishloq xo‘jaligida o‘ziga xos bir tarzda rivojlandi. Bu jarayon rus chorizmining va rus burjuaziyasining mustamlakachilik siyosati tufayli murakkablashdi. Rus imperializmi Turkistonni o‘z metropoliyasining agrar xom ashyo qo‘shimchasi, arzon xom ashyo manbai holatida tutib turishga intildi.

O‘lka sanoat proletariatining umumiyligi soni 1914-yilga kelib 49,9 ming kishini tashkil etdi, shulardan 25,5 ming kishi fabrika-zavod sanoatida, 24,4 ming kishi temir yo‘l transportida ishlar, bunda rus ishchilar ko‘philikni (81 foizigacha) tashkil qilar edi. Kon sanoatini mustasno qilganda, sanoatda milliy tarkibning umumiyligi xilma-xilligi sharoitida 77 foizgacha ishchilar mahalliy millat kishilari edi. Lekin odatda bu kishilar qishloq xo‘jaligidan hali aloqasini uzmagan malakasiz mavsumiy ishchilar edi. Turkistonda mahalliy ishchilar sinfigan iborat yangi ilg‘or ijtimoiy kuch o‘sib, mustahkamlanib bordi. Siyosiy jihatdan ko‘proq yetuk va uyushqoq bo‘lgan rus ishchilar sinfi umumrossiya proletariati vakillari sifatida mahalliy ishchilarning va umuman mehnatkashlarning rahbari,

maslahatgo‘yi va tarbiyachisi bo‘lib maydonga chiqishi kabi vaziyat alohida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi¹.

Umuman butun Turkiston ishchilar sinfining iqtisodiy va huquqiy ahvoli Yevropa Rossiyasi ishchilar sinfining ahvoliga qaraganda ancha og‘ir edi. Bu yerda, qoloq mastamlakada ishchilar eng oddiy huquqlardan ham mahrum bo‘lib, deyarli cheksiz ekspluatatsiya qilinardi.

Ish kunining uzunligi cheklanmagan va odatda 9-12 soatdan iborat bo‘lar, ko‘pincha, 17-18 soatga ham yetar, buning ustiga, ishchilar aksar hollarda dam olish kuniga ega emas edilar. Hatto shaxtalar, konlar va neft chiqarish sanoatida ham ish kuni 12-15 soatga cho‘zilardi.

Mahalliy ishchilarning ish haqi juda oz bo‘lib, Yevropa Rossiyasi ishchilarning ish haqiga qaraganda taxminan 37 foizni (yiliga qariyb 180 so‘m) kam edi, ayollar mehnatiga erkaklar mehnatiga qaraganda 40-50 foiz, o‘smlilar mehnatiga esa ayollar mehnatiga qaraganda 15-20 foiz kam haq to‘lanardi.

Hatto konchi-shaxtyorlar ham 52 tiyindan 1 so‘m 50 tiyingacha haq olardilar. Buning ustiga ishchilarning ish xaqi turli yo‘llar bilan, xususan, har xil bahonalar bilan jarima undirish natijasida pasaytirib borilar edi.

Umuman ish xaqini belgilash va to‘lashda korxona egalarining shaxsiy o‘zboshimchalik hukm surar, ular irqiy kamsitish siyosatini yurgizib, mustamlakachilik tartiblariga tayanar hamda mahalliy ishchilarning qoloqligi, savodsizligi va jaholatidan foydalanar edilar. Malakasiz, kam haq oladigan holatida tutilgan mahalliy millat kishilari ishining xarakteri zamirida milliy kamsitish yotardi.

Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, sanitariya jihatidan qulayliklar mutlaqo yo‘q edi; korxonada mayib-majrux bo‘lish odat tusini olgan edi. Tez-tez baxtsiz hodisalar bo‘lib, ishchilarni og‘ir kasalliklarga chalintirar, mayib qilib qo‘yar yoki o‘limga olib kelardi. 1910-yilda, xususan, “Chimyon” neft konlarida (ishchilar soni 500 kishi bo‘lgan holda) 328 baxtsiz hodisa qayd qilingan edi².

¹ Ўзбекистон тарихи. Т.: Фан. II том, 1971. Б.348.

² Костельская З. Д. Из истории Туркестанского края. Москва, Наука, 1980. С. 59.

Vahshiyona ekspluatatsiya va muttasil milliy kamsitish sharoitida rus va mahalliy ishchilar o‘rtasida qardoshlarcha birdamlik tuyg‘usi, o‘z huquqlari uchun kurashishga intilish yuzaga kela boradi. Tub aholi mehnatkashlari rus ishchilaridan o‘rnak olib, kapitalistik ekspluatatsiyaga, mustamlakachilik zulmiga va chorizmga qarshi kurashga dadilroq ko‘tarila boshladilar.

Turkistonning o‘zbeklar yashaydigan tumanlarida ishchilar harakatining jonlanishi 1910-yildayoq sezila boshlagan edi. Konchilar, paxtakorlar va temiryo‘lchilar o‘zlarini ko‘rsata boshladilar. 1909-yil oxiridayoq (4-avgustdan boshlab) Sho‘rob toshko‘mir koni ishchilari olti kun ish tashladi.

1910-yil avgustida Dargomir stansiyasi yaqinida, Suluktadagi “Verbov va sheriklari”ga qarashli toshko‘mir konlarida, shuningdek, “Melnikov stansiyasi yaqinidagi “Santo” neft konlarida zabastovkalar bo‘ldi. O‘sha yilning dekabr oyida Qo‘qondagi Potelyaxovning paxta tozalash va yog‘ zavodlari ishchilari (asosan o‘zbeklar) ish tashladi. Bu ish tashlashga ma’muriyatning kунбай va oybay ishlaydigan ishchilarning ish haqini kamaytirish to‘g‘risida chiqargan e’loni sabab bo‘ldi. Zavod ma’muriyati zavodning bekor turib qolishidan qo‘rqib, ilgarigi ish haqini tikladi.

Stachka ruhi barcha ishchilarga yoyildi va endi Toshkentdagagi tamakichi ishchilar (Finkelning papiros fabrikasi) va Mirzacho‘ldagi chigirtkaga qarshi kurashuvchi ishchilar ish tashladi.

1911-yilda ishchilar stachkasi tez-tez bo‘lib turdi, ular ko‘proq uyushqoqlik bilan o‘tdi, ishchilar boshliqlarining harakati ancha kuchaydi. 1911-yil fevralining dastlabki kunlarida (ish bahosining pasaytirilishi va ma’muriyatning ishchilarni xo‘rashi munosabati bilan) O‘rta Osiyo temir yo‘li Chernyaev ozeli stansiyasi va Qo‘qon stansiyasidagi temir yo‘l ishchilari (depo ishchilari) orasida g‘alayonlar boshlandi. Ma’murlar stachka xarakatini bostirish uchun shoshilinch choralar ko‘rdilar. Eng faol ishchilar ishdan bo‘shatildi.

1911-yil yozida “Verbov va sheriklari” Sulukta konlarining ishchilari yana ish tashlashdi. 1911-yil kuzida tikuvchi ishchilar: 13-sentyabarda Samarqanddagi

Shneyderman tikuvchilik ustaxonasida va 8- oktyabrda Toshkentdagি Kirillov tikuvchilik ustonasida ish tashladilar¹.

Samarqandda zabastovkani professional jamiyat “Tikuvchilar shirkati” (Raxlin boshchiligidan) va G. N. Klimenko rahbarlik qilgan sotsial-demokratik guruh; Toshkentda – ishchilarning bir guruhi – Suradze, Fayfush, Znamenskiy tashkil qildilar. Ma’muriyat ishchilarning vakillari bo’lmish Fayfush va Znamenskiy bilan ishbay ish haqini ko’tarish xususida muzokara olib borishdan bosh tortdi va hatto ularni ishdan bo’shatdi. Ishchi Suradze qamoqqa olinib, Toshkentdan badarg‘a qilindi.

1911-yil dekabri oxirida Toshkentdagи Pavlov elektrostansiyasining ishchilari ish tashladi. Zabastovkaga ko’zga ko’ringan bolshevik I.T.Fioletov boshchilik qildi.

1912-yil boshida konchilar va temiryo’lchilarning g‘alayonlari bo’lib turdi. 1912-yil 6-fevralda “Qizilqiya” toshko’mir koni ishchilari (223 ishchi) ish tashladi. Zabastovkani tayyorlashda, talablarni ishlab chiqishda mahalliy ishchilar ham – Sayfiddinov, Islomov, Yusupov, Nazarov, Zokirov, Sattorov va boshqalar qatnashdilar².

Oxranka Toshkent bo’yicha yetkazib berib turgan ma’lumotlarda, temiryo’lchi ishchilar orasida “ish narxlarining tobora kamayishidan norozilik kuchayib bormoqda” deb tez-tez qayd qilinib turdi. 1912-yil 10-fevralda Bosh temir yo’l ustaxonalarining yig‘uv sexida bir “hodisa” bo’lib, uning zabastovka bilan tugashiga sal qoldi. O’sha kuni sex ma’muriyati brigada ishchilari bajargan ishbay ishni qabul qilmadi va hatto uni qaytadan bajarishni talab etdi. G’azabga kelgan ishchilar muzokara olib borish uchun o’z vakillarini – slesar Aleksandrovni tayinladilar. Unga oxranka “g‘oyat shubhali shaxs” deb baho bergen edi. Ustaxona boshlig‘i ishchilarning “qattiq noroziligin” bir iloj qilib yumshatish choralarini ko’rishga urindi.

¹ Ўзбекистон тарихи. Ко’сатилган асар. Б. 352.

² Кастьельская З.Д. Ко’сатилган асар. Б.61.

Ishchilar harakatining o‘lkada jonlana boshlashi chor ma’muriyatini jiddiy tashvishga soldi. 1912-yil yanvaridayoq “Turkestanskie vedomosti”da general-gubernator Samsonovning buyrug‘i chiqdi. Bu buyruqda “revolyutsion qo’shiqlar aytish”, shuningdek “davlat tartibini va jamoatchilik osoyishtaligini buzishga qaratilgan tartibsizliklarga undash” ta’qiqlanadi. Politsiya va oxranka hushyorlikni kuchaytirib, Toshkentning yirik korxonalarini alohida nazorat ostiga oldi. Korxonalarga qo‘qqisdan bostirib kelib, tintuvlar o‘tkazib turildi.

1912-yil fevralida Toshkentdagи “Bredenfeld” firmasining bosmaxonasi qo‘qqisdan politsiya tomonidan o‘rab olindi. Tintuv paytida politsiya, gazetalarning yoritishiga ko‘ra, “terib qo‘yilgan bir necha xitobnomani”, bir ishchidan esa “400 donaga yaqin nolegal xitobnomani” topib olgan¹.

Turkiston bolsheviklarining aktiv faoliyati va ularning omma bilan aloqalarining kengayishi o‘lkada ishchilar inqiboliy harakatining tag‘in ham o‘sishiga yordam berdi. 1913-1914-yillarda ishchilar harakatiga yangi – yangi ishchi tabaqalari, xususan, milliy proletariat namoyondalaridan tobora ko‘p kishi jalb qilina bordi.

1913-yil 1-yanvarda Toshkent ishchilari orasida g‘alayonlar bo‘ldi. G‘alayon temir yo‘l pudratchisi Atsatuров qo‘lida ishlayotgan va ikki oydan ko‘proq vaqt mobaynida ish haqi olmagan quruvchilarni qamrab oldi. 60 ishchidan iborat olomon Atsatuров uyiga qarab yo‘l oldi, ular pudratchining boplab adabini bermoqchi edilar. Atsatuров ishchilarga mehnat haqlarini to‘lashga majbur bo‘ldi.

Yanvarda Toshkent temir yo‘l Bosh ustaxonalari ishchilari orasida ham g‘alayonlar bo‘lib, bu g‘alayonlar ishchilarning ishbay haq olishdan kunbay haq olishga o‘tkazishdan noroziliklarini ifodalanadi. Quyuv tseksida ishchilarning yetakchisi Tit Pavlyukov, oxranka agentining xabar qilishicha, “mavjud davlat tuzumini ag‘darishga qaratilgan tashviqot olib borishga” uringan.

1913-yil yozida Turkistonda ishchilar harakati kuchayganligi yaqqol ko‘rinib turdi. Ish haqining may oyida kamaytirilganligi tufayli iyunda temir yo‘l ishchilarining g‘alayonlari bo‘ldi. 1913-yil 5-avgustida Shpranger metall zavodida

¹ Турсунов Х. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. Т.: Госиздат. 1962. С.143.

zabastovka boshlandi. Bu ish tashlashga ishchilarni ishbay haq to‘lashdan kunbay haq to‘lashga o‘tkazish sabab bo‘lgan edi. Eng faol zabastovkachilar ishdan bo‘shatildi.

Mayda, goho yarim kustar korxonalarning ishchilari ham harakatga tobora ko‘proq jalb etildi. Misol uchun, Andijondagi Levashov kareta ustaxonasining ishchilari, Toshkentdagи “Lui Zalm” ustaxonasining ichki kiyim bo‘limi xodimlari va Toshkent shahar boshqarmasining xizmatchi registratorlari va hokazolarni ko‘rsatish mumkin.

1914-yil yanvaridagi qamoqqa olishlar 1914-yil 9-yanvariga mo‘ljallangan stachkani barbod etdi, Toshkent sotsial-demokratiyasini zaiflashtirdi. Biroq revolyuцion harakatdagi yangi osoyishtalik davri uzoqqa cho‘zilmadi. 1914-yil ko‘klamida temiryo‘lchilarning sotsial-demokratik gruppalari – Manjara va Fedoseev to‘garaklari, Serikov to‘garagi o‘z ishlarini yana boshlab yubordi; sotsial-demokratlarning shahar gruppalari – biri G.Ya.Alimov boshchiligidagi (bunda ilgari Ya.Upmal rahbarlik qilar edi), ikkinchisi Grigoriy Kuznenko va Smolyakov boshchiligidagi (bunda ilgari V.Saxarov rahbarlik qilar edi) qayta tiklandi; okrug qo‘shinlari ichidagi harbiy-revolyutsion tashkilotlarning faoliyati ham qayta tiklandi.

Rossiyada ishchilar harakatining favqulodda yuksalishi munosabati bilan 1914-yil aprel va mayida o‘lkada ishchilar harakati yangidan to‘lqinlandi. Turkistonning ilg‘or ishchilari umumiy siyosiy stachkaga tayyorgarlikni kuchaytirdilar¹.

O‘rta Osiyo Bosh temir yo‘l ustaxonalarining ishchilari o‘zlarining revolyutsion faolliklari bilan xuddi ilgarigidek yaqqol ko‘zga tashlanib turdilar. Bu ustaxonalarda Fedoseev va Serikov rahbarligidagi sotsial-demokratik to‘garaklar ish ko‘rdi.

O‘rta Osiyo temir yo‘l ustaxonalarining ishchilari siyosiy stachkaga tayyorlanar ekanlar, iqtisodiy talablarni ko‘tarib chiqdilar. 1914-yil bahorida ustaxonalarda ish haqini oshirish uchun harakat keng ko‘lamda avj oldi. Aprel

¹ Турсунов X. Ко‘satilgan asar. Б. 152.

boshida vagon, temirchilik va mexanika tsexlarining ishchilari ish tashladilar. Bunga ish haqini uzoq vaqtgacha bermaslik sabab bo‘lgan edi. Sotsial-demokratlardan Vladimir Gololobov hamda aka-uka Petr va Nikita Mulilkinlar zabastovkani tashkil qildilar.

Shu vaqtda o‘lkada mahalliy millat ishchilarini ham revolyutsion harakatga tortish jarayoni davom etdi. 1914-yil 3-iyulda Toshkent qushxonasining ishchilari ish tashladi, ularning aksar ko‘pchiligi o‘zbeklar edi. Ishchilardan Inoq Xidirboev, Abduqayum Abdurasulov, Haydar Usmonov, Muhammad Gabidullin zabastovkachilarga bosh bo‘ldilar. Ishchilar o‘zlariga yakshanba va bayram dam olish kuni berilishini ish haqini o‘z vaqtida to‘lashni talab qilib chiqdilar. Ish tashlash bir haftaga cho‘zildi va ma’muriyatni yon berishga majbur etdi.

Shuningdek, og‘ir iqtisodiy ahvol, huquqsizlik va shafqatsiz ekspluatatsiya dehqonlarni ham ekspluatatorlarga qarshi yangi-yangi ko‘tarilishlarga sabab bo‘ldi.

Dehqonlarning qurollangan otryadlari boylarning mulklariga, paxta tozalash zavodlaridagi sudxo‘rlarga, ularning kontoralariga qarshi hujumlari uyushtirildi. 1905-yilda Farg‘ona viloyatida 75 ta ana shunday holatlar hisobga olingan, 1906-yilda 150 ta, 1908-yilda esa – 174 ta ana shunday holat sodir etilgan¹.

Bu davrda dehqonlarning harakati ayniqsa Namangan uezdida anchagina keskinlashib ketdi.

Farg‘ona viloyatining qator volostlarida, ayniqsa Namangan uezdining Tergachi, Saroy, Yangiqo‘rg‘on, Bog‘ish, Chust viloyatlarida 1905-yilda keng ko‘lamli “tartibsizliklar” volost boshliqlarini saylash vaqtida bo‘lib o‘tdi, oqibatda saylov buzildi. Natijada saylovni o‘tkazish imkoniyati bo‘lmaganligi oqibatida, uezd boshlig‘i harbiy gubernatordan ushbu volostlarda boshliqlarni ma’muriy yo‘l bilan tayinlashni iltimos qildi”².

Ba’zi volostlarda, masalan, Chodak volostida qishloq oqsoqollarini saylash vaqtida ayrim qishloqlarda g‘alayonlar ro‘y berdi. Hatto saylovlarni o‘tkazishga

¹ Акрамов Ш. Интересные архивные источники по аграрному движению в Туркестане периода первой русской революции. //Общественные науки в Узбекистане. № 12. 1975. С.37.

² Усманов И.Из истории дехканских волнений в Туркестане в конце XIX – начале XX веков. В кн.: Исследование по проблемам общественных наук и исторических дисциплин. Т.: Фан. 1977. С.86.

muvaffaq bo‘lingan joylarda ham mehnatkashlar ommasi ancha vaqtgacha tinchimay turdi va volost hokimlarini ham (Chotqol volostida), qishloq oqsoqollarini ham (Tepaqo‘rg‘on, Qirchin, Qorasuv, Olti qayrag‘och, Oq yo‘l va boshqa qishloqlarda) qaytadan saylashni talab qila boshladi.

Ta’kidlash joizki, o‘sha davrda o‘zbek dehqonlarining shuningdek, qirg‘iz dehqonlarining ham chiqishlari sinfiy xarakterda bo‘lganligini ko‘rsatib turibdi. Chunonchi, “1905-yil 5-martda Namangan uezdining Sarisuv volostidagi Aflatun degan joyda volost hokimini saylash vaqtida 1500 ga yaqin ko‘chmanchi qirg‘izlar to‘plandi. Volost hokimini ellikboshilar saylashini aholi eshitganidan keyin bunday saylovga rozi bo‘lmadi”.

Saylovni o‘tkazayotgan uezd boshlig‘ining yordamchisi “tartibsizliklarni” to‘xtatish uchun duch kelgan bir dehqonni – Joniqul Sarimsoqovni qamab qo‘ydi. Xaloyiq uni qamoqdan qutqazishga urindi, lekin uezd boshlig‘ining yordamchisi “hammangni otib tashlayman”, deb do‘q qildi. Shundan so‘ng “xaloyiq orasidan Jonish Murod Aliev degan bir qirg‘iz otilib chiqib va ko‘kragini ochib: mana, ot, ot ...” , deb qichqirdi, lekin uni ham qamab qo‘yishdi. Natijada saylov o‘tkazilmay qoldi, ma’muriyat ancha vaqt o‘tganidan keyingina o‘z odamini volost hokimi qilib tayinlashga muvaffaq bo‘ldi. Bunga javoban Sarisuv volostidagi uch qishloq jamoasining aholisi, asosan kambag‘al dehqonlar 30-martda o‘z vakillari orqali Farg‘ona harbiy gubernatoriga iltimosnama bilan murojaat qilib, ellikboshilarni ham, volost hokimini ham qaytadan saylashga ijozat berishni so‘radi¹.

Ta’kidlash joizki, ba’zi hollarda xalq ommasining norozilik harakatlari o‘z samarasini bergan holatlar ham bo‘lgan. Masalan, 1905-yilning bahorida Namangan uezdining kambag‘allari ayrim volostlarda, masalan, Susamir volostida kambag‘allarni volost hokimlari qilib saylashga muvoffaq bo‘ldilar. Ammo boylar va boshqa “mo’tabar” kishilar bularga qarshi darrov kurash boshladilar.

1905-yilning bahorida Farg‘ona viloyatida bo‘lib o‘tgan dehqonlarning g‘alayonlari bir qancha hollarda juda jiddiy tus oldi. Dehqonlar o‘z huquqlarini himoya qilib, sira qo‘rqmay chor ma’murlariga va shular bilan bog‘langan qishloq

¹ Ўзбекистон тарихи. II том. Т.: Фан. 1970. Б. 239.

boylariga qarshi chiqa boshladilar. Masalan, Tepaqo‘rg‘on (151 hovli) va Qirchin (85 hovli) degan ikki qishloqdan iborat Tepaqo‘rg‘on qishloq jamoa oqsoqolini saylash vaqtida Namangan uezdining Chodak volostida quyidagi voqealar ro‘y berdi.

6-fevralda G‘urumsaroy qishlog‘ida o‘tkazilgan yig‘ilishda ma’murlar uezd ma’muriyatiga ma’qul bo‘lib qolgan ilgarigi qishloq oqsoqoli Mirzakarim Rahimovni saylatishga urinib ko‘rdilar. Rahimov aholini har xil qiyonoqlarga solib va talab, ko‘pchilikning joniga tekkan kishi edi. Biroq, Chodak volost hokimi Ismatilla Xo‘jayev har qancha harakat qilsa ham majlisda Egamberdi Husanboev degan dehqon bir ovozdan saylandi.

Biroq, hukumat ma’murlari uni qishloq oqsoqoli qilib tasdiqlashni istamadilar va yana o‘scha Chodak volosti hokimiga qishloq majlisini yangidan chaqirib, yangi saylov o‘tkazishni topshirdilar.

Unga javoban, “xaloyiq saylov o‘tkazishdan bosh tortib, Mirzakarim (Rahimov)ning oqsoqol bo‘lishini istamaymiz dedi, o‘zimiz bir ovozdan saylagan Egamberdi Husanboevni shu lavozimda qoldirib, tasdiqlashni talab qilamiz, bu xususda volost hokimidan uchastka pristaviga ma’lum qilishni so‘raymiz”, deb turib oldi. Shundan so‘ng volost hokimi uchastka pristavi shtabi – kapitan Bogaevskiy huzuriga borib, “16-fevralda ikkinchi marta o‘tkazilgan saylovda Mirzakarim Rahimov qishloq oqsoqoli lavozimiga bir ovozdan saylandi”, deb aytdi. Ma’lumki, Mirzakarim boshliqlarga yoqib qolgan ilgarigi oqsoqolning o‘zi edi.

Namangan uezdining Tergovchi qishlog‘idagi dehqonlar ham chor hukumatining vakillariga nisbatan dag‘dag‘a qilishda tepaqo‘rg‘onliklardan qolishmadilar. Tergovchiliklarning qanday harakat qilganliklari Yangiyo‘rg‘on uchastka pristavi kapitan Kotovichning 1905-yil 2-martda tuzgan protokolida batafsil bayon qilingan. Kotovich volost hokimini saylash uchun Tergovchi qishlog‘iga kelib, machit hovlisiga kirganida bu yerda to‘plangan mahalliy aholidan bir necha kishi unga, “biz yangi volostnoy saylashni istamaymiz”,

deyishdi. Pristav: “sizlar hohlagan kishingizni saylashingiz mumkin”, lekin “saylovnii xalq emas, balki ellikboshilar o’tkazishi lozim” deb va’zxonlik qildi.

Bir oz vaqt o’tganidan keyin shovqin-suron to‘xtadi, Kotovich saylov o’tkazishga kirishdi. Biroq xaloyiq: “yangi volostnoyni ellikboshilar emas, balki maxsus saylab qo‘yilgan kishilar saylasin, bizning istagimiz mana shu”, degan gapni yana aytди. Shu tariqa xaloyiq ellikboshilarning ilgarigi volost hokimi sotib olganligini va bu ellikboshilarga ishonmasligini bildirdi. Pristav bunga javoban, xaloyiqning iltimosini bajara olmayman, dedi. “Shundan so‘ng yana shovqin-suron boshlandi va, agar shovqin-suron bosilmasa va xaloyiq ayvонни bo‘shatib bermasa, bugun saylov bo‘lmaydi, deb e’lon qilish imkoniyatiga ega bo‘lmoq uchun yana juda ko‘p kuch sarflashga to‘g‘ri keldi”. Bunga javoban xaloyiq “yo‘q, o’tkaziladi” deb baqiraveradi va shovqin-suron yana boshlanib ketdi. Bu ahvol kunduz soat 2 gacha davom etdi, shundan so‘ng men xaloyiqni tinchitish mumkin emasligiga uzil – kesil qanoat hosil qildim... negaki odamlar menga to‘ppa-to‘g‘ri bostirib kelayotganliklarini, tartibsizlikda qatnashmagan kishilar qo‘rqib o‘zlarini chetga olganliklarini ko‘rib, men, bugun saylov o’tkazilmaydi, deb qat’iy e’lon qildim va tarqalinglar, deb buyurdim, ammo xaloyiq bari bir tarqalmadi. Shundan so‘ng jo‘nab ketdim....”¹.

Mahalliy xalqni yerlaridan mahrum qilish qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetkazib beruvchilarni tobora yersizlanishiga olib keldi va ularning ahvolini battar og‘irlashtirdi.

Farg‘ona dehqonlari chor amaldorlarining erlarini tortib olishlariga qarshi tashkiliy ravishda qarshilik ko‘rsata boshladilar. Ularning chiqishlari yildan-yilga ortib bordi. Masalan, 1909-1912-yillarda Farg‘ona viloyatida mustamlakachi va mahalliy ma’murlarga qarshi 475 ta dehqonlarning chiqishlari ro‘yxatga olingan, faqat 1913-yilning o‘zida bu raqam 632 tagacha ortgan².

¹ Шарафиддинов А., Кодиров Н. XX аср бошларида Фарғона вилояти қишлоқларида халқ харакатлари (Наманган уезд мисолида). // Тарих тилга кирганды ... (Илмий маколалар тўплами). Намнган, 2016. Б. 224.

² Ko‘satilgan asar. Б. 225.

Lekin, ta'kidlash kerakki dehqonlarning chiqishlarining barchasi mag'lubiyat bilan tugar edi. Chunki, bu qo'zg'ololnarga puxta tashilotchilik, tayyorgarlik, yetuk rahbarlik yetishmas edi.

Ammo ularning saboqlari keyingi yillardagi harakatlarda o'z natijasini ko'rsatdi.

2.2. Turkiston o'lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi

Turkiston o'lkasida XX asr boshlarida "milliy ozodlik kurashi, milliy uyg'onishda ma'naviy kuch-quvvat va ilhom manbai bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, milliy-demokratik harakat – jadidchilik"¹ ning paydo bo'lishi, omillari, zaminlari haqida fikr bildiramiz.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Turkistondagi tarixiy sharoit quyidagicha jarayonda rivojlanib bordi. Turkiston so'f mustamalakaga aylanib, chorizm uni iqtisodiy jihatdan to'la quvvat bilan kemirishga jon-jahdi bilan kirishib ketdi. Turkiston o'lkasi jahon mustamlaka zanjiridagi eng mustahkam halqa bo'lib, G'arbiy Yevropa mustamalakachiligi uning yonida oddiy bir hol edi. Mustamlakachilikning ruscha modeli (nusxasi) shunday tashkil qilindiki, unda mahalliy xalqni jaholatda, savodsizlikda, qashshoqlikda ushlab turish lozim edi. Mustamlakachilkning bu rejasi ularga Turkistonni istagancha talash, ezish, toptash imkoniyatini uzoq vaqt saqlab qolish "xuquqini" berardi.

Mustamalakachilar shu maqsalarni amalga oshirish uchun o'lkaza turli tabaqa vakillarini – chinovniklarni, harbiylarni, ruhoniylarni, mujiklarni, muhandis-texniklarni, olimlarni, meshchanlarni, ishchilarni – barchani safarbar etdi. Xom ashyni o'lordan tashib ketish uchun qudratli texnika yo'lladi.

O'rta Osiyo hududi kapitalistik bozor munosabatlariga ishchilar, ilmiy kuchlar, ishlab chiqarish vositalarining ishtirokida tortildi. Ana shu jarayonda

¹ Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. Т.: Шарқ, 2001. Б. 3.

o‘zbek milliy burjuaziyasi – savdo sanoat egalari ham shakllana bordi. Chorizm mahalliy burjuazianing paydo bo‘lishini aslo istamasdi.

Chunki unga ham to‘la ishonib bo‘lmash edi, ularning juda ko‘pchiligi o‘z xalqidan batamom yuz o‘girib, imperiya tomoniga o‘tib keta olmasligini ham bilardilar. Ularni o‘z xalqi bilan bog‘lab turuvchi milliy, diniy, tarixiy ildizlar mavjud ediki, bu milliy uyg‘onish pallasida bir-birini tezroq tushunib olib mustamlakachilarga qarshi yagona front bo‘lib kurashga zamin hozirlashi mumkin edi. Shunga ko‘ra rus chorizmi va burjuaziyasi o‘sib kelayotgan o‘zbek mahalliy burjuaziyasining iqtisodiy-siyosiy huquqlarini cheklab, uning rivojlanishi iqtisodiy potensialini qudratli bo‘lib ketishiga to‘siq bo‘ldi.

Rus hukmron doiralari mahalliy xalq vakillarini boshqaruva tizimining faqat eng quyi zvenolariga munosib ko‘rganlar xolos. O‘lkadagi quyi boshqaruviga, qishloq va ovul oqsoqollik lavozimlariga mahalliy aholining vakillari “saylov” yo‘li bilan tayinlangan. Ular rus ma’muriyatining ko‘rsatmalarini so‘zsiz bajaradigan va o‘ta itoatkor kishilar hisoblangan.

Shu tariqa, mahalliy yuqori tabaqa vakillari oliy va o‘rta boshqaruva lavozimlaridan mahrum etilib, siyosiy maydondan surib tashlandi. “Mahalliy xalqning orasida, - deb yozgan” Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori, - xalqning amaldorlari ayniqsa, ruhoniylar singari dushmanlarimiz ko‘p. Biz bu o‘lkaga kelganimizdan keyin ular faqat sobiq mavqelarini emas, balki yaxshi hayotni ta’minlovchi imkoniyatlardan ham ayirdilar. O‘sha toifadagi kishilar o‘z jamiyatining ruhi va zarar tomonlarini yaxshi bilganliklari uchun avvalgi tartiblarni tiklash maqsadida xalqni ruslarga qarshi aylantirishga qodirdirlar”¹.

Ta’kidlash lozimki, rus hukumati birinchi navbatda, din peshvolarini eng xavfli dushman hisoblab, ularni imkonli boricha chekkaga surib qo‘yishga harakat qildi.

Rus davlati o‘lkada o‘ziga mustahkam tayanch hosil qilish uchun va erlarni o‘zlashtirish maqsadida, rus shaharlari va posyolkalari bunyod etdi. Bu joylarga minglab ruslar joylashtirildi. 1909-yilga kelib o‘lkadagi ruslarning soni 619 320

¹ Жадидчилик: Ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун курс. Т.: Университет. 1999. Б. 12.

kishini tashkil etdi¹. Natijada o‘lkadaga o‘troq va ko‘chmanchi aholi unumdar yerlar va yaylovlarning anchagina qismidan mahrum bo‘lib, og‘ir ahvolga tushib qoldi. Buning ustiga ruslarning o‘lkada tobora ko‘payib borishi siyosiy jihatdan ham aholi uchun xavfli bo‘lib, ular rus davlatining mustamlakachilik va ulug‘ millatchilik siyosatini mustahkamlovchi omillardan biri bo‘lgan. Shuningdek, rus burjuaziyasi har jihatdan, avvalo, iqtisodiy jihatdan o‘zbek milliy burjuaziyasini qaramlikda saqlab keladi. Masalan, rus banklari, firmalari, to‘qimachilik korxonalari, turli yuqori idoralardagi to‘sıqlar ularni qaramlikda saqlashni osonlashtiradi. Bu kamsitishlar o‘zbek burjuaziyasining nafsoniyatiga tegar edi. Ruhoniylarning iymon – e’tiqodi but, xalqining emin – erkin, dasturxoni to‘kin jahondagi taraqqiy topgan xalqlar kabi ma’rifatli bo‘lishini astoydil istovchi ilg‘or guruhi ham mavjud ediki, ular ham johil ruhoniylarga, ham chorizmga qarshi edilar. Millat ravnaqini o‘ylovchi taraqqiyparvar kuchlar o‘zbek xalqining hunarmandlari, dehqonlari, burjuaziyasi, ruhoniylari – barcha tabaqalari orasida mavjud edi. Ular xalqning milliy ongini oshirish va o‘zligini anglatishning birinchi bosqichidagi vazifasini ma’rifat, ilmu urfondan qidirdilar.

Rus hukumati va kapitalistlari birinchi navbatda, paxtachilikni rivojlantirish va to‘qimachilik sanoatini arzon xom ashyo bilan ta’minalashga kirishdilar.

Paxtachilikni rivojlanishi bilan bir qatorda, paxta tozalash, yog‘ vasovun zavodlari vujudga keldi va ularning soni ko‘payib bordi. Shu bilan birga, mustamlaka davrida milliy burjuaziya shakllanib bordi va ularning jamiyat hayotida salmoqli o‘rinni egallab bordi.

Ta’kidlash joizki, rus kapitalistlari shakllanayotgan milliy burjuaziyani milliy burjuaziya sifatida rivojlanishlariga va kuch-qudratga to‘lishiga yo‘l bermadi. Bularga Turkiston o‘lkasi bilan aloqada ko‘proq vositachilar sifatida munosabatda bo‘ladilar. Natijada, milliy burjuaziya “Moskva savdo-sanoat shirkati”, “Aka-uka Shlosberg shirkati” va boshqa qator firmalarning iskanjasida faoliyat ko‘rsatdi. Qator firmalarning hammasi, paxta va boshqa xom ashyo mahsulotlarini uzluksiz Rossiyaga olib ketaverdilar. Ular paxtani arzon narxda

¹ Ko‘satilgan asar. Б. 13.

olishdangina emas, balki undan tayyorlangan turli gazlamalarni sotishdan ham katta daromad oldilar.

Turkiston zamini Rossiyadan keltirilgan tayyor sanoat mollari bilan to‘ldirilib, rus hukumati va firmalari undan ham mo‘may daromadlarni qo‘lga kiritdilar. Umuman aytganda, rus davlati yarim asrlik vaqt ichida mahalliy xalqlarning boyliklarini imkoniboricha o‘zlashtirishga hech narsadan toymadi.

Shu bois ham jadid namoyondasi Fitrat “Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo‘limiz bog‘landi. Tilimiz kesildi. Og‘zimiz qoplandi. Erimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz emirildi, nomusimiz g‘asb qilindi. Insoniyligimiz oyoq osti qilindi. Tuzimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa bo‘ysundik. Bugun borligimizni berdik”¹ - degan edi.

Xullas, Turkistonni Rossiyaning xom ashyo manbaiga va tayyor mahsulotlar bozoriga aylantirilishi, ayovsiz talanishi va qashshoqlanishi jadidlarning ham, milliy burjuaziyaning ham nafratini uyg‘otdi. Bu holat, ularda ona yurtning iqtisodiy mustaqilligini tiklash g‘oyasi va kurashish shakllantirdi.

Turkiston o‘lkasida jadidchilik harakatining vujudga kelishi va shakllanish tarixini o‘rganish, aytish mumkinki, mustaqillik davrida boshlandi deyish mumkin. Ammo shunga qaramay, bugungi kungacha bu masala yuzasidan talaygina ishlar amalga oshirildi.

Jadidchilik XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Turkistonda hukm surgan favqulodda qaloq iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sharoitda yashayotgan xalqlarni ma’rifatlashtirish, jamiyat hayotida ijtimoiy va madaniy islohotlar o‘tkazish, pirovardida, milliy mustaqillik g‘oyalarini hayotga tadbiq etish maqsadini o‘z oldiga qo‘ygan harakat sifatida, tarixiy vaziyat taqozosi bilan vujudga keldi. Bu harakat o‘zining shakllanish yo‘lini bosib o‘tar ekan, asr boshlaridan 1917-yil fevral inqilobiga qadar bo‘lgan birinchi bosqichida, milliy – ozodlik harakati sifatida uzil-kesil rasmiylashdi.

O‘z oldilariga Turkiston xalqlarining taqdiri uchun muhim ahamiyatga molik vazifani qo‘ygan jadidlar, 1906-yil yanvarida Peterburgda bo‘lib o‘tgan

¹ Шарқ ўлдузи. 1992 йил. 10-сон. Б.173.

Ummrossiya musulmonlari qurultoyiga o‘z vakillarini yashirinchay yuborib, Rossiya tasarrufida yashagan boshqa musulmon xalqlar va ularning peshqadam arboblari bilan aloqa o‘rnatmoqchi bo‘lganlar.

Yuqoridagi fikrlarga xulosa qilib aytish mumkinki, davrni, zamon muammolarini, xalq tashvishi va dardlarini tushunish, uni yechimini topish uchun qayg‘urish uchun mulohazali, o‘qimishli, ziyrak shaxslar zarurati paydo bo‘ladi. Chunki bunday shaxslar yetilgan muammolarni hal qilish yo‘llarini, nazariy tomonlarini boshqalardan teranroq idrok qiladi, ularni amalga oshirishga favqulodda kuch va g‘ayrat bilan kirishadilar. Ana shunday shaxslardan biri, qrim – tatar xalqi farzandi Ismoil Gaspirinskiy hisoblanib, jadidchilik harakatining turkiy xalqlar dunyosidagi “g‘oyaviy otasi” hisoblanadi.

1892-yilda Gaspirinskiy musulmon maktablarini isloh qilishga doir loyihasini Turkiston general gubernatori Rozenbaxga yubordi. Turkiston hukmdori uni mutlaqo rad qildi. Undan javob ololmagach Ismoil Gapirinskiy 1893-yilda Turkistonga o‘zi keldi. U Turkistonning yirik shaharlarida bo‘lib taraqqiyat parvar ziyorilar bilan uchrashuvlar o‘tkazib, jadid maktablarining ahamiyatini yoritib berdi. Hatto Buxoro amiri Abdulahadni o‘z g‘oyasini qabul qildirishga bir necha bor urinib ko‘rdi. Amir buyuk mutafakkir maqsadini tushunishdan ojiz mutassib edi.

Ismoil Gaspirinskiy so‘ngra Samarqandga, undan Toshkentga keldi. Turkiston general-gubernatorligi amaldorlari uni dushmanlik nazari bilan kutib oldilar. Chunki ularning Turkistondagi maorif siyosati xalqni qorong‘ilikda ushlab turishdan iborat edi.

1893-yil 8-iyunda u Buxoro amiri huzurida bo‘ldi. Amir zo‘rg‘a bitta jadid maktabi ochilishiga rozi bo‘ldi. Umuman olganda Ismoil Gaspirinskiyning musulmon turkiy dunyosi oldidagi xizmatlari buyukdir.

Ismoil Gaspirinskiy amir bilan murosa-madora qilib Buxoroda zo‘rg‘a yagona jadid maktabi ochdirgan bo‘lsa-da, uning uchqunlari Turkiston hududlari bo‘ylab sachrab ketdi. Uning Buxorodagi sadoqatli shogirdlari jadid maktablarini ko‘paytirish va xazinadan ularga mablag‘ ajratish maqsadida amirni qistay

boshladilar¹. Bunday xayrli ishning boshida Buxorolik mudarris va tarixchi olim Marjoniy (1818-1889), g‘ijduvonlik domla Fozil, Mo‘minxo‘ja Vobkandiy, mulla Xudoyberdi Boysuniy va ularning tarafдорлари turar edilar.

Ismoil Gaspirinskiyning Turkistonga safari jadidchilik harakatining rivojlanishiga katta ta’sir qildi. Barcha Turkistonlik jadidlar uni o‘zlarining chinakam ustozlari deb bildilar. Ular Turkiston shaharlariда jadidchilikni targ‘ib qildilar va amaliyot bilan qo‘sib olib bordilar. Biroq bu harakatlar ikki dushmanga – birinchisi, chor ma’muriyati, ikkinchisi, mutaassib va johil ruhoniylarga qarshi kurash jarayonida olib borildi.

Shunga qaramay 1898-yilda Qo‘qonda Salohiddin domla ikkinchi jadid maktabiga asos soldi. Shu yili To‘qmoqda ham shu tipdagi maktab ochildi. 1899-yili Andijonda Shamsiddin domla va Toshkentda Mannon qori jadid maktabiga asos soldilar. 1903-yilda Turkiston o‘lkasida 102 ta boshlang‘ich va 2 ta o‘rta jadid maktablari bor edi.

Asr boshida jadidlar ziyolilarning butun bir vatanparvar, millatparvarlar avlodini tarbiyalab berishdek og‘ir ishga fidoyilik bilan kirishdilar. Ularning boshida M.Behbudiy, S.Ayniy, A.Avloniy, A.Fitrat, Munavvar qori, Bobooxun Salimov va boshqa ko‘plab taraqqiyparvar insonlar turar edilar. Ular doimo quvg‘in, qamoq, surgun kabi xavf-xatarlar boshida charx urib turgan holda ish olib borishga majbur bo‘ldilar².

Turkistonda jadidchilik harakatining keng yoyilib borishi chorizm mustamlakachilik ma’muriyatiga katta tashvish orttirdi. Chunki jadid maktablari ruslashtirish (shovinistik buyuk davlatchilik) siyosati zaminiga bolta urardi. Shu sababli imperiya ichki ishlar vazirligi politsiya departamentining Turkiston o‘lkasida mahalliy yerlilar o‘rtasida yangi usul – jadid maktablari ochish harakati boshlanib matbuotda bu haqda turli maqolalar e’lon qilinayotganligi, shunga ko‘ra Turkiston bo‘yicha maqola yozish, maktab ochish va dars berish ishida qatnashayotgan barcha shaxslar haqida mukammal material to‘plab uni shaxsan

¹ Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. Т.: Университет. 2006. Б.14.

² Алимова Д.А. Жадидчилик харакатининг ижтимоий – сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури.

Жадидчилик: ислоҳият, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Т.: Университет. 1999. Б.36.

ichki ishlar vaziriga ma'lum qilish uchun zudlik bilan politsiya departamentiga yuborish va bu ishning Ostroumovga yuklatilganligini ma'lum qilgani bejiz emas edi. Jadidlar chorizmnning mustamlaka siyosati strategiyasiga jiddiy o'zgarishlar kiritishga majbur qilgan siyosiy kuch sifatida XX asr boshida tarix sahnasiga chiqa boshlagan edilar.

Ziyolilar orasida tabaqalanish yuz berdi. Taraqqiyparvar kishilar “jadid”larga, qoloq, tor fikrlovchi johil ruhoniylar “qadimlar” guruhiga ajraladi.

Taraqqiyparvarlar onging o'sishi, dunyoqarashining yuksalishida Boqchasaroyda nashr etilgan “Tarjimon”, Qozonda chiqqan “Vaqt”, “Yulduz” jurnallari, Istambulda chop etilgan “Siroti mustaqim” (“To‘g‘ri yo‘l”) gazeta va jurnallari katta rol o‘ynadi. Turkiston jadidlarining eng yirik vakillaridan Munavvar qori Abdurashidxonxonov (1878-1929) o‘z xotiralarida shunday deb yozgan edi: “Chor hukumatini yo‘qotish jadidlarning tilagida bor edi. Siyosiy vazifamiz va maqsadimiz ham shundan iborat bo‘lishi yashirin emas”.

Jadidlar ongiga Rossiyadagi voqealar ham kuchli ta'sir qilganligini shu harakatning yetakchi rahbarlaridan bir Abdulla Avloniy (1878-1934) o‘z tarjimai holida shunday bayon qiladi: “1904-yilda rus – yapon urushi chiqib, bu urush butun Russiya ishchilarining ko‘zini ochg‘onidek, bizning ham ko‘zimiz ochildi. 1905-yildagi Rusiyada boshlangan inqilob to‘lqini bizga ham ta’sir qildi, bizning tashkilotimiz siyosiy maslaklarga tushunib, birinchi navbatda qora xalqni oqartmoq va ko‘zini ochmoq chorasiga kirishdi. Bu maqsadga erishmoq uchun gazet chiqarmoqni munosib ko‘rub, uyushmaning harakati bilan o‘zbek tilida gazetlar chiqarildi. 1906-yilda “Taraqqiy”, “Xurshid” gazetlari chiqib, eski hukumat tomonidan to‘xtatilg‘ondan so‘ng, 1907-yilda men o‘z muharrirligim bilan hamda temir yo‘l ishchilarining sotsial – demokrat firqasining aloqa va yordami bilan “Shuhrat” ismindagi gazetni chiqardim”¹.

Jadidlarning Turkiston ozodligi uchun kurash dasturida asosan uch asosiy yo‘nalish mavjud edi. Birinchisi – yangi usul maktablari tarmog‘ini kengaytirish, ikkinchisi – umidli yoshlarni chet ellarga o‘qishga yuborish va nihoyat, uchinchisi

¹ Туркистон матбуоти тарихи. Т.: Академия, 2000. Б. 105.

– turli ma'rifiy jamiyatlar tuzish hamda ziyolilarning kuchli firqasini tashkil etishga qaratilgan gazetalar chop etish edi. Ana shu dasturni amalga oshirish borasida Munavvar qori Abdurashidxonov, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Abdulhamid Cho‘lpon va Abdurauf Fitrat kabi ziyolilar jonbozlik ko‘rsatishdi¹.

1909-yilda Munavvar qori maslakdosh do‘stlari bilan hamkorlikda Toshkentlik bir boyning raisligida “Jamiyati xayriya” tashkil qiladi. Bu jamiyat raisining o‘rinbosari bo‘lgan Munavvar qori “Toshkentda musulmon jamiyati” maqolasida ana shu tashkilot faoliyati haqida bunday deb yozgan: “Yoshlarning sovuqqonlik va sabrliklari yaxshi natijalar berdi. Boylarning o‘zлari ittifoq bo‘lib, o‘z oralaridan faqat bir kishini rais va yana bitta jamiyat a’zosi berib, boshqa a’zolarining barchasini yoshlardan saylatdilar. Bu ittifoqning natijasi bo‘lsa kerak, Toshkent jamiyati shu yili butunlay boshqa tusga kirdi. Qonunda zikr etilgan moddalardan foydalanmakka shuru qildi, boshlab bir necha yildan beri qaror berilib ochilmay etgan “Dorul ojizin”ni rasman ochib, bir necha miskin va ojizlarni tarbiyaga oldi. Bir necha maktab va madrasalarga yuz so‘m va ikki yuz so‘mlab xayriyalar berdi. Bir necha beva va bechoralarga sadaqalar bermoqda va oltmish faqir va qashshoq bolalarni turli maktablarda o‘qitib, tarbiya qilib turmakdir. Jamiyatning yangi a’zolari pul topmakka ham yangi yo‘llar izladi. Dastlab “Gramofon jamiyati”da so‘ylashib, har bir plastinkadan o‘n tiyin olmoq sharti-la bir necha hofizlarni va o‘z tarbiyasidagi maktab shogirdlarini tovushini sotdi, bundan faqat shu yil ichidagina loaqlal ikki ming so‘m kirsa kerakdir”. Jadidlar bu jamiyat orqali qashshoq, kasalmand kishilar va o‘quvchilarga yordam ko‘rsatish bilangina cheklanmaydi. Ular Rossiya va Turkiya shaharlaridagi oliy o‘quv yurtlariga Turkiston yoshlarini bilim olishga yuborish ishi bilan ham jiddiy shug‘llandilar.

Munavvar qori Shayxovandtohur dahasidagi baobro‘ kishilardan Kattaxo‘ja Xo‘jayevning uyiga Toshkentning katta boylarini chaqiradi. Ana shu yig‘ilishda

¹ Абдурашидхонов М. Хотираларидан. Т.: Шарқ. 2001. Б. 80.

qatnashgan Abdurahmon Akbarov o‘z xotiralarida bu voqeanning butun tafsilotini shunday bayon qiladi: “Bu majlisda Toshkentning eng mashhur boyonlari yig‘ildilar. Jumladan, Orifxo‘jaboy, Saidkarimboy, Komiljonboy choyfurush, Asil oqsoqol, Boqijonboy va boshqalar. Hamma yig‘ilib bo‘lgandan keyin majlis ochilib, birinchi bo‘lib Munavvar qori so‘zga chiqdi. Munavvar qorining: “O‘zbek ziyoli bolalarini Germaniyaga yuborib o‘qitishga juda muhtojmiz, bolalar o‘quv, ilm, tahsil olib kelsalar, millatiga katta xizmat qila oladilar”, degan so‘zlar bilan uzoq nutq so‘zлади. Germaniyaga o‘qib kelish uchun boruvchilar shular ekan. Shayxovandtohur dahasidan Abdulvahob Murodiy, Beshyog‘och dahasidan ikki kishi: birinchisi – Chaqar mahallalik Muhammadjonov, ikkinchisi – Yalanqar mahallalik A’zam soatsoz o‘g‘li, jami 4 kishi ekan. Munavvar qori yana o‘rnidan turib “jamoat, mana bu yosh, o‘smir bolalarimizning Germaniyaga borib o‘qib kelishlari faqat siz boyonlarimizning yordami ostida vujudga chiqadi”, - deyishi bilan o‘tirgan boylarning biri uning qo‘liga anchagina pul berdi. Pul to‘planib sanab bo‘linganidan keyin Munavvar qori o‘rnidan turib: “Millatimizning kelajakdagi baxtu saodati uchun shunday katta himmatlaringizga ko‘pchilik tomonidan rahmatlar aytaman” deb tashakkur bildirdi”¹.

O‘zbek taraqqiyparvar boylari yoshlarni chet ellarga yuborib, zarur kasblarni egallab foydali xizmat qilishlari uchun qayg‘urgan jadidlarni qo‘llab-quvvatladilar. Andijonlik Mirkomil Mirmo‘minboev o‘z hisobidan ana shu ishga minglab so‘mlarni ayamadi. 1910-yili Buxoroda mudarris Hoji Rafiy, Mirza Abduvohid, Hamidxo‘ja Mehriy, Ahmadjon Maxdum, Usmonxo‘ja va Muhammaiddin Maxdum kabilar “”Tarbiyani atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) jamiyatini tashkil qilib 1911-yili 15, 1912-yili 30 nafar talabani Turkiyaga o‘qishga yubordi. Taniqli jadid Abdurauf Abdurahim o‘g‘lining 1909-1913-yillarda Stambulda tahsil olgani va shu erda o‘ziga “Fitrat”, ya’ni “Tug‘ilish” tahallusini qo‘ygani ham diqqatga sazovordir. Toshkentning “Qoryog‘di” mahallasidan bog‘bon Asadullaxo‘ja o‘g‘li Ubaydullaxo‘ja Rossiyada adliya bo‘yicha ta’lim olib qaytdi va birinchi oliy

¹ Бобобеков Х., Рахимов Ж., Содиков Х. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошлари). Т.: Ўқитувчи, 1994. Б. 192.

ma'lumotli o'zbek advokati bo'ldi. "Rossiya imperiyasi qonunlar majmuasi" ni yaxshi o'zlashtirgan Ubaydullaxo'ja adliya bo'yicha mutaxassis - advokat diplomini oladi. Rossiyada sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy voqealar, mafkura, g'oyaviy kurashlarni tushunishga intiladi. Uning 1909-yilda Lev Tolstoyga yozgan maktubi ana shundan dalolat beradi. Buyuk rus yozuvchisi juda ko'pgina muxlislarining xatlarini beoqibat qoldirgani holda o'zbek ziyolisini qiziqtirgan savollarga javob beradi¹.

1913-yilda Toshkentga qaytgan Ubaydullaxo'jani jadidlar quvonch bilan qarshilaydi. Tezda u taraqqiyparvar o'zbek ziyolilarining yetakchisiga aylanadi. Jadidlarning tarqoq guruhlari asta-sekin ma'lum dastur va harakat yo'nalishiga ega bo'lgan Ubaydullaxo'janing atrofiga uyushib, o'zbek ziyolilarining mustaqil firqasini tuzishadi. Bu firqa "Taraqqiyparvarlar" nomi ostida tarixga kirdi.

Ubaydullaxo'ja dastlabki qadamini umum Turkiston ijtimoiy-siyosiy gazetasini tashkil qilishdan boshladi. Bu haqda uni o'sha 1913-yildayoq alohida diqqatga sazovor shaxs sifatida ro'yxatga olgan Turkiston maxfiy siyosiy politsiyasi xabar topib unga qarshi zudlik bilan chora ko'radi. Gazetani chiqarmaslik uchun turli hiyla-nayranglar ishga solinadi. Ammo qonunchilikni yaxshi bilgan advokat barcha to'siqlarni yengib chiqarishga ruxsat oladi.

Turkiston general-gubernatori, kavaleriya generali Samsonov rasman ruxsatnoma bergen bo'lsa ham riyokorlik bilan gazetani chiqarmaslik uchun barcha bosmaxonalarga Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev buyurtmasini qabul qilmaslik haqida buyruq yuboradi. Ammo o'zbek milliy burjuaziyasi madadiga tayangan jadidlar ham bo'sh kelmay, mustaqil bosmaxona bazasini yaratishga kirishadi. Nihoyat bir yilgi harakatdan so'ng – 1914-yilda "Taraqqiyparvarlar" firqasining "Sadoi Turkiston" gazetasi dunyo yuzini ko'rdi.

Bu gazetada milliy ozodlik kurashiga ko'tarilayotgan Turkiston ziyolilari, jurnalist va adiblari o'zlarining yetuk maqola, hajviya, badiiy asarlarini e'lon qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Keng dunyoqarashli, bilimdon, dadil inson Asadullaxo'jayevdek muharririga ega bo'lgan "Sadoi Turkiston"ga o'zbek

¹ Ўзбекистон тарихи. 8-синф. Т.: Ўқитувчи. 1994. Б. 193.

adabiyotiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan yorqin iste’dod egalari Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza Hakimzoda Niyoziy, Lutfulla Olimiy, Abdulhamid Cho‘lpon va boshqalarning uyushgani tasodifiy emas edi.

“Sadoi Turkiston” o‘lkada milliy ongni uyg‘otishda, afkor ommaning istiqlol haqida o‘ylashida va uni mustabid tuzumga qarshi qo‘zg‘atishda katta xizmat ko‘rsatdi. Unda bosh muharrir Ubaydullaxo‘ja, bo‘lim mudiri Munavvar qori, Abdulla Avloniy. Tavallo, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Muzaffarzoda, Mirmuhsin Shermuhammedov, Shokirjon Rahimi, Nushravon Evushev, Mahmudxo‘ja Behbudiy va boshqa ijodkorlar Turkiston xalqlari tarixi, madaniyati va istiqboli haqida ko‘plab maqola, ocherk, hikoya va qissalarini e’lon qildilar. Mahmudxo‘ja Behbudiyning bir o‘zi 300 ta maqolalarini, Mirmuhsin Shermuhammedov esa 100 dan ziyod asarlar va maqolalarini shu gazetada chop etdi¹.

Munavvar qorining o‘tkir ijtimoiy-siyosiy maqolalari ham “Sadoi Turkiston” sahifalaridan o‘rin oldi. U har bir xalqning millat sifatida shakllanishining birinchi belgisi mazkur xalqda o‘zini tanishi va himoya qilish tuyg‘usining uyg‘onishi, milliy qadriyatlarni saqlash va taraqqiy ettirish, bu yo‘lda turli-tuman jamiyat va uyushmalarni tashkil etishda deb bildi. Munavvar qori tili bilan jadidlar “Bizim Turkiston mamlakati tufrog‘, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan bo‘la turib, na uchun o‘zimiz bundan foydalana olmaymiz?” deb nola qildilar va unga shu arbob tilidan javob berdilar: “Mana, ketma-ket yotgan bunday savollarga javob bermak uchun nodonlik va olamdan xabarsizlik, demakdin boshqa chora yo‘qdir. Bu nodonlik va dunyodan xabarsizlik balosidan qutulmoq uchun avval oramizda hukm surgan buzuq odatlarning buzuqligini bilmak va o‘rganmak kerakdir”.

1913-yilda Munavvar qori Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Abdulla Avloniy, Ilhomjon Inog‘omov, Qobilbek Norbekov, To‘lagan Xo‘jameroval (Tavallo), Muhammad Poshshoxo‘jayev, Toshpo‘lat Norbo‘tabekov va Nizomiddin Xo‘jayevlar bilan birgalikda “Turon” jamiyatini tashkil qildi. Bu

¹ Туркистон матбуоти тарихи. (1870-1917). Т.: Академия, 2000. Б. 148.

jamiyat nizomida shunday qoida bor edi: “Xalq orasida sahna ishiga hamda xayriyaga jiddiy muhabbat uyg’otish, xalq urchun spektakl qo‘yib, sog‘lom tomosha ko‘rsatish, Turkiston hududida yashovchi muhtoj musulmonlarga moddiy yordam berib, ma’naviy va moddiy jihatidan yaxshilash”.

1914-yil 27-fevralda Toshkentdagি Kolizey teatri binosida o‘zbek milliy teatrining birinchi rasmiy mavsumi ochildi. Spektaklni tashkil etgan jadidlarning sardorlari Munavvar qori, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev, Nizomiddin Xo‘jayevlar teatr rejissyori Zoki Boyazidskiy-Valeevlar rahbarligida Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi tomoshbinlarga ko‘rsatildi. Tantanali ochilish marosimida Munavvar qori teatrni xalq dardiga davo beruvchi tabibga o‘xshatib ta’sirli nutq so‘zлади. Spektakl katta muvafaqqiyat qozondi. Buning shunchaki madaniy tadbirdina bo‘lib qolmay, katta siyosiy ahamiyatga molik ish bo‘lganligi haqida Abdulla Avloniy esdaliklarida shunday deydi: “1913-yildan boshlab xalqning ko‘zini ochmoq, madaniyatga yaqinlashtirmoq urchun teatr ishlariga kirishib Toshkentda bir necha marotaba teatr o‘ynag‘ondan so‘ng butun Farg‘onani aylanib, har bir shaharda bir necha marotabadan teatr o‘ynab qaytdik. Bu vaqtarda bizning maqsadimiz zohirda teatr bo‘lsa ham botinda Turkiston yoshlarni siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi”.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” pyesasi butun bir siyosiy oqim-jadidlarning muxoliflar tomonidan “padarkushlar” deb atalishiga olib keldi. Jadidlarni rus mustamlakachilari johillar, bid’at va xurofot bandalari degan tahqirli nom bilan atashni odat qildilar.

Turkistonda jadidlarning mavqeい ko‘tarilib yangi-yangi jamiyatlar tashkil topa boshladi. Qo‘qonda “G‘ayrat”, Andijonda “Taraqqiyatparvar” kabi jamiyatlar tuzildiki, ularning faoliyatida ilg‘or rus demokratiyasi vakillari ham ishtirok qila boshladi.

Jadidlar birinchi jahon urushi yillarida o‘z faoliyatlarini keng avj oldirib yubordilar.

III bob. Birinchi jahon urushi arafasida Xiva xonligi va Buxoro amirligida islohotchilik harakatlari

3.1. Xiva xonligida islohotchilik harakatlarining asosiy yo‘nalishlari hamda mohiyati

Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga aylanganiga qaramay uning davlat boshqaruv tizimi, soliq tizimi, yer egaligi, majburiyatlar o‘zgarmay qolgan edi. Bu sohalar Said Muhammad Rahimxon I davrida joriy etilgan shaklda saqlanib qolgan edi. Biroq xonlikda iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda o‘zgarishlar ro‘y berib, yangi islohotlar o‘tkazish zaruriyati paydo bo‘ldi. mavjud tartib qoidalar o‘z davrini o‘tab, endilikda jamiyat taraqqiyotiga to‘sinqilik qilmoqda edi. Bular ayniqsa quyidagi sohalarda yaqqol namoyon bo‘la boshladи:

- Yer egaligi, soliq tizimi va majburiyatlar. Xiva xonligida soliq to‘lovchilar uch guruhga bo‘lingan edi. 10 tanob yeri bo‘lib birinchi guruhga kirgan odamlar 10 tanobdan ortiq yeri bo‘lishiga qaramasdan uch tilla soliq to‘lashi kerak edi. Ikkinci guruhga 5 tanobdan 10 tanobgacha yeri bo‘lgan odamlar kirgan. Ular ikki tilla soliq to‘lashgan. Uchinchi guruhdagi 5 tanobgacha yeri bor odamlar bir tilla tanga hisobida soliq to‘lashi lozim edi. Shunday qilib amalda birinchi 11 tanobgagina soliq olingan. Mavjud soliq tizimi bundan katta yer egalariga soliq solishni nazarda tutmagan. U amalda yirik yer egalarini soliqdan ozod qilar edi. Soliq to‘lashdan quyidagi yer egalari ozod etilgan edi:

1. Xonning oila a’zolari va qarindoshlari.
2. Oqsoqollar, beklar, ruhoniyalar.
3. Davlat amaldorlari navkarlar, yuzboshi va boshqalar.
4. Xon va uning qarindoshlariga xizmat qiluvchi mulozimlar.
5. Vasiylari bo‘lmagan 13 yoshga to‘lmagan yetimlar¹.

Soliq yig‘ish paytida yerlarning unumдорлиги, suv bilan qay darajada ta’minlanganligiga e’tibor berilmas edi. Daromadning asosiy manbai bo‘lgan soliqqa asoslangan xon xazinasi amaldorlar va saroy ahlini boqishga, Rossiya

¹ Йўлдошев М.Й. Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. Т.: Ўздавнашр. 1959. Б.191.

amaldorlariga pora berishga sarflanar edi. Mamlakatdagi ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarga xonlik xazinasidan mablag‘ ajratilmas edi.

Xonlikdagi sug‘orish tarmoqlarini ta‘minlashda majburiyatni amalga oshirish ham soliq tizimi kabiadolatsiz tashkil etilar edi. Soliq to‘lashdan xalos etilganlar majburiyat o‘tashdan ham ozod etilganlar. Majburiyat o‘tashga jalg qilinganlar qazuv boshlanganligi haqida xabar bergan amaldorlarga “afanak puli”, “ko‘nik puli” va boshqa bir qancha to‘lovlar yig‘ib berardilar.

Xiva xonligida mavjud ko‘plab kanallar ustiga qurilgan ko‘prik hamda yo‘llarning holati juda yomon edi. Bu esa xonlik shaharlari o‘rtasida bo‘ladigan savdo-sotiq va boshqa aloqalarni olib borishda katta qiyinchiliklarni tug‘dirardi.

XX asr boshlarida xonlikda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar natijasida davlat boshqaruvi, savdo-sotiq va boshqa sohalarda zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan kishilarga ehtiyoj sezilmoqda edi. Mavjud eski usul maktablari va madrasalari bunday kishilarni etkazib berish imkoniyatiga ega emasdilar.

Xiva xonligida zamonaviy tibbiyot mavjud emasligi sababli aholi turli kasalliklardan aziyat chekar edi. Davolash ishlari bilan maxsus tibbiy ma’lumotga ega bo‘lmagan mullalar, mahalliy tabiblar, folbinlar, sartaroshlar shug‘ullanganlar.

Xiva xonligida uzoq davrlardan beri amal qilinib kelayotgan mazkur soliq, davlat boshqaruvi, ta‘lim tizimlari eskirib, o‘z davrini o‘tab bo‘lgan edi. Bu tizimlar va boshqa sohalardagi tartib qoidalar endilikda xonlikda savdo-sotiq, sanoat va umuman iqtisodiy rivojlanishga hamda xalqning turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda edi.

Ilg‘or fikrli kishilar Xiva xonligida islohot o‘tkazish zarurligini tushunib yetgandilar. Bu masala Rossiya hukmron doiralarida ham tez-tez tilga olina boshlangan edi. Ular o‘z manfaatlari nuqtai-nazaridan kelib chiqib xonlikda islohot o‘tkazishni ko‘zlardilar. Biroq, birmuncha mustaqil fikrga ega bo‘lgan Said Muhammad Rahimxonning mamlakatda keskin o‘zgarishlar qilishga undash ancha mushkul edi. Shu sababdan ham mustamlakachilar Xiva taxtiga o‘zlarining buyruqlarini so‘zsiz bajaradigan xon chiqishini kutishga majbur bo‘ldilar.

Said Muhammad Rahimxon 1902-yilda Turkiston general-gubernatori N.A.Ivanov Xivaga kelganda unga bemorligi va kasalligini hisobga olib, o‘g‘li Asfandiyor to‘ra foydasiga taxtdan voz kechmoqchilagini bildiradi. General N.A.Ivanov mamlakatda bir paytda ikki xonni mavjud bo‘lishi vaziyatni chigallashtiradi deb, xonga o‘z o‘rnida qolib, davlat boshqaruvida barcha ishlarni o‘g‘liga topshirishni taklif qiladi. Said Muhammad Rahimxonni betob bo‘lib, davlat ishlari bilan avvalgidek faol shug‘ullana olmayotganidan foydalangan Asfandiyor va ayrim amaldorlar o‘zboshimchalik qilishni, xalqqa jabr zulmi ostida shunday ham huquqsiz va qoloq ahvolda yashayotgan Xiva xonligi aholisi hayotini yanada og‘irlashtirib yubordi. Xalq kun sayin qashshoqlashib, yurtda norozilik kayfiyati o‘sib bordi. Ayniqsa turkmanlar va qozoqlar soliq to‘lashdan bosh tortib, mansabdor shaxslarning o‘zboshimchaligidan norozi bo‘lib tez-tez g‘alayon qilib turardilar. Amaldorlar va hatto taxt vorisi Asfandiyor ham Said Muhammad Rahimxonni mamlakatdagi haqiqiy ahvoldan xabardor qilmasdilar yoki unga noto‘g‘ri ma’lumot berardilar. Taxt vorisi etib tayinlangan Asfandiyorning esa oddiy xalq nazarida va hatto amaldorlar o‘rtasida ham obro‘sí yo‘q edi. Asfandiyor irodasiz, johil, davlat ishlaridan ko‘ra ko‘proq o‘z huzur halovatini o‘ylaydigan kishi edi. Xiva taxtiga bunday kishini chiqishi Rossiya mustamlakachilar uchun ayni muddao edi. Chunki xonlikda mustamlakachilik siyosatini yuritishda ularning ko‘rsatmalaridan chetga chiqmaydigan xon kerak edi. Bu haqda Turkiston general-gubernatori huzuridagi diplomatik amaldor Minorskiy shunday yozadi: “Asfandiyor to‘ra hatto Sharq nuqtai nazaridan qaraganda ham nisbatan kam ma’lumot olgan. Agar xonlik taxtiga o‘tirsa, buni hech qanday xavfli joyi yo‘q deb hisoblayman. Aksincha, uning zaifligi va ahamiyatsizligi biz uchun qulay sharoitlar yaratadi”¹.

Rossiyaning hukmron doiralari Xiva xonligini davlat sifatida tugatib, imperiya tarkibiga qo‘shib olish niyatida edilar. Bu masala yuqori doiralarda bir necha bor atroflicha muhokama qilindi. Ana shu muhokamalarda Xiva xonligining iqtisodiy qoloqligi, temir yo‘l yetib bormaganligi, aloqa yo‘llarining yomon

¹ История Хорезма с древнейших времен до наших дней. Т.: Фан. 1977. С.280.

ahvoldaligi va boshqa bir qancha sabablarga ko‘ra bu ishni birdaniga amalga oshirish iqtisodiy jihatdan zarar degan xulosaga kelindi. Shuning uchun Xiva xonligini Rossiya guberniyalari qatoriga qo‘shib olishga tayyorlashga qaror qilindi.

Said Muhammad Rahimxonning salomatligi og‘irlashib, xonlik taxtiga Asfandiyorni chiqishi aniq bo‘lgach, bu masala yanada dolzarb bo‘lib qoldi. Rossiyaning Turkistondagi ma’murlari bo‘lg‘usi xon amalga oshirishi kerak bo‘lgan islohotlar rejasini tayyorlay boshladilar.

1910-yillik avgustda Said Muhammad Rahimxon vafot etdi. Asfandiyor to‘ra taxtga chiqdi. Rossiya hukumati Asfandiyorni Xiva xoni deb tan olishdan avval unga mamlakatda ba’zi bir sohalarda islohot o‘tkazishni shart qilib qo‘ydi.

1910-yil sentyabr oyi boshlarida Turkiston general-gubernatori Samsonov rahbarligida bo‘lib o‘tgan majlisda quyidagi islohotlar rejasi ishlab chiqildi:

- 1). Xiva pul birliklarini muomaladan butunlay chiqarib, rus pul birliklarini joriy etish;
- 2). Katta shaharlarda pochta-telegraf bo‘limlarini tashkil etish;
- 3). Butun xonlikda yagona o‘lchov birliklarini joriy etish;
- 4). Rus tuzem maktablari ochish;
- 5). Davlat yerlarini turli shaxslarga katta miqdorda in’om etishni to‘xtatish;
- 6). Amaldorlarga aniq belgilangan maosh tayinlash va yana bir necha masalalarni hal etish Asfandiyorxonidan talab qilindi¹.

Ushbu islohotlar rejasida ayrim sohalarda ijobjiy ishlarni amalga oshirish nazarda tutilgan bo‘lsada, u aslida xonlikda ruscha idora usuliga sharoit yaratish maqsadini ko‘zlab ishlab chiqilgan edi.

Islohotlar rejasining asosiy qismi Asfandiyorxon tomonidan qabul qilindi. Xon huzuridagi kengashda bevosita xon va Rossiya vakillari ishtirokida amalga oshirish kerak bo‘lgan masalalar muhokama etildi. Islohotlar rejasini tuzish katta lavozimdagи amaldorlardan Said Islomxo‘ja va Husaynbek Devonbegilarga topshirildi. Ular Turkiston general-gubernatorligi amaldorlari Rasulev va polkovnik Asfandiyorovlar bilan birgalikda o‘zbek tilida o‘n banddan iborat

¹ Ўзбекистон ССР тарихи. Иккинчи том. Т.: Фан. 1971. Б. 406.

islohotlar rejasini tuzib chiqdilar. Asfandiyorxon o'tkaziladigan islohotlar haqida aholiga manifest e'lon qiladi¹.

Islohotlar rejasini birinchi bandi xon amaldorlari, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslarga aniq maosh tayinlashga bag'ishlangan edi. Bungacha ular xazinadan aniq belgilangan maosh olmasdilar. Ayrim hollarda xondan pul, sarpo, yer shaklida in'om olib tursalarda, asosiy daromadni o'zлari egalik qilayotgan katta miqdordagi yerlardan soliq to'lamaslik orqali olar edilar. Yangi tartibga binoan esa yer miqdoriga qarab barchadan teng soliq olinadigan bo'ldi. Islohotlar rejasida 12 kunlik mehnat majburiyati – begarga katta e'tibor berilgan bo'lib, eng avvalo yirik irrigatsiya tarmoqlarini ta'mirlash ishlari ko'zda tutilgan edi. Begarni o'tash uchun yig'ilgan odamlardan pul olish, amaldorlarning uylarini qurishda, yerlariga suv olib keladigan ariqlarni ta'mirlashda ularning mehnatidan foydalanish ta'qilganadi. Begarni o'tovchilarga kunlik mehnat haqiga xazinadan ikki tangadan to'lanadigan bo'ldi.

Shuningdek, mehnat majburiyatini o'tashda xon qarindoshlaridan boshqa aholining barcha tabaqalari, shu jumladan, ruhoniylar va mansabdor shaxslarning qatnashishi ham shart qilib qo'yildi. Shu bilan birga islohotlar rejasida bozorlarda zakot yig'imlari olishni tartibga solish, yo'l va ko'priklarni yaxshilash, vaqf mulkleridan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish, katta shaharlarda zamonaviy kasalxonalar qurib, Rossiyadan vrachlar taklif etish, pochta-telegraf tashkil etish, geografiya, tarix, rus tili va islom dini asoslar o'qitiladigan yangi usul mакtablarini ochish kabi masalalar bayon qilingan edi. Shovot, Polvon va G'azovot kabi katta kanallarga temir ko'rik qurish ko'zda tutilgan edi².

Islohotlarning boshlanishi va tugash muddati ko'rsatilmagan edi. Islohotlarni amalga oshirishda rahbarlik davlat boshqaruvida katta tajribaga ega bo'lgan va rus tilida erkin gaplasha oladigan, taraqqiyat parvar davlat arbobi Said Islomxo'ja (1870-1913)ga topshirildi. Said Islomxo'ja Said Muhammad Rahimxon (1864-1910) va Asfandiyorxon (1910-1918) davrida bosh vazir – vaziri akbar lavozimida xizmat

¹ Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хорезмского ханства конца XIX – начало XX века (1873-1917 гг.) Л.: Изд-во ЛГУ. 1968. С.72.

² Ўзбекистон тарихи. Иккинчи том. Т.: Фан, 1971. Б. 408.

qildi. U xonlikni ijtimoiy va madaniy hayotidagi bir qancha ilg‘or o‘zgarishlarning tashabbuskori edi. Islomxo‘ja islohot o‘tkazishni faol tarafdori bo‘lib, dasturda belgilangan tadbirlarni amalga oshirishda jonbozlik ko‘rsatdi. U Xiva xonligida XX asr boshlarida vujudga kelgan taraqqiyparvarlik harakatini yetakchilaridan biri edi. Taraqqiyparvarlar istibdod, qoloqlik, zulm va zo‘ravonlikka chek qo‘yib, mamlakatni taraqqiy etirish, xalq ahvolini yengillashtirish kabi talablar bilan chiqa boshladilar. Ular ham islohot tarafdori edilar. Biroq taraqqiyparvarlar bilan mustamlakachi hukumatning islohotlarini amalga oshirishdan ko‘zlagan maqsadlari boshqa-boshqa edi. Taraqqiyparvarlarning maqsadi xonlikni zamonaviy davlatlar darajasiga chiqarish bo‘lsa, mustamlakachilarning maqsadi rus savdosotiq doiralariga qulay sharoit yaratish, xonlikni Rossiya tarkibiga qo‘sib olishga tayyorlash edi.

Islomxo‘ja boshchiligidagi islohotlarni amalga oshirish ishlari boshlanib ketdi. Joylarda yerlarni o‘lchash bo‘yicha beklik komissiyalari tuzildi. Beklik komissiyalari Yangi Urganch, Xazorasp va Xivada xo‘jaliklar holatini aniqlash bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdi. Xon xazinasi hisobidan telegraf, pochta stansiyasi qurildi. Nurillaboy saroyida Yevropa – Xiva uslubida yozgi qabulxona, uni yoritish uchun birinchi elektr stansiyasi qurildi¹.

Shovot, Polvon va G‘azovot kabi yirik kanallarga temir ko‘priklar qurila boshlandi. Said Islomxo‘ja xonlik xazinasi daromadini ko‘paytirish uchun soliqlarni tartibga solish maqsadida aholini ro‘yxatga olish ishlariga tayyorlana boshlaydi.

1910-yil Asfandiyorxon yaqin mulozimlari bilan Peterburgga safar qiladi. U o‘zi bilan birga Rossiya podshosiga qimmatbaho sovg‘alar va yana aholidan yuz ming so‘m yig‘ib, olib boradi. Tadbirkor bo‘lgan Islomxo‘ja Rossiya podshosi Nikolay II ga ana shu pulga Xiva shahrida uning o‘g‘li Aleksey nomiga kasalxona qurishni taklif qiladi. Podsho Islomxo‘jani taklifini ma’qullab, Xivada 50 o‘rinli kasalxona qurishni buyuradi.

¹ Каюмов М.Общественно – политические процессы в Хивинском ханстве вторая половина XIX – XX вв. Автореф. Дисс. На соискание кандидата исторических наук. Т.: 2005. С.16.

Said Islomxo‘ja kasalxona binosi rejasini Rossiyada chizdirib kelib, qurilishni boshlaydi. 1912-yilda 50 o‘rinli erkaklar uchun, 25 o‘rinli ayollar uchun kasalxona bitkizilib, ishga tushadi¹. Rossiyadan kasalxonada ishlash uchun bir ayol va bir erkak vrach taklif qilinadi. Ichan qal’a muzeyi fondida vrach A.F.Anisimov bilan Xiva xukumati nomidan Said Islomxo‘ja o‘rtasida tuzilgan 8 banddan iborat shartnomaga matni saqlanmoqda. Shartnomaga bandlariga ko‘ra vrach Anisimov o‘z zimmasiga davolash ishlarida Xiva xukumati talablarini bajarish, xon amaldorlaridan birortasi og‘ir kasal bo‘lsa, uning uyiga borib davolash singari bir qator majburiyatlarni oladi.

Xiva xukumati esa vrachga faoliyat olib borishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berish majburiyatlarini oladi. Bu kasalxonada avvalo amaldorlar, so‘ngra oddiy xalq ham davolanish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Vrachlar xalq orasida katta hurmatga sazovor bo‘lishgan. Uzoq vaqt Amudaryo bo‘limi boshlig‘i vazifasida ishlagan N.Likoshin bu haqda shunday yozadi: “Shifokor Anisimov a’lo darajada davolay oladi. Jarrohlik amaliyotlarini muvaffaqiyatli bajaradi. Shu sababli, tez orada xalq orasida katta ishonchga sazovor bo‘ldi. Uning shifoxonasida uch oy mobaynidagi 10909 nafar bemor davolandi. Ulardan 4747 nafari ayollar edi.” Bu kasalxona haqidagi Xiva tarixchisi Bayoniy “tamomi xaloyiq xushxol bo‘lib, erkak va ayollar bemor bo‘lsa, kelib shifo topib ketar edi” – deb yozgan edi.

Islohotlarni amalga oshirishga katta yer egalari bo‘lgan bir qancha amaldorlar qarshilik qildilar. Ayniqsa, xonlikdagi yerlarni hisoblab chiqish va avvalgi soliq tizimini o‘zgartirib, yer egaligini har qanday shaklidan qat’i nazar, navkarlardan tashqari barchadan teng soliq olish haqidagi rejalar katta yer egalarida kuchli norozilik uyg‘otdi. Chunki ular ilgari katta yer maydonlariga egalik qilgan holda davlat xazinasiga soliq to‘lamas edilar. Said Islomxo‘janing bu haqida Amudaryo bo‘limi boshlig‘iga yozgan maktubida shunday deyiladi: “Biz amalga oshirayotgan islohotlar avvalgi xon davrida katta yerlarni egallab olgan amaldorlar manfaatiga zid keladi. Shu sababli norozi bo‘lgan amaldorlar

¹ Каюмов М. У. Общественно-политические процессы в Хивинском ханстве второй половины XIX – начало XX в. Автореферат диссертации кандидата ист. наук . Т.: 2005. С. 16.

tomonidan bir qancha maxfiy yig‘inlar o‘tkazilib, unda xalqni islohotlarga qarshi qo‘zg‘atishga qaror qilingan”¹. Fitna uyushtirishga harakat qilgan bir nechta yuqori lavozimli amaldorlar hibsga olinib, ularning mol-mulki musodara qilindi. Keyinchalik rus ma’muriyatining aralashuvi bilan ular ozod etildilar.

Islohotlar rejasiga binoan turkman dehqonlari avvaldan to‘lab kelgan soliqqa ikki tanga, paxtachilik bilan shug‘ullanuvchi o‘zbek dehqon xo‘jaliklari to‘laydigan soliqqa besh tanga qo‘shilishi ularda ham norozilik uyg‘otdi. Islohotlarga nisbatan Asfandiyorxonning ham munosabati salbiy edi. U xonlikda o‘zgarishlar qilishga “Rusiya hukumatining ma’qul qo‘rg‘onig‘a muvofiq” va Said Islomxo‘janing bevosita ta’siri ostida rozi bo‘lgan edi. Bu haqida “Turkestanskiy kurer” gazetasi 1911-yil 17-aprelda shunday yozadi: “Yangi xon xalqning ahvolini yaxshilashga befarq qaraydi. Agar bu sohada biror bir ish qilinayotgan ekan, bu faqatgina rus hukumatining tazyiqi ostida bo‘lmoqda. Kimdir gazetada xonni taraqqiyot tarafdori sifatida ta’riflamoqda, biroq bu haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi”.

Said Islomxo‘ja o‘zining saroyida tutgan mavqeidan foydalanib, Asfandiyorxonga xazinadagi pullarni behuda sarflashga yo‘l qo‘ymadi, unga o‘z ehtiyojidan ziyod pul berdirmadi, maishat, ichkilikbozlik qilishdan qaytardi². Hatto bir safar Asfandiyorxon amaldorlardan biriga besh yuz tilla hadya qilgani haqida xabar topib, Said Islomxo‘ja hadya olgan amaldorni huzuriga chaqiradi va pulni qaytarib olib, xazinaga topshiradi. So‘ngra saroyga borib, xonga “davlat muhim ishlarini amalga oshirish uchun pulga muhtoj bo‘lib turgan bir paytda bunday katta miqdorda pularni hadya qilishingiz yaxshi emas” deb tanbeh beradi. Bu esa Asfandiyorxonni qattiq g‘azablantiradi, ikki o‘rtada janjal chiqib, o‘zaro munosabat keskinlashadi.

Islohotlarni amalga oshirish jarayonida Said Islomxo‘ja bilan konservativ kuchlar va xon o‘rtasida vujudga kelgan o‘zaro ziddiyatlar Said Islomxo‘jaga suiqasd uyushtirilib, 1913-yil 9-avgustda o‘ldirilishiga olib keldi³. Uning o‘limida

¹ Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хивинского ханства конца XIX и начала XX века (1873-1917 г.г.). Л.: Изд-во. ЛГУ. 1968. С. 72.

² Юсупов П. Ёш хиваликлар тарихи. Урганч. 2000. Б. 59.

³ Каюмов М.У. Ко‘satilgan avtoreferat. Б. 17.

Asfandiyorxonning qo‘li borligini rus arxiv manbalari va mahalliy qo‘lyozma manbalarida ham ta’kidlab o‘tiladi. Islomxo‘janing yaqin kishilari, qarindosh urug‘larini xon ta’qib ostiga oladi. Islomxo‘ja tomonidan tayinlangan Shovot, Gurlan, Manoq, Taxta beklari va Darg‘on ota noibi vazifasidan bo‘shatildi. Qotillarni izlashga qat’iy kirishgani uchun ukasi Isoqxo‘janing yigirma besh ming tanob yeri tortib olindi. Asfandiyorxon tomonidan Dishan qal’ada Islomxo‘ja quadirgan madrasa buzdirib tashlandi. Madrasa rejasini xon o‘zi tasdiqlagan va qurilishni boshlashga buyruq bergan edi. 1911-1913-yillar davomida qurilgan mazkur madrasaga oddiy xalqning mehnatidan tashqari 190 ming so‘m sarflangan edi. Islomxo‘ja o‘limidan so‘ng Asfandiyorxon madrasani borib ko‘radi va “yorashimliq bo‘lmagan” deb, buzishga buyruq beradi. Madrasani butunlay yer bilan tekis qilib buzib, boshqa ishlarga yaramasin deb g‘ishtlarini ham maydalab tashlaydilar. Asfandiyorxon madrasaga sarf bo‘lgan pullarni Islomxo‘janing o‘g‘li Abdusalomxo‘jadan to‘latib oladi.

Islomxo‘ja boshlagan ishlar bajarilmay qolib ketdi. Temir yo‘llar, ko‘priklar qurilmay qoldi. Xonlikdagi erlarni hisoblash to‘xtatildi. Bu ishlar bilan Islomxo‘ja o‘limidan so‘ng hech kim shug‘ullanmadni. Said Islomxo‘ja Asfandiyorxon taxtga chiqqan davrdan boshlab faol harakat qilib, mamlakat farovonligi yo‘lida jon kuydirdi. Said Islomxo‘ja tajribali va taraqqiyat parvar davlat arboblaridan bo‘lib, Xiva xonligini ilg‘or davlatlar darajasiga ko‘tarish uchun ko‘p harakat qildi. U xonlikni jaholat va qoloqlikdan qutqarish uchun chuqr islohotlar boshlashga intilayotgan edi.

Shunday qilib asr boshlarida Rossiyaga qaram bo‘lgan Xiva xonligi davlat boshqaruvi, soliq, maorif tizimi, sog‘liqni saqlash va boshqa sohalarda o‘rta asrlar darajasida qolgan bo‘lib, xonlik ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda boshqa sohalarda jahon taraqqiyotidan ortda qolgan edi. Bu davrda xonlikda rivojlangan davlatlar qatoriga olib chiqishga harakat qildilar.

Mustamlakachi hukumat ham islohot tarafidori edi. Biroq islohotlarni amalgalashirishdan ularning ko‘zlagan maqsadi butunlay boshqa edi. Mustamlakachilar uchun islohotlar xonlikni davlat sifatida tugatib, imperiya tarkibiga qo‘shib olishga

tayyorlash uchun kerak edi. Islohotlarni amalga oshirish jarayonida soliq tizimini tartibga solish, majburiyatlar, aloqa, maorif, sog‘liqni saqlash sohalarida bir muncha o‘zgarishlar qilindi. Islohotlar tashabbuskori Islomxo‘ja bu o‘zgarishlardan norozi bo‘lgan kuchlar tomonidan o‘ldirilgandan so‘ng boshlangan ishlar to‘xtab qoldi. Shunga qaramay islohot rejasida belgilangan ishlarni amalga oshirishda qilingan o‘zgarishlar Xiva xonligi hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

3.2. Buxoro amirligida ijtimoiy – iqtisodiy hayot, xalqning ahvoli. “Yosh buxoroliklar” harakati

Ma’lumki XX asr boshlariga kelib Buxoro amirligida ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar bo‘ldi. Masalan, iqtisodiy, savdo, madaniy, maishiy sohalarda ma’lum o‘zgarishlar yuz bera boshladи. Iqtisodiy sohada paxta yetishtirish va uning xom ashyosini Rossiyaga jo‘natish bo‘yicha Buxoro Farg‘ona viloyatidan keyin ikkinchi o‘rinda turardi. Buxorodan Rossiyaga chiqarilayotgan mahsulotning 40 foizini paxta tolasi tashkil qilar edi. Agar bosib olingunga qadar Buxoro amirligi imperiya to‘qimachilik markazlariga 50 pud paxta tolasi jo‘natgan bo‘lsa, XX asrning boshlariga kelib bu ko‘rsatkich 1200 ming pudni tashkil qildi¹.

Rossiyaga paxtadan tashqari qorako‘l, jun, gilam, pilla va xokazolar chiqarildi. Vassalikning dastlabki yillarida 30-40 ming dona qorako‘l teri chiqarilgan bo‘lsa, 1914-yilda esa bu 1.800 ming donaga yetib, 42 foizini tashkil qildi.

Shuningdek, ko‘p miqdorda jun, pilla, quruq meva, mayiz kabi mahsulotlar chiqarilib, ularning miqdori 3 mln. 306 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 1900-yilda Rossiyadan Buxoroga 23 mln. 700 ming so‘mlik, 1913-yilda esa 35 mln. 344 ming so‘mlik mahsulotlar keltirildi. Ana shu miqdordagi mahsulotlarning hammasi Rossiya-Buxoro qo‘shma vositachilik kontoralari va kommersiya korxonalari tomonidan oldi-sotdi orqali bajarildi.

¹ Каримов Ш. Шамсутдинов Р. Туркистон Русиё босқини даврида. Андижон. Мерос. 1995. Б. 51.

Buxoro xonligida to‘rtta transport jamiyatি (“Sharqiy jamiyat”, “Aksionerlik jamiyat”, “Gergard va Gey jamiyat”, “Kavkaz va Merkuriy jamiyat”) va uchta sug‘urta jamiyatи ish olib borar edi. Ular Rossiyaning savdo-sanoat burjuaziyasi va Buxoro savdogarlariga xizmat qilardi.

Buxoro mahalliy burjuaziyasi tovarlarni sotishda vositachilik xizmatini bajarar edi. XX asr boshlarida amirlikda kapitalistik, ya’ni yollanma mehnatga asoslangan sanoat korxonalari vujudga keldi. 1905-yilda amirlikda 2 mln . 500 ming pud paxtani qayta ishlovchi 9 ta paxta tozalash zavodi mavjud edi.

Birinchi jahon urushi arafasida Buxoroda 50 dan ortiq korxona bo‘lib, ularning salkam 30 tasi paxta tozalash zavodlari edi. Ular ko‘pincha amirlik hududining rus aholisi yashaydigan manzillarida qurilgan edi. Mahalliy aholidan yetishib chiqqan kishilar amirlikda faqat 0,2 foizni tashkil qilardi.

Ishchilar nihoyatda og‘ir sharoitda mehnat qilar va kun kechirardi. Ish haqi juda past, ish soati kuniga 12-14 soatga cho‘zilardi. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab ishlab chiqarish vositalari past darajada bo‘lgani sababli juda katta yer osti boyliklari foydalanimay yotardi.¹

Muhandis Jurovko Pokorskiy Safid daryosi bo‘ylaridagi oltin konlarini qazish uchun amirlikdan ruxsat oladi. Qazib olingan oltinning barchasi Buxoro hukumatiga topshirilishi kerak edi, aslida buning aksi bo‘ldi. Faqat har misqol qazib olingan oltin uchun 5 so‘m 52 tiyindan haq to‘lardi. Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, chorizm Buxoroni mustamlakasiga aylantirgani holda uning oltin konlarini zo‘ravonlik bilan tortib olmadi. Ammo sho‘ro mustamlakachiligi bu jihatdan chorizmni ham dog‘da qoldirib, o‘zbek xalqining eng muhim boyliklari bo‘lgan paxta, ipak, qorako‘ldan ham qimmat turuvchi ma’dan konlaridagi eng noyob boyliklarni Markazga tashib ketdi va qancha miqdorda olib ketganligini o‘zbek xalqidan sir saqladi. Bunday zo‘ravonlik xali dunyo mustamlakachilik tarixida yagona hisoblanadi. Uzoq yillar buadolatsizlik davom qilib, xalqimizning nasibasi ana shu tariqa qirqib tashlangan edi. Kapitalizmning Buxoro amirligi iqtisodiy hayotiga kirib kelishi 1894-yilda yangi Buxoroda Davlat banki

¹ Зияев X.3. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. Т.: Шарқ. 2006. Б. 202.

bo‘limining ochilishiga sabab bo‘ldi. 1915-yilda davlat banklaridan tashqari xususiy banklar bo‘limlari (tashqi savdo uchun rus banki, Rus-Osiyo hisob banki, Azov-Don kommersiya banki, Sibir savdo banki, birlashgan va Volga-Kaspiy kommersiya banklari) ham ochildi¹. Buxoro amirligida xalqning turmush darajasi pasayib bordi. Rus burjua savdo-sanoat doiralari bilan endigina vujudga kelayotgan mahalliy savdo burjua vakillari foyda ketidan quvib, xalqni talashni davom ettirdilar.

Paxta va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan shug‘ullanuvchi savdo uylari va tayyorlov firma hamda kontoralari yiliga 12 foiz evaziga mahalliy tarozidorlarga qarz berar, tarozidorlar esa har oyiga 1 so‘m ustama foydasi bilan kelasi yil paxta hosili uchun 15 so‘mdan dehqonlarga bo‘nak tarqatar, natijada yil oxirida katta foyda olar edi. Bo‘nak puli dehqonlarga asosan baxorgi ekish paytida berilar edi. Bu pulni olgan dehqon eri va mulkini garovga qo‘yardi, qozi esa uni tasdiqlab qozi xati berar edi. Bo‘nak pulini dehqon qaysi tarozidordan olsa, faqat o‘z mahsulotini o‘sha qarz bergan torozidorga topshirishga majbur edi. Torozidor dehqon mahsulotini ataylab bozor bahosidan ancha kam haq to‘lab sotib olar, ko‘pincha pul o‘rniga gazlama, choy, sovun, kerosin va shu kabi sanoat mollari berib, unda ham dehqonlardan urib qolish odatiy holga aylangan edi. Ayni vaqtida o‘sha sanoat mollari bozor bahosidan 25 foiz qimmat narxda berilardi. Bu hol dehqonlarni honavayronlikka olib borar, turmush tarzi qashshoqlashishda davom etar edi. Natijada asr boshlarida erini qarz evaziga topshirib, ish qidirib, amirlik hududidan har yili 20 ming dehqon Turkiston o‘lkasi shaharlariga ketishga majbur bo‘lar edi.

Amirlik kapitalizm munosabatlariga tortilayotganliklariga qaramay bu jarayon juda sust bormoqda edi. Buxoro amirligining shahar aholisi ham, qishloq aholisi ham avvalgidek eskicha tarzda turmush kechirar edi. Ularni ijtimoiy himoya qilishni davlat o‘z zimmasiga olmagan edi. Bu esa davlat va aholi o‘rtasida ziddiyatning chuqurlashib borishiga olib kelayotgan asosiy manba edi.

¹ Ўзбекистон тарихи. Т.: Ўқитувчи. 1999. Б. 226

Birinchi jahon urushi davrida amirlilik aholisining turmush darajasi yanada pasayib ketdi. Paxta maydonlari katta hududlarni egallab yotganligiga qaramay, Rossiyadan o‘lkaga don va boshqa iste’mol mollarini keltirish kamaydi. Oziq-ovqat tanqisligi juda ham sezila boshladи, chayqovchilik avj oldi. Harbiy soliq ko‘paydi. Buning oqibatida 1914-yillarda asosan paxtachilikka ixtisoslashgan Ziyoviddin va Shahrисabz bekliklarida g‘alayonlar yuz berdi. 1915-yilda esa bu g‘alayonlar Sherobodga yoyildi.

Xalq ahvoli og‘irlashayotgan bir paytda amir Olimxon oq podshoga yaxshi ko‘rinish uchun urush harakatlarida ishtirok etayotgan rus qo‘sishlariga “hayr-ehson” qilish maqsadida xalqning mol-mulkini tortib olish harakatini boshlab yubordi. Bu esa xalq nafratining yanada kuchayishiga sabab bo‘ldi.

1916-yilda bunga qarshi amirlikning deyarli barcha bekliklarida g‘alayonlar boshlanib ketdi. Shahrисabz, Yakkabog‘, Chiroqchi, Hisor va Boljuvonda vaziyat og‘irlashdi. Murg‘ob, Yakkatut, Bahovuddin, Vobkent, G‘ijduvon, Ziyovuddin, Xatirchida dehqonlar g‘alayonga keldi.

Dehqonlar, hunarmandlar, kosiblar ham dehqonlar tomonda turib erksizlik, huquqsizlikka qarshi kurashda qatnashdilar.

Xalqning ahvoli shu darajaga tushib qolganligining asosiy sababi amaldorlarning beboshligi ekanligini kuzatgan rus polkovnigi D.Logofet Buxoroni “huquqsizlar mamlakati” deb atagan edi. Hatto shunga yaqin fikrni Turkiston general-gubernatori kavaleriya generali A.V.Samsonov (1909-1913) ham qayd etib, imperatorga yo‘llagan ma’ruzanomasidan bunday deganligi bejiz emas: “Hozirgi kunda rus hukumati panohida Buxoro xalqi avvallariga qaraganda ham hech ko‘rilmagan darajada qashshoqlikka tushib qoldi. Amir esa rus nayzalariga suyangan holda o‘z mamlakati idorasi ishlariga juda loqayd qaraydi. Natijada Buxoro xalqining keng ommasi o‘rtasida amirga va uni qo‘llab-quvvatlovchi ruslarga qarshi g‘azab alanga olib bormoqda”¹.

¹ Бобобеков Х., Раҳимов Ж., Содиков Ҳ. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошлари). Т.: Ўқитувчи. 1999. Б. 228.

Ana shu g‘azab va noroziliklarni bostirish hamda amirlik poytaxtini himoya qilish uchun Turkiston general-gubernatori Buxoroga general Liliental boshchiligidagi qo‘sishin yubordi. Qo‘sishin qo‘zg‘olon va norozilik harakatini bostirib turdi.

Buxoro xonligining juda katta tabiiy boyliklari foydalanilmay yotardi. Faqat injener Juravko-Pokorskiy safid daryosi bo‘ylaridagi oltin konlarini qazish uchun amirdan ruxsatnoma olindi. Qazib olingan butun oltinni u Buxoro hukumatiga topshirib, buning evaziga har misqol uchun 5 so‘m 52 tiyin haq olardi.

Rus va mahalliy burjuaziya mamlakatdagi kon boyliklarini qazib chiqarishga kapital sarflashni foydasiz deb hisoblar edi. Uni hammadan ko‘proq savdo-sud xo‘rlik ishlari qiziqtirar edi. Sanoat esa katta foyda keltiruvchi paxtani tozalash bilan bog‘liq bo‘lganligi uchungina qiziqish uyg‘otar edi.

1912-yilda injener Kovalevskiy Kogon stansiyasidan Qarshi, Kerki, Kalif, Termizga boradigan Qarshidan G‘uzorkitobgacha shahobchasi bo‘lgan, umumiyligi qariyb 585 chaqirimdan iborat temir yo‘lni qurishga amirning roziligini oldi.

Buxoro temir yo‘lining qurilishi qishloqqa kapitalistik munsabatlarning kirib kelishiga yordam berdi. Kapitalistik munosabatlar asta-sekin feodal-patriarxal zaminni buza bordi, mamlakatning biqiqligi va parokandaligiga barham berdi hamda xonlikdagi ayrim viloyatlar mahalliy bozorlarining yagona Buxoro bozoriga qo‘silish jarayonini tezlashtirdi¹.

Kapitalizmning Buxoro xonligi iqtisodiy hayotiga kirib kelishi 1894-yilda Yangi Buxoroda Davlat banki bo‘limining ochilishiga sabab bo‘ldiki, uning butun kapitali 90 million so‘mgacha yetdi.

1915-yilda Yangi Buxoroda davlat banki bo‘limlaridan tashqari xususiy banklarning yana yettita bo‘limi (Tashqi savdo uchun Rus banki, Rus-Osiyo, Moskva uchyot, Azov-Don kommersiya, Sibir savdo, Birlashgan va Volga-Kaspiy kommersiya banklari) ishlab turdi, ularning Kerki va Chorjo‘y shaharlarida ham

¹ Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоклари. Т.: Шарқ. 2000. Б. 132.

agentliklari bor edi. 1915-yilda banklarning asosiy kapitali 20,3 million so‘mdan iborat bo‘ldi. Xususiy banklarning bo‘limlari orasida eng yiriklari Tashqi savdo uchun rus banki (kapitali 6 million so‘mga yaqin) va uchyot banki (kapitali 4 million so‘mdan ziyod) edi.

Rus-Osiyo banki o‘z vakili injener Kovalevskiy orqali Buxoro temir yo‘lini qurish uchun 1912-yilda amir bilan shartnoma tuzdi. 1913-yilda Rus-Osiyo bankining agenti Stavba amirning ijozati bilan 10 ming desyatina yerni 1915-yilda esa injener Kovalevskiy 34 ming desyatina erni, konsessiyaga oldi. 1911-yilda Buxoroda bir bo‘limi ochilgan Azov-Don banki aslini olganda Rossiyaning xonlikdagi paxta-qog‘oz sanoatining vakili edi. Tashqi savdo uchun rus banki qorako‘l teri savdosiga kredit berish operatsiyalari bilan shug‘ullanar edi. 1912-yilda Buxoroda bir bo‘limi ochilgan Sibir savdo banki paxtaga hamda xonlikda gazlama sotish bo‘yicha savdo firmalariga kredit berish bilan shug‘ullanar edi¹.

Xonlikda paxtachilikning rivojlanishi qishloq xo‘jalik tumanlarining ixtisoslashuviga olib keldi. Zarafshon vodiysi xonlikning asosiy paxta ekuvchi tumani bo‘lib, bu yerda 1909-yilda butun ekin maydonining chorak qismi paxta uchun ajratilgan edi. Buxoro xonligi podsho protektorati bo‘lib turgan yillar mobaynida paxta ekiladigan maydon besh barovar ko‘paydi.

Paxtachilik bilan bir qatorda qo‘ychilik asosan qorako‘l qo‘ylari boqish keng rivoj topdi va juda katta foyda berib turdi. Buxoro protektorati mavjud bo‘lgan yillar ichida xonlikda qora ko‘l qo‘ylari soni 6 baravar ko‘paydi. Paxtachilik va qorako‘lchilikning rivojlanishi qishloq xo‘jalik mahsulotlari tovardorligining oshirib uni bozor bilan, savdo-sudxo‘rlik kapitali bilan bevosita bog‘liq qilib qo‘ydi.

Markaziy Rossiya sanoatini ta’minlash uchun paxta, jun, qorako‘l teri va boshqa xil zarur xom ashyoni sotib olish bilan asosan yirik tayyorlash firmalari: A.Osser Savdo uyi, Eron shirkati, Pozianskiy, Shlossberg va Polyak shirkatlari shug‘ullanar edi. Ularga, shuningdek, “Mirhikmat Mirsolihov va Mirza Muhiddin Mansurov Savdo uyi” qo‘shilgan edi. Bu savdo uyi paxta va qorako‘l teri sotib

¹ Ўзбекистон ССР тарихи. Иккинчи том. Т.: Фан. 1971. Б. 394.

olish bilan shug‘ullanadigan, yillik oboroti 2 million so‘mgacha bo‘lgan “Eron va O‘rta Osiyodagi savdo va sanoat uchun Moskva shirkati” bilan sherik edi¹.

Paxta na qorako‘l teri sotib olish bilan shug‘ullanuvchi yirik savdo firmalarini davlat bankining va xususiy banklarning bo‘limlari mablag‘ bilan ta’minlab turardi. Banklar har yili mazkur firmalarga 40 million so‘mgacha pul berardi. Savdo uylari va tayyorlov firmalari yiliga 12 foiz evaziga mahalliy tarozidorlarga qarz berar, tarozidorlar esa har oyga bir so‘m foiz bilan kelasi yil paxta hosili uchun 15 so‘mdan dehqonlarga bo‘nak (avans) tarqatar, shu tarzda juda katta foyda olar edilar.

Bo‘nak asosan ko‘klamda – har yili aprel oyida, dehqonlar pulga juda ham muhtoj bo‘lgan vaqtida berilardi. Bo‘nak olgan dehqon yeri va mulkini garovga qo‘yib, qozi tasdiqlagan tilxat (qozi xati) berar edi. U qaysi torozidordan bo‘nak berish vaqtida belgilangan va haqiqiy bozor bahosidan past bo‘lgan baho bo‘yicha zakalat olgan bo‘lsa, o‘z paxtasini shu tarozidorga etkazib berishga majbur edi. Bo‘nak torozidorlar tomonidan bir botmon paxta uchun dehqonlarga 85 tangadan 100 tangaga qadar tarqatilar edi, vaholanki uning bahosi bozorda 145 tanga bo‘lardi. Bo‘nak tovarlar (gazlama, choy,sovun, kerosin va hokazo) shaklida ham berilar edi. Bundan tarozidorlar yutardi. Ular o‘z tovarlarini dehqonlarga bozor bahosidan ba’zan 25 foiz ortiq baho bilan sotardilar. Torozidorlar Buxoro xonligidagi paxtaning 3,4 qismini sotib olardi.

Shunday qilib, G‘arbiy Buxoroning paxta ekuvchi rayonlaridagi dehqonlar savdo-sudxo‘rlik kapitaliga batamom qaram edilar. Qarzdan qutulish imkoniyatiga ega bo‘lmagan dehqonlar yerdan mahrum bo‘lar va ko‘pincha qamoqqa tushar edi. Oktyabr to‘ntarishidan oldingi yillarda Buxoro xonligidagi yersiz dehqonlarning soni mamlakatdagi butun qishloq aholisining 25 foiziga yetdi. Har yili Buxoro xonligidan qariyib 20 ming kishi ish qidirib Turkiston o‘lkasidagi shaharlarga jo‘nar edi².

¹ Ko‘satilgan asar. Б. 395.

² Турсунов Х. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. Т.: Госуд. Издательство Узбекской ССР, 1962. С. 158.

Ana shunday sharoitda Buxoro xonligida kapitalizmning rivojlanishi g‘oyat sust bordi va mamlakatning shahar hamda qishloq aholisini kapitalizmdan ilgarigi usul asosida ekspluatatsiya qilish davom etaverdi.

XX asr boshlarida Buxoro madaniy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan yangi “Yosh fikrlilar” oqimi vujudga keldi. Bu oqimning yuzaga kelishida Ismoil Gaspirinskiy boshlagan taraqqiyparvarlik yo‘li ijobiliy ta’sir qildi. Shuningdek, 1905-1907-yillarda Rossiyadagi, 1905, 1910-1911-yillarda Turkiya va Erondagi inqilobiy harakatlar Buxoro ijtimoiy hayotiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

Buxoro ijtimoiy hayotida qarama-qarshi ikki kuch paydo bo‘ldi. Birinchisi, Buxoroning siyosiy hayotini demokratik tarzda qayta qurish, uning iqtisodiy yuksalgan, ilg‘or mamlakatlar qatoriga chiqishi uchun astoydil kurashuvchilar, ikkinchisi, johil diniy mutaasiblar, har qanday yangilik va islohotlarning dushmani bo‘lgan “qadimlar” oqimi edi.

“Yosh fikrlilar” birinchi oqimga mansub edilar. Sadreddin Ayniy ham shu oqimga mansub bo‘lib, “Jadidlar yoki yosh Buxoroliklar partiyasi tarkibi yoki yozilmay qolgan rejalar” nomli kitobida u mazkur tashkilotning maqsad va vazifalari, unda faol ishtirok etuvchilar haqida mufassal ma’lumotlar beradi. Uning asarida Abdulvohid Munzim, Mirza Muhiddin va uning o‘g‘li Mirza Ismoil Attor, Mulla Ochildi va boshqa ziyorolar tilga olinadi. S.Ayniy o‘scha kitobida “Yosh fikrlilar”ning safida turish tabaqa vakillari – din ahllari, hunarmandlar, dehqonlar, harbiylar, madrasa talabalari bo‘lgani va ularning yetakchilari Mufti Domla Ikrom, Qozi Abdusamad, Sharifjon Maxzum, Qozi Saidxon, Hoji Dodhoh, Porso Xo‘ja, Hoji Hamza Yo‘ldosh o‘g‘li, Mirza Po‘lat, Hoji Sirojiddin va Ahmad Kamoliy ekanligini tilga olgan. Sadreddin Ayniy bu tashkilotning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarini “Yosh fikrlilar” nomidan shunday bayon qiladi:

1. Biz savodsizlikni tugatish uchun, xalq tafakkurini yuksaltirish uchun kurashamiz va shuning uchun yangi maktablar ochish va jadid adabiyotini keng ko‘lamda tarqatish uchun harakat qilamiz.
2. Yo‘ldan ozgan din ahllariga qarshi kurashamiz, maqsadimiz diniy dargohlarning asossizligini, johil din ahllarining yolg‘onchi va razil

ekanligini, shuningdek, ularga ergashgan ruhoniylar va madrasa talabalari fikrlarini fosh etish va madrasalarni isloh qilishni yo‘lga qo‘yish (yangi uslubga o‘tkazish)

3. Xalqqa davlat arboblarining qabih va zulmkor ekanligini ko‘rsatish. Shu maqsadda xalqqa davlat qonunlarining mohiyatini, qozilarning odamlarga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatish. Iloji boricha kambag‘al odamlar va qishloq aholisining haq-huquqlarini himoya qilish, chunki ular davlatdan ko‘p xo‘rlik va zulm ko‘rdilar.
4. Odamlarga amirning, saroy ahillarining boyligi va razilligini fosh etish, ko‘rsatish. Xazinadagi boyliklar amir yoki uning bosh vaziri (qushbegi)ning shaxsiy mulki emas, oddiy xalqni ekanligini tushuntirish. Amir va uning odamlari xalq mulkini o‘z hohishicha talon-taroj qilishga haqqi yo‘q ekanligini tushuntirish.
5. Aholi orasida ahloqsizlik va bid’atga chek qo‘yish, sunnat to‘y va aza marosimlarida iloji boricha diniy qonun-qoidalarga rioya qilish.
6. Aholi orasida eskilik sarqitlariga chek qo‘yish. Mutaassiblarning raqobati, bir-birini mensimay haqoratlashiga, qo‘pol munosabatiga chek qo‘yish¹.

Bu g‘oyalarning amalga oshirish, xalqni tayyorlash, xalq fikrini yetishtirish uchun yoshlar va “Yosh fikrlilar” shu “Pragamm”ni yozib, g‘oyalarni odamlar orasida tarqatishga o‘zaro ahd qildilar. Yoshlardan, gazet va jurnallar yordamida bu g‘oyalarning keng tarqalishi tufayli jamiyatda bo‘layotgan katta rishvatxo‘rlik, fojialar, o‘g‘rilik, qotillik va zo‘ravonlikning sababchilari hammaga ravshan bo‘la bordi. Bu, o‘z-o‘zidan ma’lumki, generallar orasidagi raqobat, ruhoniylar va din ahllarining fanatic va qoloqligi, davlatning zo‘ravonligi va zulmi, keng tarqalgan tanish-bilishchilik edi. Agar voqealar shu yo‘sinda ketaversa, davlat esa tartib o‘rnatish uchun yangi qonun-qoidalalar chiqaraversa, agar boshlang‘ich maktablar sonini oshirmsak, odamlarning ongi va bilimi oshirilmasa, madrasa, masjidlar isloh qilinmasa, unda Buxoroning ilmiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayoti xavf ostida qoladi. Bu g‘oya vujudga kelishi bilanoq oz vaqt ichida butun ilg‘or odamlar

¹ Ўзбекистон тарихи. Т.: Ўқитувчи, 1999. Б. 230.

orasiga tarqalib ketdi. U hoh shia, xoh sunniy bo‘lsin, hoh eronlik, xoh tojik, har bir yangilik tarafdori bo‘lgan ilg‘or odamning o‘yi va fikriga aylandi. Ular zo‘ravonlik, ahloqsizlik, jaholatparastlikka qarshi muqaddas urush e’lon qildilar.

Bu fikr tarafdarlarini birlashtiruvchi sabab yangicha usulda tashkil etilgan maktab bo‘lgani uchun (usuli jadid) ulamolar va davlat arboblari ularning firqasini “Jadid” yoki “Jadidlar” deb atadilar. Bu firqaning g‘oyalari juda yuksak va taraqqiyatparvar edi. Bu partiya xuddi “Yosh turklar” singari yoshlardan yoki yosh fikrlilar bo‘lgani tufayli yosh buxoroliklar o‘zlarini “taraqqiyatparvarlar” deb atadilar¹.

Yoshlarning tarafdarlari ko‘payib, xalq fikri tiniqlasha borsa ham gazet chiqarish va og‘zaki gapdan bo‘lak ish qilib bo‘lmadi. Chunki Nasrullo mullalarning fitnalaridan so‘ng qushbegi oliy maqsadiga ko‘tarilgan edi, shuning uchun u ularning izmidan chiqmasdi. Shuning uchun bunday davrda oddiy bir yig‘in uyushtirish ham mushkul edi. Taraqqiyatparvarlarning qo‘llab-quvvatlashi tufayli bir qancha yoshlardan – Usmonxo‘ja Po‘latxo‘ja o‘g‘li, uning akasi Otaxo‘ja, Mazhar Mahzum, Burhon Mahzum o‘g‘li, Abdurauf Fitrat va Muqimbeklar bilimlarini mukamallashtirish uchun Istambulga yo‘l olishdi. Abdurauf Fitrat Buxoro talabalari ichida eng iqtidorli va o‘qimishlisi hisoblanardi.

1910-yilning sentyabrida Mirza Siroj Hakim bir necha yillik safardan qaytayotganida Buxoroda to‘xtadi. U o‘z uyida Ovro‘pa uslubida shifoxona ochib, yangi usul bilan odamlarni davolay boshladidi. O‘qimishli va ma’rifatli bo‘lgani uchun uning Buxoroga kelishi yoshlarga sezilarli darajada kuch berdi. Shu yili tatarlar Abdurahmon Sa’diy o‘rniga tatar muallimi Ismoil Qorini oldilar. Ular o‘zlarining shaxsiy maktablari faoliyatini davom ettirdilar. Hatto bir yil oldin hukumat man etgan bo‘lsa ham Buxoro xalqi o‘z bolalarini tatar maktabiga bera boshladidi. Yoshlar soni ko‘paydi va xalqning fikri tiniqlasha, teranlasha boshladidi. Amir Abdulahad turli fitna-fasod, ikir-chikirlar dastidan yo‘ldan adashdi. Fitnachilar maktabga ham qarshi bo‘ldi, ular taraqqiyatparvarlarga qarshi fitna boshida turdilar. Bunday odamlar hukumat arboblari bilan yaqinlashib, ilg‘or

¹ Ko‘satilgan asar. Б.231.

yoshlar siyosiy fasod yo‘lidan ketmoqda deb ularni qaradilar: “Agar yangi usuldagi maktab davom etaversa, juda oz vaqt dan so‘ng xalq o‘z shartlarini qo‘ya boshlaydi va Sulton Abdulhamid va Muhammad Ali Shoh kabi oliy hazratlarini ham taxtdan qulatadi. Hamma gazetlar doim Buxoro hukumatini ta’riflaydi, barcha gazetlar va o‘quvchilarning tili bir. Shuning uchun ularning bahridan o‘tish kerak”. Lekin bu do‘q-po‘pisalardan qo‘rqmagan yoshlar faol ish olib bordilar. Buxoro jadidlari tashkil etgan “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) jamiyati yordamida Turkiyaga borib Istanbulda 1909-1913-yillar davomida o‘qib yurtiga qaytgan Abdurauf Fitrat “Sayha” (“Na’ar”), “Sayyohi hindiy” kabi asarlaridan xurofot, bid’at va johillikni keskin qoraladi. Ma’rifat va istiqlolni kuylagan Fitratning bu ikki asari jadidlар adabiyotidagina emas, balki XX asr boshidagi Buxoro madaniy hayotida ham katta voqeа bo‘ldi.

Turkiyada “Yosh turklar”ning turli g‘oyalari, siyosiy yo‘nalishlari bilan tanishgan Fitrat mazlum Buxoro va butun Turkiston eli istiqlolli uchun kurashga otlandi. Istiqlol uchun kurash milliy g‘ururni va mustamlaka istibdodiga ezilgan xalqning siniq ruhini ko‘tarishdan boshlanishini Fitrat to‘la tushunib yetgan edi¹.

Jadidizm harakatga hayrihoh bo‘lgan amir Abdulahadxonning o‘limidan so‘ng (1910) taxtga o‘tirgan o‘g‘li Said Olimxon jadidlar harakatiga nafrat bilan qaradi. Unga zarba berish uchun payt poylaydi. Amir Buxorosidan amirning yangi raqibi kurash maydonida ko‘rina boshlaydi. U “Yosh buxoroliklar” a’zosi, davlatmand kishi Ubaydulla Xo‘ja o‘g‘li Fayzulla Xo‘ja edi. Amir va inqilobchi tashkilot orasidagi ziddiyat tobora kuchayib, sinfiy dushmanlikka aylanib ketdi.

¹ Ko‘satilgan asar. Б. 232.

Xulosa

Adabiyot va manbalarni o‘rganish hamda ularni tahlil qilish, umumlashtirish shuni ko‘rsatadiki, podsho hukumati Turkiston o‘lkasini o‘zining mustamlakachi va agrar xom ashyo bazasi sifatida ushlab turishga har tomonlama harakat qildi. Avvalombor, buni iqtisodiy sabablar, asosiysi arzon qishloq xo‘jalik mahsulotlariga bo‘lgan hukmron doiralarining talabi taqozo qilar edi. Ayniqsa chet eldan keltiradigan Rossiya to‘qimachilik sanoatining xom ashysosi hisoblangan paxtaga bo‘lgan talabi bunday siyosatni shakllanishiga sababchi edi.

Birinchi jahon urushi arafasida o‘lka shaharlarida sanoat anchagina o‘sganligi ko‘zga tashlanadi. Masalan, o‘lkada 1900-yilga qadar 171 ta korxona ishga tushgan, keyingi 10 yil ichida (1900-1910-yy) 223 ta korxona qurilgan bo‘lsa, keyingi to‘rt yil (1910-1914-yy) ichida 179 ta (jami 302 ta)korxona qurildi.

Turkiston o‘lkasi sanoatining asosiy xususiyati uning mustamlaka haraeterda bo‘lishidadir. Bu sanoat asosan chetga olib ketiladigan mahsulotni ishlab berish bilan shug‘ullandi. O‘lkadagi ichki bozor talablarini qondiruvchi sanoat tarmoqlari o‘zining miqyosi jihatidan ikkinchi o‘rinda turadi.

Turkistonda sanoat korxonalari paydo bo‘lganligi, garchi hali kapitalistik munosabatlar rivojlanishining umumiylar darajasi past bo‘lsa-da, katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Biz o‘rganayotgan davrda rus va chet el kapitalining sanoat-savdo korxonalari bilan bir qatorda mahalliy kapitalistlarga qarashli bir talay sanoat va savdo korxonalari ham paydo bo‘ldi. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganidek, 1912-yilda Farg‘ona viloyatidagi 157 ta paxta tozalash zavodining 107 tasi, Samarqand viloyatidagi 37 zavoddan 27 tasi, Toshkent shahri va Toshkent uezdidagi 15 ta zavoddan 3 tasi, Buxoro xonligidagi 20 zavoddan 8 tasi mahalliy boylarniki edi.

Manbalarni o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, haqiqatda, Turkiston o‘lkasida paxtachilik rivojlanib, bu soha hukmron sohaga aylanib bordi. Sharoitga mos tushadigan Amerika paxta navlari iqlimlashtirildi va paxta tozalash zavodlari qurildi, ancha takomillashtirish dehqonchilik qurollari paydo bo‘la boshladi, paxta bilan shug‘ullanuvchi yirik firmalar faoliyat ko‘rsatdilar.

1917-yilgacha bo‘lgan davrda paxtani rivojlantirish va undan olinadigan daromadlarni ko‘paytirish harakati butun o‘lka hayotini chulg‘ab oldi. Barchani fikri-zikri paxtaga qaratilib, “paxta vasvasasi” keng quloch yoydi. Buning tashabbuskorlari va ilhomchilari podsho hukumati va savdo-sanoat doiralari hisoblanadi. Ko‘rilgan chora-tadbirlarning hammasi oqibatida o‘lkada paxtachilik qishloq xo‘jaligining hukmron tarmog‘iga aylanishiga olib keldi.

Yana bir xulosa shundan iboratki, shaharlarda sanoatchi kapitalistlar sinfi vujudga kelishi bilan bir qatorda xonavayron bo‘lgan hunarmandlar orasidan mahalliy ishchilar sinfi ham yetishib chiqa boshladi.

Mahalliy millatlardan yangi vujudga kelayotgan ishchilar sinfi paxta tozalash zavodlarining, yog‘-moy zavodlari, vino-aroq zavodlari hamda boshqa zavod va fabrikalarning ishchilaridan, temir yo‘l, Toshkent tramvayi ishchilaridan, shuningdek, hunarmandchilik korxonalarida yollanib ishlayotgan kishilardan iborat bo‘ldi.

Ta’kidlash kerakki, paxtachilik yangi sun’iy sug‘orish tarmoqlarini keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yish, yangi erlarni o‘zlashtirish hisobiga emas, balki ilgaridan foydalanib kelingan, kelinayotgan ekin maydonalri doirasida rivojlantirilgan. Oqibatda, o‘lkada oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish kamaydi, oziq-ovqatlar narxi va umuman narx-navoning ortib ketish holati vujudga keldi. Ayniqsa, g‘allachilikka katta zarba berildi. Natijada o‘lkada qashshoqlik hukm surib, xalqning hayoti g‘oyatda yomonlashdi. Dehqonlar tomonidan mashaqqatli mehnat evaziga yetishtirilgan paxtani huzurini butunlay boshqa tabaqa kishilari ko‘rdilar.

Turli soliqlar miqdorini ortib borishi, turli qo‘sishimcha majburiyatlar mehnatkash xalq ommasini umumiyloroziliginu vujudga keltirdi.

Bularga qo‘sishimcha mustamlakachilar tomonidan milliy his-tuyg‘u va siyosiy uyg‘onishga qarshi choralar ko‘rildi. Xalq ustidan ta’qib va nazoratlar kuchaydi. Islom dini siquvgaga olindi. Umuman aytganda, mustamlakachilik siyosati va milliy zulm, siyosiy va insoniy huquqlarning yo‘qligi, adolatsizlik va zo‘ravonlik mustamlaka xalqning ozodlik kurashlariga zamin yaratdi.

Hatto, shunday holat yuz berdiki, xalq ichidan yetishib chiqqan ilg‘or fikrli kishilar mustamlaka zulmidan xolos bo‘lishning turli yo‘llarini izlay boshladilar.

Barcha jabhalarda mahalliy xalq manfaatlarini faqatgina etuk bilimli, malakali mutaxassislargina himoya qila olishi mumkinligini tushungan ilg‘or ziyoli va sarmoyadorlar qatlami dastlabki yangi usul maktablarini tashkil qildilar.

O‘lkadagi taraqqiyparvarlik harakatining vujudga kelishida Rossiya muslimmonlari orasida I.Gaspirali tomonidan keng yoyilgan jadidchilik harakati, muslimon va sharq mamlakatlaridagi milliy ozodlik g‘oyalari va harakatlarining ta’siri katta bo‘ldi.

Yana bir xulosa shundan iboratki, XX asr boshlaridagi Turkistondagi jadidchilik harakati XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan ma’rifatparvarlardan, o‘zlarining maqsad va intilishlari bilan farq qilar edi.

Shuningdek, O‘zbekiston hududidagi jadidchilik harakatining shakllanishiga podsho hukumatining maorif sohasidagi siyosati ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatgan edi. Taraqqiyparvarlarning harakati tufayli XX asr boshlariga kelib o‘lkada ko‘plab yangi usul maktablari faoliyat ko‘rsata boshladilar.

Rossiya va sharq mamlakatlarida boshlangan inqilobiy o‘zgarishlar Turkiston jadidlari faolligini oshuviga katta turtki bo‘ldi va jadidchilik harakati ushbu jarayonlar ta’sirida siyosiy tus ola boshladi.

Xuddi shuni singari, XX asr boshlaria Buxoro madaniy hayotida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan oqim vujudga keldi. Ta’kidlash joizki, XIX asr oxiri va asosan XX asr boshlarida Turkiston, Buxoro amirligidagi jadidlar hamda Turkiyada ro‘y bergen ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar ta’sirida Xiva xonligida ham ma’rifatparvarlik harakati vujudga keldi. Xonlikdagi ma’rifatparvarlar zamonaviy bilimlar berish orqali aholi o‘zligini anglashi, siyosiy faolligini oshirish maqsadida yangi usul maktablari tashkil etdilar. Ma’rifatparvarlarning faoliyatiga Turkiston o‘lkasida mustamlakachi hukumati, Buxoro amirligidida esa amir hukumati salbiy munosabatda bo‘lgan bo‘lsa, Xiva xonligida buning aksi edi. Xon va uning ayrim taraqqiyparvar amaldorlari yangi usul maktablarini ochishga homiylik qildilar.

Yangi usul maktablari keng ko‘lamli, o‘qitish sifati bilan eski maktablardan ustun bo‘lib, Xiva xonligi aholisi ishonchini qozondi.

Shunday qilib, XX asr boshlarida Xiva xonligini jahon taraqqiyotidan ortda qolganligini anglagan va uni rivojlantirish uchun harakat qilgan taraqqiyparvar kishilar maydonga chiqdilar. Ular mamlakatni rivojlantirish uchun uzoq davrlardan beri amal qilinib kelinayotgan bir qator sohalarda eskirgan tartib qoidalarni o‘zgartirish orqali erishishni ko‘zlardilar. Mustamlakachi hukumat o‘z manfaati nuqtai nazaridan yondashib, xonlikda islohot o‘tkazish tarafdori edi.

Ular Xiva xonligini Rossiya gubernyalaridan biriga aylantirish ruscha davlat boshqaruvini joriy etishga intildilar. Taraqqiyparvarlar davlat arbobi Islomxo‘ja rahbarligida islohatlarni amalga oshirish jarayonida bir qancha ijobiy ishlar amalga oshirildi. Asfandiyorxon va ayrim katta yer egalari manfaatlariga zid bo‘lgani sababli islohotlarning amalga oshirilishiga qarshilik qildilar. Ular islohot tashabbuskori Islomxo‘jaga suiqasd uyushtirib uni yo‘q qilishga erishdilar. Oqibatda islohotlar rejasida belgilangan ishlar oxiriga yetmay qoldi. Shunga qaramay islohotlarni amalga oshirish jarayonida yangi usul maktablarini ochish, telegraf, kasalxona barpo etilishi va boshqa ijobiy o‘zgarishlar Xiva xonligi hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shunday qilib, birinchi jahon urushi arafasida Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisini ma’naviy qaram qilish siyosati strategiyasi, mahalliy millat xalqlarining huquq, odat va an’analarini nazarpisand qilmasligi, musulmon dini va ruhoniylarning rolini pasaytirish bo‘yicha ko‘rilgan choralar, mustamlakachilik hokimiyati tomonidan ma’naviy hayot, butun madaniyat, ta’lim va tarbiya tizimi ustidan mafkuraviy nazorat o‘rnatish siyosati, milliy ong va milliy g‘oyani yo‘qotish bo‘yicha imperiacha amaliyot, bularning eng yuqori darajaga etishi milliy ziyolilarni chorizmning buyuk davlatchilik, shovinistik siyosatiga qarshi kurashini, jadidlar harakatining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga, o‘lka xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashiga olib keldi.

Foydalanilgan manbalar va adabiyotlar

RO'YXATI

I. Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари

1. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.: Ўзбекистон, 1997, 329 бет.
2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз – келажак йўқ.–Т.: Ўзбекистон, 1998, 35 бет.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас қуч. –Т.: Маънавият, 2008, 176 бет.

II. Россия империяси мустамлақачилиги даврида чоп этилган адабиётлар

1. Верховский Н.П. Хлонепководство в Туркестане и перевозка хлопка Ташкентской и Средказиатской железными дорогами. –СПБ., 1910, 100 стир.
2. Гулишамбаров С.И. Экономический обзор Туркестанского района – Ашхабад, 1913, 180 стир.
3. Зорская В.В. Александр К.А. Промышленные заведения Туркестанского края. –Пг. 1915, 559 стир.
4. Шахназаров А.И. Сельское хозяйство в Туркестанском крае. –СПБ., 1908, 145 стир.

III. Совет ҳукмронлиги даврида нашр этилган адабиётлар

1. Алимов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). –Т.: Госиздат, 1959, 298 стир.

2. Акрамов Ш. Интерсеные архивные источники по аграрному движению в Туркестане период первой русской революции. // Общественные науки в Узбекистане, №12, 1975, 48-52 стир.
3. Демидов А.П. Экономические очерки хлопководства, хлопковой торговли и промышленности. – Москва, 1926, 260 стир.
4. Йўлдошев М.И. Хива хонлигига феодал ер эгалиги ва давлат тузилиши. – Т.: Ўздавнашр, 1959, 120 стир.
5. Костельская З.Д. Из истории Туркестанского края – Москва, наука, 1980 , 120 стир.
6. Погорельский И.В. Очерки экономической и политической истории Хорезмского ханства конца XIX – начало XX века (1873-1917 гг.) –Л.: Изд-во ЛГУ, 1968, 164 стир.
7. Соатов С.С. Ўрта Осиёнинг Россияга қўшиб олиниши ва унинг аҳамияти. –Т.: Фан, 1966, 132 бет.
8. Социально-экономическое и политическое положение Узбекистана накануне октября. –Т.: Фан, 1973, 236 стир.
9. Турсунов Х. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. –Т.: Гос издат, 1962, 428 бет.
10. Ўзбекистон тарихи. 4-томлик. II-том. Т.: Фан, 1971, 664 бет.
11. Усманов И. Из истории дехканских волнений в Туркестане в конце XIX – нач. XX веков. В КН.: Исследование по проблемам общ. Наук и исторических дисциплин. –Т.: Фан, 1977, 86-95 стир.
12. Юлдашев А.М. Аграрное отношение в Туркестане (конец XIX – начало XX в.). –Т.: Фан, 1969, 256 стир.

IV. Мустақиллик даврида нашр этилган адабиётлар

1. Абдурасулов А.Хива –Т.: Ўзбекистон, 1997, 80 бет.
2. Алимова Д.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий – сиёсий моҳияти ва жадидлар тафаккури. Жадидчилик: ислоҳият, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Т.: Университет, 1999, 35-52 бет.
3. Бобобеков X., Раҳимов Ж., Содиков X. Ўзбекистон тарихи (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). –Т.: Ўқитувчи, 1994, 256 бет.
4. Долимов У. Туркистонда жадид мактаблари. –Т.: Ўқитувчи, 2006, 126 бет.
5. Зияева Д. Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги Россия протекторати остида (XIX аср охири – XX аср бошларида). –Т.: 2003, 134 бет.
6. Зиёев X. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида. –Т.: Шарқ, 2006, 351 бет.
7. Жадидчилик: ислоҳият, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. –Т.: Университет, 1999, 215 бет.
8. Жадидчиликнинг кўзга кўринган вакиллари. –Т.: Маънавият, 2002, 62 бет.
9. Исхаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.). –Т.: Фан, 1997, 204 бет.
10. Мирзаолимив Э.Ю. Бозоров М.Т. Наманганнинг XIX аср охири – XX аср бошларидаги социал – иқтисодий ва маданий ривожланиши. –Наманган, 1998, 56 бет.
11. Мунаввар Қори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. –Т.: Шарқ, 2001.
12. Ризаев Ш. Жадид драмаси. –Т.: Шарқ, 1997, 128 бет.
13. Ражабова Р. Суронли замонлар. // Хива минг гумбаз шаҳри. –Т.: Шарқ, 1997, 110 бет.
14. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Ўзбекистоннинг янги тарихи. –Т.: Шарқ, 2000, 464 бет.
15. Тўраев Д. Миллий истиқлол ғояси ва жадид адабиёти. –Т.: Шарқ, 2002, 84 бет.

16. Тарих тилга кирганда ... (Илмий мақолалар тўплами). – Наманган, 2016, 340 бет.
17. Узоқов Х. Эр киши битта гапиради. –Т.: Шарқ, 1997, 62 бет.
18. Усмонов К., Содиқов М., Обломуродов Н. Ўзбекистон тарихи. I-қисм. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2002, 280 бет.
19. Худойберганов К. Хива хонлари шажараси. –Урганч, Хоразм, 1996, 42 бет.
20. Хасанов С. Хоразм маърифати олами кўзгуси. –Т.: Ўқитувчи, 1996, 61 бет.
21. Шарафиддинов А., Қодиров Н. XX аср бошларида Фарғона вилояти қишлоқларида халқ ҳаркатлари (Наманган уезди мисолида) // Тарих тилга кирганда ... (Илмий мақолалар тўплами). –Наманган, 2016, 223-226 бет.

Авторефератлар

1. Деҳканов А. История фабрично – заводской промышленности и рабочего класса в Ферганской области (конец XIX – начало XX в.). Автореферат диссерт. На соиск. канд. ист. наук. –Т.: 1981, 24 стир.
2. Эргашев Х. Рабочий класс Узбекистана в борьбе за создание и развитие нефтяной промышленности (1917-1928 гг.). Автореферат диссерт. На соиск. канд. ист. наук. –Т.: 1979, 26 стир.
3. Каюмов М. Общественно – политическое процессы в Хивинском ханстве вторая половина XIX – начало XX в. Автореферат диссерт. На соиск. канд. ист. наук. –Т.: 2005, 24 стир.

